Hozirgi vaqtda ovoz turini bexato aniqlay oladigan yagona uslub mavjud emas. Ba'zi hollarda bas o'zi havas qilgan tenorga ovozini o'xhastishga harakat qiladi. Natijada tovushning shakllanishi yuzaki bo'lib qoladi. Tenor esa o'zini murakkablikdan xoli qilish uchun bariton deb aytadi. Pedagog o'quvchining ovoz xususiyatlarini uning ijrochilik usulidan ajrata bilish kerak. Ovoz turini aniqlashda tembr, diapazon, registr tuzilishining xususiyatlari, markaziy tovushlar, tessiturani ushlay bilish qobiliyati, hamda fiziologik –anatomik belgilar (Ovoz bog'lamlarining uzunligi va zichligi, rezonator tizimlari va boshqalar), xronaksimmetriya kabi qator alomatlar hisobga olinishi kerak. Tajribali vokal o'qituvchisi o'quvchining ovoz tembridan ko'p narsani bilib oladi. Bu shaxsiy akustik xususiyat turli tessituralarda sinchiklab tekshirilishi lozim. Tembrning eng yaxshi sifatlarini eshitish uchun bir asarni yondosh tonalliklarga ko'chirib ijro etish mumkin.

Diapazon ham ovoz turini aniqlovchi belgilardan biridir. Biroq u o'quvchida doim ham to'la hajmda ifodalanmasligi mumkin. Ko'pincha u chegaralangan bo'ladi. Ba'zi hollarda uchraydigan "metso soprano" va "soprano" tonlarini o'z ichiga olgan, nihoyatda keng diapazon ham foyda bermaydi. Ovozni to'g'ri tasnif qilishda registr tuzilishini o'rganish yordamchi vositadir.

Erkaklar ovozlarining turi, hajmi va kengligi quyidagilardan iborat:

Tenor (do kichik oktava – do 2 oktava) ovoz kengligiga ega.

Altino tenor – juda harakatchan yengil yuqori registrda jaranglaydi. Lirik tenor – yumshoq harakatchan ovoz jarangi deyarli hamma joyda bir tekis taraladi. Xarakterli tenor - lirik ovozning chiroyli va yoqimlilikini belgilaydi.

Lirik dramatik tenor – keng ovoz hajmi kengligiga ega ovoz.

Dramatik tenor - kuchli, jarangdor bo'lib, drammatik holatlarni tasvirlay oladigan ovoz.

Bariton – (A – kichik oktava – G – birinchi oktava lya - katta okatavadan sol - birinchi oktavagacha).

Lirik bariton - xarakteri bo'yicha tenor tembriga yaqin, lekin bariton xususiyatiga ega ovoz. Drammatik bariton - unchalik yorqin bo'lmagan ovoz, katta kuchga ega va pastki registrdagi ovoz bo'linmalarini ham ijro eta oladi.

Bas ovoz – (fa- katta oktavadan – fa-birinchi oktava). Yuqori bas – (yorqin jaranglash, baritonal tembrni eslatadi.) Markaziy bas- xarakterdagi aniq bilinadigan tembrga ega ovoz. Pastki bas - chuqur, kuchli va past tovushga ega. Oktavadagi bas-asosan xorlarda aytiladigan ovoz. Kontr oktavagacha tushishi mumkin.

Bas - bu ham xarakterli tenorga o'xshab sahna imkoniyatiga qarab ijro eta oladi.

Ayollar ovozlarning turlari quyidagilardan iborat:

Soprano do – birinchi oktava (do uchinchi oktava) ovoz kengligida yuqori pag'onalarda yengil jaranglaydi. Koloratura ovozi – Juda chiroyli tembrni, o'ta o'zgaruvchan melizimlarga boy va katta harakatchanlikka ega ovoz. Bu ovoz do-birinchi oktava, uchinchi oktava do – re-mi va undan ham kengroq ovoz hajm kengligiga ega.

Lirik koloratura ovoz – o'ynoqi, yengil texnik harakatchan va mayin ohangdor ovoz. Lirik soprano ovoz - yengil hamda baquvvat yuqori ovozlari. 3-oktava “do” dan oshmaydi.

Lirik dramatik soprano - ancha to'la ovoz, ko'krak tembrni jarangdor bo'ladi. Dramatik soprano ovozi - kuchli, vazmin ovoz. Dramatik tembrda jaranglaydi.

Metso soprano -kichik oktava lya - ikkinchi oktava lya gacha. Yuqori metso ayollar ovozi - ko'krak ovozi bo'lib mayin tembrli bo'ladi. Pastki metso ayollar ovozi – ancha pastda bo'lib, yo'g'on eshitiladi.

Kontralto – (mi kichik oktava , fa – ikkinchi oktava) eng pastki va kamdan-kam uchraydigan ayollar ovozi. Juda katta va keng jarangga ega.

Bolalar ovozlarning turlari quyidagilardan iborat:

Soprano-(diskant) yuqori ovoz, yengil, o'zgaruvchan yumshoq yangraydi. Katta ta'assir kuchiga ega (do-birinchi oktava, fa, sol-ikkinchi oktava)

Alt- bolalar pastki ovozi-kuchli va birmuncha yo'g'on jarangdor tembrga ega.

(sol, lya- kichik oktava, re – mi ikkinchi oktava)²¹

Ta'lim jarayonida ovoz turlarini, uning hajmini, kengligini aniqlash orqali ovoz xarakteriga mos bo'lgan vokal mashqlari – vokalizlar hamda qo'shiqlar kuylatib boriladi, bu esa ovoz hajmi kengligini chiroyli, rang-barang tembrda va jarangdor bo'lishiga imkon yaratadi.

O'qitishda tadrijiylik va davomiylik tamoyili. Bu umumpedagogik tamoyil bo'lib, ta'lim jarayonida soddadan murakkabga qarab borishni nazarda tutadi.

Tadrijiylik xonanda diapazonini kengaytirishda - vokal mashqlari, repertuar tanlash, lirik hissiyotdan dramatik hissiyotga o'tish uchun qo'llaniladi. Repertuari murakkablashtirish ovoz zo'riqishi va ovozni yo'qotishga olib keladi. O'quvchi bilan ishlaganda birinchi navbatda ovoz tembri, uning yorqinligi, sifati va uchqurligi uchun g'amxo'rlik qilish zarur. Bu ishlarni amadga oshirayotganda ovoz zo'riqishidan saqlanish lozim.

Adabiyotlar:

1. Болтаев, Бехруз Хамидович. "Методы вокального развития для школьников." *Проблемы науки* 4 (63) (2021): 98-100.
2. Boltayev B. H. DARVISH ALI CHANGIY VA ZAMONDOSHLARIDA FAZOVIY (KOSMOLOGIK) 12-MAQOM FALAK BURJLARI NAZARIY TAMOYILLARI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 11. – С. 85-90.
3. Болтаев Б. Х. Описание приёмы и методики представителей исторического генезиса и этапов узбекского музыкального обучения //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 806-813.
4. Hamidovich B. B. Classification of the Bukhara Status (" Shashmakom") System //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 109-111.
5. Boltayev B. H. BUXORO SHASHMAQOMI VA XORAZM MAQOM IJROCHILIGIDA MUSHKULOT (CHERTIM) VA NASR (AYTIM) YO'LLARI SEMANTIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – С. 776-782.
6. Boltayev B. H. BUXORO AJDODIY SAN'ATI "SHASHMAQOM" TIZIMINING NAZARIY TAMOYILLARI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 152-158.
7. Rajabov T. I., Boltayev B. H. Al-Forobiy Va Ibn Sino Sharq Musiqiy Ta'limotida "Iyqoot" Usullari Nazariyasi Asoslarining Zamonaviy Tasnifi //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 39-43.
8. Behruz Boltayev Hamidovich INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM. *Academia Science Repository*, 4(04), 1063–1066. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/90>
9. Behruz Boltayev Hamidovich. (2023). AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF "IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION. *Academia Science Repository*, 4(04), 102–104. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/414>
10. БОЛТАЕВ Б. Х. ПРОБЛЕМЫ НАУКИ //ПРОБЛЕМЫ НАУКИ Учредители: Олимп. – №. 4. – С. 98-100.

SHAXS TUSHUNCHASI HAQIDA MULOHAZALAR

Inomiddinova Durdona Ulug'bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, "pedagogika" fakulteti

"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Email: inomiddinovadurdona3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning tabiiylik va ijtimoiylik masalasiga boshqacha yondashishi, biologik tuzilishi, ijtimoiy munosabatlari, irodaviy zo'r berish tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, biologik tuzilishi, taassurotlar va kechinmalarga bo'lgan munosabatlari hamda o'zini faollashtirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье говорится о различном подходе человека к вопросу естественности и социальности, биологической структуры, социальных отношений, восприимчивости к внешним воздействиям, биологической структуры, отношения к впечатлениям и переживаниям, самоактивации.

Abstract: This article talks about a person's different approach to the issue of naturalness and sociality, biological structure, social relations, susceptibility to external influences, biological structure, relations to impressions and experiences, self-activation.

Kalit so'zlar: Shaxs, individ, shartsiz reflekslar, ijtimoiy munosabatlar, jamiyat, subyekt shaxs, individuallik, xotira, amaliy faoliyat, sezuvchanlik.

Kirish: "Shaxs" tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha tarmoqlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson psixologiyasi bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi shaxsning jamiyat bilan aloqasini chetlab o'tolmagan. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'lashlagan. Har bir odam konkret shaxs sifatida odamlar qurshovida yashaydi, ma'lum guruh yoki jamoa qurshovida bo'ladi. Guruh va jamoalar doim o'zgarib turadi. Shaxs esa ana shu o'zgarishlarga moslashib, shu guruhdagi murakkab munosabatlarga kirishishi kerak. Shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lib odamlardan alohida yashay olmaydi. Odam bolasi individ sifatida dunyoga keladi, o'z hayotini davom ettirish uchun tug'ma, shartsiz reflekslarga, nerv sistemasining tiplariga ega bo'ladi. Keyinchalik shu reflekslar asosida ma'lum munosabatlarga kirisha boshlaydi. Biz katta yoshdagi odamni ham chaqaloqni ham, tilni va oddiy¹ malakani egallay olmaydigan telbani ham

1. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti": – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

individ deymiz. Individ qachonki jamiyatga foydasi tegadigan bo'lib, odamlar bilan ongli munosabatdabo'lgandagina shaxs bo'la oladi. Shaxs-ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir. Odam bolasi tugallashdan ma'lum biologik belgilarga ega bo'lib, u ijtimoiy tajriba ortirishi jarayonida shaxs bo'lib shakllana boshlaydi.

Shaxs - ma'lum jamiyatning a'zosi bo'lib, shu jamiyat a'zolari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan konkret insondir. Demak, kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy, o'z e'tiqodiga, qarashlariga, munosabatlariga, baholariga ega subyekt shaxs hisoblanar ekan. Shunday qilib, odam ijtimoiy jamiyatda, konkret odamlar bilan ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxs sifatida tarkib topa boshlaydi. Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan hislatlar va fazilatlar birikuvidan tarkib topadi. Individuallik- kishining o'ziga hosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va harakter xususiyatlarida, odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda bilish jarayonlariga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvurlarda, qobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga hos uslubida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o'zida mujassamlashtirgan odam yo'q, inson shaxsi o'z individualligi jihatidan betakrordir. Odam dunyoga odam bo'lib keladi. Bu ta'kid yuzaki qaragandagina isbot talab qilmaydigan haqiqat bo'lib va takrorlanaverib siyqasi chiqib ketgan tuyiladi. Gap shundaki, bu o'rinda xususan insoniy belgilar va fazilatlarining rivojlanishi uchun tabiiy shart-sharoitlar paydo bo'lishi genetik jihatdan oldindan belgilab qo'yilganligi ta'kidlanadi. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatning mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aqli-xushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakl-shamoyili mehnat quollaridan foydalanish istiqbolining mavjudligini ko'rsatadi va hokazo. Bu xildagi fazilatlar yig'indisining soxibiga aylana olmaydigan hayvon bolasidan farq qiladi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlar orqali chaqaloqning inson zotiga mansubligi tasdiqlanadi va faqat individ tushunchasida qayd etiladi (bundan farqli ularoq, hayvon bolasi dunyoga kelishi bilanoq va hayotning oxiriga qadar jonzot deb yuritiladi). "Individ" tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida xosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan sistemali tarzdagi sosial fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi. Individning alohida sosial fazilati sifatidagi shaxsning o'zi nima? Eng avvalo, agar biz shaxs individning fazilati ekanligini tan oladigan bo'lsak, bu bilan biz individ va shaxsning birligini tasdiqlagan va ayni paytda bu

2. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "an va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.

tushunchalarning bir-biriga o'xshashligini inkor etgan bo'lamiz (misol uchun, yorug'likni sezuvchanlik fotoplenkaning xususiyati xisoblanadi, lekin fotoplenka-bu yorug'likni sezuvchanlik, yoki yorug'likni sezuvchanlik-bu fotoplenka degan ma'noni anglatmaydi).

"Shaxs va individ" tushunchalarining bir-biriga o'xshashligini barcha yetakchi sovet psixologlari - B.G.Ananyev, A.N.Leontyev, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn vaboshqalar inkor etishadi. Individuallik bilan shaxsning tuzilishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. "Shaxs va individuallik" tushunchalari qanchalik darajada birlikdan iborat bo'lganiga qaramay, bir-biriga mos kelmasligining o'zi ham shaxsning tuzilishini kishining individual-psixologik ishlatlari va fazilatlaridan tarkib topadigan allaqanday shakl sifatida tasavvur qilish imkoniyatini bermaydi. Psixologiyada ikkita omil - biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan ikki asosiy kichik struktura borligi ta'kidlanadi. Inson shaxsining o'zi "endopsixik va ekzopsixik" tuzilishga bo'linadi. Endopsixika- ichki psixik holatdir. Biologik jihat bilan bog'liq bo'lib, kishining nerv psixik tuzilishiga o'xshash inson shaxsining ichki mexanizmlari kabi psixik qismlar va funksiyalarning o'zaro ichki bog'liqligini ifodalaydi. Endopsixika moyillik, xotira, tafakkur va hayol xususiyatlari, irodaviy zo'r berish tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik kabi boshqa hislatlarni o'z ichiga oladi. Ekzopsixika - tashqi psixik holat bo'lib, ijtimoiy omil bilan belgilanib, kishi munosabatlarning tashqi sistemasini va uning tajribasining, ya'ni, qiziqishlarini,² moyilliklarini, ideallarini, ustun darajadagi his-tuyg'ularini, shakllangan bilimlari va boshqa belgilarni o'z ichiga oladi. Biologik xususiyat kishi shaxsining tarkibiga singib, ijtimoiy omilga aylanib qoladi va keyinchalik ijtimoiy shaklda mavjud bo'ladi. "Shaxs" va "individuallik" tushunchalari (xuddi "individ" va "shaxs" tushunchalari singari) aynan bir-biriga o'xshaydi, deb tan olinadigan va shaxsga tabiat ijtimoiy munosabatlar sub'yekti sifatida, individning sistemasi tarzidagi sosial fazilat sifatida qaraladigan G'arb psixologiya fanining nomarksistik yo'nalishlarida shaxs bilan individuallikning strukturasi (ya'ni tuzilishi, tashkil topishi) bir-biriga tamomila mosligi tan olinadi. Bunday psixologik maktablar va yo'nalishlarning vakillari individuallikning tuzilishi aniq ta'riflab berilsa bas, bu kishining shaxsini to'laligicha o'z ichiga oladi va ta'riflab beradi, degan nuqtai nazarni ilgari surishadi. Jumladan, psixologlar maxsus shaxsiy so'roqnomalarni qo'llashadi (bo'lar sinaluvchining o'ziga o'zining individual-shaxsiy fazilatlariga o'zi baho berishini taklif etadigan savollardan tashkil topgan o'ziga xos anketalardir). Ulardagi

3. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti":– T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "an va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.

javoblar mazmunini tahlil qilgan va so‘roq natijalarini matematik amallar vositasida qayta ishlagan holda tadqiqotchi biron bir xislatning (tipning) ana shu xislatga mos keladigan darajasida namoyon bo‘lishining sonlar bilan ifodalanadigan belgisiga ega bo‘ladi. Lekin bunday metodlar yordamida nari borsa kishining individualligi tavsiflanishini tasavvur qilish mumkin. Biroq kishi jalb etilgan ijtimoiy munosabatlarning "yaxlit birligida" shaxsni har tomonlama tavsiflab bo‘lmaydi. Inson shaxs tuzilishida biologik (tabiiy) va ijtimoiy omillarning o‘zaro nisbati masalasi hozirgi zamon psixologiyasida eng murakkab va munozarali masalalarda biridir. Psixologiyada shaxsda ikkita omil-biologik va ijtimoiy omillar ta‘siri ostida shakllangan ikkita asosiy kichik struktura borligini alohida ta‘kidlaydigan nazariya sezilarli o‘rin egallaydi.

Inson shaxsining o‘zi "endopsixik" va "ekzopsixik" tuzilishga bo‘linadi, degan fikr ham ilgari surildi. Shaxs tuzilishining kichik strukturasi sifatidagi "endopsixika" bamisoli kishining nerv-psixik tuzilishiga o‘xshash bo‘lgan inson shaxsining ichki mexanizmi kabi psixik qismlar va funksiyalarning o‘zaro ichki bog‘liqligini ifoda etadi. "Ekzopsixika"ning tashqi muhitga munosabati bilan, ya‘ni shaxs qanday bo‘lmasin, baribir munosabatga kirishishi mumkin bo‘lgan va shaxsga qarama-qarshi turadigan tuzilishlarning barchasiga nisbatan munosabati bilan belgilanadi. Inson shaxsning individualligida uning tabiiy, biologik tuzilishi o‘zining izini qoldiradi. Gap shaxsning tuzilishida biologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish kerakmi, yo‘qligi haqida emas (ularni et‘iborga olish shart, albatta), balki ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni qanday tushunish kerakligi haqidadir. Ikkita omil nazariyasi ijtimoiy va biologik omillarni, muhit va biologik tuzilishni, "ekzopsixika"ni beixtiyor ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Lekin shaxsning shakllanishi va tuzilishidagi tabiiylik va ijtimoiylik masalasiga boshqacha yondashish ham mumkin. Shaxs o‘zi birikib ketgan jamiyat bilan, guruhlar bilan haqiqiy munosabatlar sistemasida sub‘yekt bo‘lib, individning organik gavdasi ichidagi allaqanday yopiq bo‘shliqdagina joylashgan bo‘lishi mumkin emas, balki u o‘zini individlararo munosabatlar bo‘shligida namoyon qiladi. Individ o‘z holicha emas, balki shaxslararo birgalikdagi harakatning xech bo‘lmaganda ikkita individ (amalda birlik, guruh, jamoa) jalb etiladigan jarayonlari ana shu o‘zaro birgalikdagi harakat ishtirokchilaridan har birining shaxsi namoyon bo‘lishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Xulosa: Shaxs bu jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlar va ongli faolloyat egasidir. Shaxslarda insonlar va ularning fikrlariga bo‘lgan munosabatlari shakllangan bo‘ladi. Tashqi ta‘sirlarga o‘zgacha ko‘z bilan qaraydi va u o‘zgarishlarni o‘zgartirishga harakat qiladi. Taassurotlar va kechinmalarga o‘z munosabatini bildira oladi. Turli xil voqea hodisalarda o‘zini tuta oladi va unday holatlarga fikr bildirish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O‘z.FMJ., 2008.
2. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To‘ychiyeva S.M. “Yosh va pedagogik psixologiya” T. TDPU, 2009.
3. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”:- T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: “an va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi : 2009.

О'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQILLIKDAN KEYINGI ILM FAN SOHASIDA RIVOJLANISHI

Kaipova Sh.

Nukus shahar 7-maktab psixologi

Annotatsiya: Maqolada t'lim tizimining mamlakatimizda rivojlanishi, ta'lim sohasidagi taraqqiyotlar, yurtimizda yoshlarga b'lgan e'tibor, ta'lim tizimidgi yangiliklar haqida bayon etilgan

Kalit s'zlar: " Mustaqillik kuni ", mustaqillik deklaratsiyasi, ilm - fan, XXI asr texnologiyalari, robototexnika va konstruktorlik, radiotexnika va elektronika, wifi tarmoqlari, laboratoriya xonalari, birinchi prezidentimiz I.Karimov, kompyuter grafikasi, yosh konditer, yosh ekolog va tabiatshunos, kashtachilik, yumshoq o'yinchoqlar, munchoqli bezak, soch turmagi, raqs, maktabgacha ta'lim tashkiloti, Barkamol avlod bolalar maktabi

Bizga ma'lumki, qadimdan bizning ona yurtimizda k'plab buyuk shaxslar, allomalar, faylasuflar, olimlar va ulamolar yetishib chiqqanlikdan bizning tariximiz katta ilmiy merosga va o'z maqomiga ega b'lib hisoblanadi. Ularning yozib qoldirgan q'lyozmalari avlodtan avlodga o'tib kelgan, hattoki, bugungi kunda ham biz ular yozgan asarlardan foydalanib, xulosa chiqargan holda ilmimizni yanada boyityabmiz, tafakkur qilyabmiz va o'rnak olyabmiz desam aslo adashmayman. 1991 - yil 31 - avgust kuni O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasi e'lon qilindi va 1991 - yil 1 - sentabr " Mustaqillik kuni " deb qabul qilindi. Mustaqillik yillaridan boshlab davlatimizda har bir soha b'oyicha juda katta islohatlar amalga oshirilmoqda, shu bilan bir qatorda ayniqsa, ilm - fan shiddat bilan rivojlanmoqda. Muhtaram prezidentimizning olib borayotgan odil siyostining sharofati bilan mamlakatimizda ta'lim y'nalishiga katta e'tibor qaratilgan b'lib, uni rivojlantirish b'oyicha bir qator islohatlar juda yaxshi y'lgga q'oyilgan, shuningdek, yurtimizda harbir insonning bepul ta'lim olishi nizom bilan belgilab q'oyilgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab juda katta o'zgarishlar yuz berdi, hattoki bo'g'cha bolalariga rus tili, ingliz tillaridan darslar o'tilmoqda, bundan boshqa ular sport mash'g'ulotlarini o'tkazishi uchun yaxshi sharoitlar yaratilib berildi. Maktablarga t'xtaladigan b'lsak, XXI asr texnologiya asri b'lganlikdan kompyuterlar, wifi tarmoqlari, biologiya va fizika laboratoriya xonalari, ingliz tili va rus tili fan kabinetlari va darsni samarali o'tishda foyalaniladigan proektrlar, elektron doskalar bilan ta'minlanmoqda, bulardan boshqa k'plab fan xonalari tashkil qilingan shu bilan birga o'qituvchi va o'quvchilarning b'osh vaqtlarida maktabga kelib kompyuterlardan foydalanib darslarni qilishga keng k'lamda sharoitlar yaratilib berilmoqda. O'quvchilarning b'osh vaqtlarini

maroqli òtkazish uchun fan tògaraklari, hunar òrganishni istaganlar uchun ham har xil hunarmandlar tògaraklari tashkil qilingan. Shuni ham aytib òtish lozimki Barkamol avlod bolalar maktablari tashkil qilingan, bu yerda maktab òquvchilari uchun ajoyib tògaraklar barpo qilingan, jumladan, kompyuter grafikasi, robototexnika va konstruktorlik, radiotexnika va elektronika, avtomodel, aviamodel va raketamodel, qizlar uchun bichish tikish, kashtachilik, munchoqli bezak, yumshoq òyinchoqlar, yosh konditer, yosh ekolog va tabiatshunos, soch turmagi, tòqish, raqs va yana bir qancha tògaraklar tashkil qilinib òquvchilarning bòsh vaqtlarini maroqli va unumli òtkazishi uchun bunday maktablarning òrni katta menimcha. Chunki, Barkamol Avlod Bolalar Maktabida tògaraklarga qatnashib òz faolligini kòrsatgan bitiruvchilarga sertifikatlar beriladi ya'ni bir hunarning egasi bòlishadi, yana bitta afzalligi shundaki bu tògaraklar yozgi ta'tilda ham òz faoliyatini olib bormoqda. Va yana shuni takidlab òtishni joiz deb bildim yoshlarimiz uchun sport komplekslari, musiqa maktablari, yoshlar ishlar agentligi òz faoliyatini olib bormoqda.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlashni joiz bildim hurmatli Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning: "Vatanimiz kelajagi xalqimizning ertangi kuni, yurtimizning jahon hamjamiyatidagi obro`-etibori, avvalambor farzandlarimizning unib -o`sib, ulg`ayib, qanday inson bo`lib hayotga kirib borishiga bog`liqdir. Biz bunday o`tkir haqiqatni hech qachon unutmashimiz kerak" [1:1v] Ushbu ibratli gapni òqigan mustaqil davlatimizning komil, yetuk farzandlari qalbida sòzsiz Vatanga sodiqlik hissi yanada jòsh urib boradi. Òylaymanki, mana shu kichkina jumlaning òzida ham serquyosh yurtimizda yoshlarga bòlgan diqqat e'tiborning juda katta ekanligini kòrishimiz mumkin. Yoshliktagi shijoat - kelajakka kafolat deganlaridek bugungi kun yoshlari talabchan, bilimga chanqoq bòlishlari shart zero ertangi kun bizniki, marra bizniki.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.I.A.Karimov "Yuksak manaviyat-yengilmas kuch" Manaviyat-2008 3-varaq
- 2.H.T. Omonov, N.X. Xo`jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov "PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YA PEDAGOGIK MAHORAT " Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2009 7-11-varaq.
3. "Yangi Ozbekiston" gazetasi

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING FAOLIYATIDA REJALASHTIRISHNING TARTIBI VA AHAMIYATI

Salimjonov Bekzodjon A'zamjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

3-kurs 316-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorlari o'z faoliyatida rejalashtirish tushunchasi, tuziladigan rejalarning turlari va ularni tuzish tartibi, profilaktika inspektorlarining bugungi kunda faoliyatni rejalashtirishning holati, ular tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etishning ayrim chora-tadbirlari aks ettirilgan

Kalit so'zlar: reja, rejalashtirish, profilaktika, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, kunlik reja, oylik reja, choraklik reja.

Muayyan tarixiy bosqichda mavjud bo'lgan jinoyatchilikning tez orada yo'qolishi haqidagi tasavvurlar, xuddi shuningdek, ushbu salbiy hodisani butunlay yoki asosan jinoiy-huquqiy choralar yordamida bartaraf etish, jinoyatlar profilaktikasining istiqbolli uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, har qanday faoliyat, xususan huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish jarayonlari bevosita rejalashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'z navbatida muhim ahamiyatga ega.

Ta'kidlash lozimki, normativ-huquqiy hujjatlarda mahalla huquq-tartibot maskanini tashkil etilishi bilan bir qatorda ularning asosiy vazifalari va funksiyalari, shu bilan birga uning tarkibiga kiritilgan subyektlarning asosiy vazifalari ham belgilab berildi.

Shu boisdan yuqoridagilarga asoslangan holda mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida profilaktika inspektorlari tomonidan faoliyatni samarali tashkil etish maqsadida quyida rejalar tuziladi:

- kunlik reja;
- oylik reja;
- choraklik reja;
- yillik rejalar.

Kunlik rejada profilaktika inspektorining tuzgan oylik rejasi hamda rahbar tomonidan berilgan kunlik topshiriqlar aks ettiriladi. Kunlik reja profilaktika inspektorining shaxsan o'zi tomonida tuziladi va rahbar tasdiqlab beradi. Profilaktika inspektorlari kunlik rejaga kiritilgan chora-tadbirlarni amalga oshirganligi yuzasidan

kun yakunida huquqbuarliklar profilaktikasi boshlig'iga ma'lumotnoma taqdim etadilar. Agarda kunlik rejaga kiritilgan tadbirlardan birortasi amalga oshmay qolsa, keying kunlik rejaning birinchi bandiga kiritiladi.

Oylik rejada esa hududdagi kriminogen vaziyatni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak bo'lgan profilaktik chora-tadbirlar hamda choraklik rejada amalga oshirilishi belgilangan tadbirlar aks ettiriladi. Oylik reja profilaktika inspektori tomonidan o'zining ma'muriy hududidagi vaziyatdan kelib chiqib tuziladi va rahbarga tasdiqlatiladi. Profilaktika inspektorlari oylik rejada belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirganligi yuzasidan oy yakunida hisobot taqdim etadilar. Profilaktika inspektorining hisobotini eshitish bo'yicha o'tkaziladigan yig'in fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) tomonidan olib boriladi. Yig'in bayonnomasi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli), fuqarolar yig'ini mas'ul kotibi, ichki ishlar organining ushbu hududga mas'ul etib birlashtirilgan rahbari tomonidan imzolanadi.

Choraklik rejada asosan bo'lishi mumkin bo'lgan bayram tadbirlari, jinoyatchilikni oldini olish va unga barham berish bo'yicha amalga oshiriladigan profilaktik chora-tadbirlar o'z aksini topadi. Profilaktika inspektorlari tomonidan choraklik rejada amalga oshirgan chora-tadbirlarining natijasi har chorak yakunida tahlil qilib boriladi hamda ularning faoliyatlari baholanadi. Bunda yetarli ballni to'play olmagan xodimga nisbatan intizomiy chora ko'rish ishlari amalga oshiriladi.

Ta'kidlash lozimki, IIV ning buyruqlarida mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini natijalari yuzasidan profilaktika inspektorlari tomonidan oylik, choraklik, yarim yillik, to'qqiz oylik va yillik hisobotlar tayyorlash va taqdim etilishi tartibi belgilab berilgan edi. Bu tartib o'z navbatida mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatiga ham tatbiq etilidi. Darhaqiqat, ichki ishlar organlarining eng quyi tizimi hisoblangan Maskanlar faoliyati muntazam faoliyat yuritishi uchun reja o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Rejalashtirish avvalambor, hududdagi kriminogen vaziyatdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan ishni oldindan o'ylashni va uni tizimli yo'lga qo'yishni nazarda tutadi, shuningdek tahliliy fikrlashni talab qiladi hamda profilaktika xizmati tizimi, ya'ni uning subyekti va obyektining birgalikda rivojlanish istiqbollari va kelajakdagi holatini belgilab beradi. Noto'g'ri va ishonchsiz axborot sababli yanglish qaror qabul qilish xavfini kamaytirish uchun asoslangan va tizimlashtirilgan rejali qarorlar ishlab chiqiladi. Rejalashtirish tizimning umumiy maqsadlarini birlashtirishga xizmat qiladi.

Keng ma'nodagi rejalashtirish bu – boshqaruv qarorini ishlab chiqish va uni qabul qilish faoliyati bo'lib, u quyidagilarni qamrab oladi:

- asoslangan maqsadlar yig'indisi;
- asosiy yo'nalishni belgilash;
- bajariladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- ushbu maqsadlarga yetishishning usullari;

- bajariladigan tadbirlar muddatlari va ijrochilari;
- istiqbolli qarorlar qabul qilish uchun asos yaratish.

Profilaktika katta inspektori maskan faoliyatini takshkil etishda umumiy rahbar sifatida belgilangan bo'lsa, rejalashtirish o'z navbatida uning huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishdagi boshqaruv qarori bilan tenglashtirilishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini to'g'ri rejalashtirishning muhim omili bu uning avvalgi faoliyatini tahlil qilishdir. Chunonchi, maskanda amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalari va yo'l qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilinmas ekan, maskanning keyingi faoliyatini to'g'ri rejalashtirib bo'lmaydi. Demak, tahlildan kelib chiqib maskanning kelgusidagi faoliyati rejalashtiriladi. Bu esa maskanning faoliyatini takomillashtirish, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mahalla huquq-tartibot maskani faoliyati tahlili va u asosida ishlab chiqilgan rejalarning ijrosini ta'minlanishi huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini oshirishga, ularning sodir etilishi sabablari va imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda o'z vaqtida bartaraf etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T., 2014. – 44 b.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008. – 176 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – T., 2014.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2014. – 408 b.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. – T., 2014. – 408 b.
6. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni. // URL: <http://www.lex.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida» qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2010. – № 39. – 341-m.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 6. – 70-m.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 15. – 243-m.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi «Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2883-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 15. – 247-m.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2898-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 17. – 290-m.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi «Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3216-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 12 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida surishtiruv va dastlabki tergovni tashkil etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 100-sonli buyrug'i // URL: <http://www.lex.uz>.

14. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 12 iyuldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» gi 151-sonli buyrug'i // URL: <http://www.lex.uz>.

15. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 25 avgustdagi «Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 191-sonli buyrug'i // URL: <http://www.lex.uz>.

16. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017 yil 6 sentyabrdagi «Ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlarining hisobotini fuqarolar yig'inlarida eshitish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 193-sonli buyrug'i // URL: <http://www.lex.uz>.

ПРОФЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ГВАРДИЯ ОРГАНЛАРИ БИЛАН ХАМКОРЛИГИ

Махмудов Жамшид Шухратхон Ўғли

Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси кундузга таълим

3-курс 319-гурух курсанти

АННОТАЦИЯ

Ушбу илмий мақоланинг долзарблиги шундаки Миллий гвардия органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир фаолиятини ташкил этиш ва такомиллаштириш бундан ташқари қўриқлаш хизмати, жамоат тартибини сақлаш, оммавий тадбирларда жамоат тартибини сақлашда, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш ва такомиллаштириш доирасидаги нормаларнинг амалиёт таҳлили ҳамда ушбу фаолият доирасида юритиладиган процессуал ҳужжатлар расмийлаштириш тартиби ҳақидаги дастлабки тушунчалар, ушбу фаолиятдаги муаммо ва камчиликлар, шунингдек, айрим турдаги мавжуд муаммо ва камчиликларни бартараф этиш бўйича ҳамда қонунчилигимиздаги ушбу соҳага доир сўнгги янгиликлар келтириб ўтилган. Миллий гвардия органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир чоратадбирларини амалга ошириш фаолиятини ташкил этиш бўйича бошқа хорижий давлатларнинг илғор хорижий тажрибаси ҳамда миллий қонунчилигимиздан фарқли ва ўхшаш томонлари, шунингдек, юқорида келтириб ўтилган жиҳатларидан фойдаланган ҳолда ушбу фаолиятни такомиллаштириш йўналишлари ёритиб ўтилган.

ANNOTATION

The relevance of this scientific article is the organization and improvement of the activities of the National Guard bodies for the prevention of crimes, as well as the security service, maintaining public order, maintaining public order at public events, the practical analysis of the norms within the framework of the organization and improvement of the prevention of crimes, as well as the procedure for formalizing procedural documents within the framework of this activity. initial concepts, problems and shortcomings in this activity, as well as the elimination of certain types of existing problems and shortcomings, as well as the latest news in this field in our legislation. The advanced foreign experience of other foreign countries in organizing the activities of the National Guard bodies for the prevention of crimes, as well as the differences and similarities with our national legislation, as well as the directions for improving this activity using the above-mentioned aspects, are highlighted.

Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасини тартибга солувчи идоравий меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларини ўрганиш

натижалари шуни кўрсатадики, бевосита вояга етмаганлар ва ёшлар ўртасидаги ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти, хусусан, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг «Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 151-сон (12.07.2017 й.) буйруғи билан тартибга солинган. Бироқ мазкур низомда уюшмаган ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этишга доир махсус нормалар мавжуд эмас. Фикримизча, ички ишлар органларининг уюшмаган ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти профилактик таъсир кўрсатиш объектининг хусусияти, уларга нисбатан қўлланадиган профилактик таъсир чоралари, иш усуллари ва шакллариининг ўзига хослиги билан ажралиб туришини инобатга олиб, Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низомни уюшмаган ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш механизмлари ва методикасини белгилаб берувчи махсус нормалар билан тўлдириш мақсадга мувофиқдир. Профилактика инспектори миллий гвардия билан ҳамкорликни амалга оширишда куйдаги юналишларда амалга оширади

- оммавий тадбирларни утқизишда
- патрулик юналишларини ташкил қилиш ҳамда хизматни амалга ошириш
- жамоат тартибини сақлаш;
- давлат бинолари ҳамда тоифаланган ҳудудларда куриқлашни ташкил қилиш

Оммавий тадбирларни утқизишда профилактика инспектори миллий гвардия органлари билан биргаликда маъсул ҳисобланади. Улар хизматни ташкил қилиш буйича биринчи навбатта дислогацияларни белгилаб олишда бу авваламбор кам куч сарфлаб куп натижага эришишга ёрдам беради.

Бундан ташқари профилактика инспектори ҳудудида жойлашган бино ҳудудларига ҳам бевосита жавоб беради. Бунда агарда шартнома тузилган булса миллий гвардия органлари жавоб беради. Миллий гвардия ҳузуридаги «Қўриқлаш» хизматининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга асосан асосий вазифалари:

- жамиятимиз аъзолари бўлмиш фуқаролар, мамлакатимиздаги чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг тинчлик-осойишталиги, молмулкани ҳамда давлат ва нодавлат ташкилот, муассаса ва корхоналарнинг қонуний манфаатлари, мол-мулкларини ҳуқуққа хилоф турли кўринишдаги маъмурий ва жиноий тажовузлардан ишончли қўриқлаш;

- тажовузлардан ишончли кўриқланишини таъминлаш;
- кўриқланаётган объектларда хизматни ўташ билан бир вақтда, ушбу объектларга ҳамда кўриқлаш пост, маршрут ва секторларига яқин бўлган ҳудудларда жамоат тартибини сақлаш ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар ҳамда жиноятлар содир бўлишининг олдини олиш, содир этилган жиноятларнинг эса тез ва тўлиқ фош этилишини таъминлашда фаол қатнашиш;
- мамлакатимиз ҳудудида жойлашган ўта муҳим, тоифаланган объектлар, иқтисодиёт ва халқ хўжалиги иншоотлари, корхона, муассаса, ташкилотларнинг мол-мулкларини ғайриқонуний, жинойий тажовузлардан белгиланган тартибда тузилган кўриқлаш шартномалари асосида ишончли кўриқлаш ва мудофаасини таъминлаш;
- кўриқлаш бўйича фаолиятни ташкил этишда, жамоат тартибини сақлаш, фуқаролар хавфсизлигини таъминлашда, ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олиш ҳамда уларга қарши кураш фаолиятини ташкил этишда ички ишлар органларининг барча бўлим ва хизматлари билан мақсадга мувофиқ ҳамкорликни амалга ошириш;
- кўриқлашнинг мустаҳкам, ишончли ва тезкорлик даражасини доимо ошириб бориш, янада такомиллаштириш, шу орқали миқозларга юқори малакали ва сифатли хизмат кўрсатиш билан бир қаторда, ҳудудда ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олиш бўйича Миллий гвардиянинг муҳим йўналишларидан бири бўлган профилактик фаолиятни ташкил этиш, олиб бориш;
- кўриқланаётган объектларда турли кўринишдаги жиноятлар ва маъмурий ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва уларга чек қўйишнинг самарали тизимини яратиш, уларнинг содир этилишига йўл қўймасликка қаратилган чоратадбирларни амалга ошириш;
- кўринишлари, наркотик воситалар ва психотроп моддалар, ўқотар қуроллар ва ўқ-дорилар ноқонуний ташилишининг олдини олиш ва уларга чек қўйиш чораларини кўриш;
- кўриқлашнинг энг янги техника воситаларини ишлаб чиқиш, сигнализация воситаларидан техник фойдаланилишини ташкил этиш ва жорий қилиш бўйича ягона техника сиёсатини юритиш, шу асосда кўриқлаш шакл ва усулларини такомиллаштириш;
- республика ҳудудидаги соқчилик бўлинмаларини, улар қайси муассасага бўйсунганидан қатъи назар, белгиланган тартибда текширувдан ўтказиш;
- давлат мулкларининг ва фуқаролар шахсий мулкларининг

дахлсизлигини таъминлашда жамоатчилик ва меҳнат жамоалари билан, кўриқлаш бўлинмалари фаолиятини тарғиб этиш ва қонунбузарликнинг олдини олишда оммавий ахборот воситалари билан ҳамкорлик қилишнинг шакл ва усулларини такомиллаштириш;

– кадрларни танлаш, жой-жойига қўйиш, уларни ўқитиш ва тарбиялаш, кўриқлаш бўлинмаларининг шахсий таркиби ўртасида хизмат интизоми ва қонунчиликни мустаҳкамлаш ишларини ташкил этиш;
– кўриқлашнинг даромад ва харажатларини, моддий-техника таъминотини режалаштириш, рентабелликни ошириш бўйича тадбирлар ўтказиш, кўриқлаш бўлинмалари шахсий таркибини ижтимоий суғурта қилиш;

Ўзаро ҳамкорлик ва мувофиқлаштириш тушунчалари ўз мазмунига кўра бир-бири билан яқин тушунчалардир, юридик адабиётларда ўзаро ҳамкорликни, икки ёки ундан ортиқ иштирокчиларнинг маълум бир вазифа-ларни ҳал этиш учун биргаликдаги ўзаро келишилган ҳаракати деб қаралади. У бир ёки бир неча биргаликдаги фаолият иштирокчиларининг ташаббуси билан юзага келиши мумкин. Миллий гвардияда алоҳида хизматларнинг ўзаро ҳамкорлигини уларни бошқариш жараёнида орган бошлиғи ташкил этади. Бундай ҳолларда ҳамкорликни ташкил этиш мувофиқлаштиришнинг бир кўриниши деб қаралиши керак. Миллий Гвардия органлари ички ишлар органлари билан ҳамкорликда жамоат тартибини сақлаш фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини сақлаш борасида профилактик чора–тадбирларни ҳамкорликда бажаради. Бунинг натижасида фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш бевосита ҳамкорликда амалга оширилади.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1) Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir / O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi. – 2021. – 8 dek.;
- 2) Mirziyoyev Sh.M. Tartib-intizom va mas‘uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash – huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir;
- 3) Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekistn davlvtini birgalikda barpo etamiz”// Toshkent – 2021.
- 4) Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi // Xalq so‘zi. – 2022. – 8 fev.
- 5) Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini qo‘llabquvvatlash, mahalla tizimini rivojlantirish va jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etishning 2020 — 2024 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini

- tasdiqlash to'g'risida O'z.Res.Pr. Farmoni
- 6) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 yanvardagi «Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 15-son qarori;
- 7) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 2019 yil 15-yanvardagi 29-son qarori // URL: <http://www.lex.uz>.
- 8) O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun // Toshkent sh.; 2016 yil 16 sentyabr; O'RQ-407-son // URL: <http://www.lex.uz>.
- 9) O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni // URL: <http://www.lex.uz>.
- 10) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni // URL: <http://www.lex.uz>.
- 11) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 15. – 243-m.
- 12) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-son «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori // URL: <http://www.lex.uz>

DESPOTIZMNING VUJUDGA KELISH TARIXI VA XUSUSIYATLARI

Madaminova Sanobar Qutlimuratovna
Osiyo xalqaro Universiteti Pedagogika-psixologiya
yo`nalishi. Magistratura talabasi
Ilmiy raxbar - Psixologiya fanlari bo`yicha falsafa
doktori p.f.f.d (PhD), dotsenti –
Ramazonov Jahongir Djalolovich



Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologik despotizm atamasiga ta`rif, vujudga kelish tarixi, despotning uning turlari, xususiyatlari, psixologiya fanida despotizmning o`rni qandayligi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: despotizm, xulq-atvor, dunyo-qarash, psixologiya, xarakter, munosabatlar, mantiqiy dalillar, zo`ravonlik.

Annotation: This article describes the definition of the term psychological depression, its types, characteristics, and the role of depression in the science of psychology.

Key words: despotism, behavior, worldview, psychology, character, relationships, logical arguments, violence

Аннотация: В данной статье говорится об определении термина психологическая депрессия, ее видах, характеристиках, а также о роли депрессии в науке психологии.

Ключевые слова: деспотизм, поведение, мировоззрение, психология, характер, отношения, логические аргументы, насилие.

Maktabda yoki oliy o`quv yurtida tarix fanini o`rganar ekanmiz, har bir talaba turli manbalarda kuch va qudrat cho`qqilariga ko`tarilib, insoniylik tushunchasiga to`g`ri kelmaydigan usullarni ko`rsatgan g`ayrioddiy shafqatsiz hukmdorlarga havolalarni uchratadi. Butun xalqlarni yo`q qilish, dushmanlarni qatl etish va ularni makkorona o`ldirish, potentsial raqobatchilarni zindonlarda qamoqqa olish va diktaturani mustahkamlashning boshqa usullari Bibliya davrida ham, o`rta asrlarda ham, ko`proq ma`rifatli hisoblangan asrlarda ham odatiy hol emas edi. Despotlar va zolimlar har doim yashab kelgan, faqat jinoyatlarning ko`lami va ularni amalga oshirish usullari har xil bo`lgan. Antik despotlar haqida gapiradigan bo`lsak, ilgari yirik qurilish loyihalari va ochlikka qarshi kurash bilan mashhur bo`lgan qadimgi yahudiy shohi Hiron Buyuk o`z dikturasini mumkin bo`lgan tahdiddan himoya qilish uchun barcha chaqaloqlarni yo`q qilishni buyurdi (Xushxabar, Matto kitobi).

Despotizm - hukmdorning irodasi jamiyatning barcha boshqa a`zolari hayotini tartibga soluvchi qonunlar bilan cheklanmagan boshqaruv shaklidir. Adolatga intilish

insonning tabiatiga xos bo'lganligi sababli, yagona hokimiyatning o'rnatilishi ma'lum harakatlarni talab qiladi va shafqatsizlik bilan birga keladi. Faqat ommaviy terrordan foydalanish ma'lum, ba'zan uzoq vaqt davomida odamlarni qarshilik ko'rsatishning befoydaligi haqidagi g'oyani ilhomlantirishga qodir. Despotizm an'anaviy tarzda o'rnatilgan boshqa usullar ham mavjud. Bu hukmdorning ilohiy kelib chiqishi va g'ayrioddiy qobiliyatlari (shaxsiy fazilatlar) haqida aholi o'rtasida illyuziya yaratishdir. Buning uchun, masalan, Qadimgi Misrda fir'avnlarning o'sha davrda "ilmiy elita" bo'lgan ruhoniylarning bilimlaridan foydalanib, tabiat hodisalarini o'zlarining g'ayritabiiy kuchlarining namoyon bo'lishi sifatida ko'rsatishgan. Sharq despotizmini ajratib turuvchi alohida nafosat haqida fikr bor. Shumer hukmdorlari, Ossuriya, Bobil, Fors qirollari, Mesopotamiya davlatlari, qadimgi Xitoyning totalitarizmi keyingi asrlar diktatorlari tomonidan amal qilgan an'analarga asos solgan. Shu bilan birga, jamiyat yashashi kerak bo'lgan qonunlar yozildi va Xammurabi kodeksi bizning davrimiz huquqiy normalarining prototipiga aylandi. Ularga rioya qilish hamma uchun majburiy edi, qoidabuzarlik qattiq jazolandi va ilohiy hukmdor bundan mustasno edi. Sharq despotizmini esa, Usmonli imperiyasi feodal despotizm avjiga chiqqan o'rta asr davlatiga aylandi. Bu XIV-XVI asrlarda sodir bo'lgan. Rossiyada o'sha XVI asrda uning zolim, Dahshatli laqabli Ivan IV hukmronlik qilgan. U o'zining yagona hokimiyatini mustahkamlab, undan kam bo'lmagan dahshatli usullar bilan harakat qildi, garchi uning hukmronligi qurbonlari soni taxminan 3 ming kishi qatl etilgan bo'lsa ham turli nosozliklar va oddiygina e'tirozligi tufayli zamonaviy Evropa hukmdorlarining "yutuqlari" dan sezilarli darajada past. Misol uchun, Avliyo Vartolomey kechasi Karl IX buyrug'i bilan 30 000 gugenotlar o'ldirilgan. Britaniyada Genrix VIII aholining uchdan bir qismini sarsonlik uchun qatl qildi. Qiziqki, despotizm shunday davrki, aql bovar qilmaydigan qurbonliklar evaziga qo'rquvga botgan jamiyat o'z taraqqiyotida yutuq, ba'zan esa inqilobiy yutuq qiladi. Aksariyat aholi uchun "katta o'zgarishlar" davrida yashash juda noqulay, ammo natijalar ba'zida ta'sirchan bo'ladi, agar, albatta, o'zgarishlar to'g'ri yo'nalishda amalga oshirilsa. Aks holda, mamlakat omadsiz diktator boshchiligidagi boshlanish nuqtasiga qaytish uchun ko'p kuch sarflashiga to'g'ri keladi. Despotizm bu hokimiyat mutlaq va o'zboshimchalik bilan amalga oshiriladigan boshqaruv shakli bo'lib, hukmdor va hukmron o'rtasidagi munosabatni, xo'jayin va qul o'rtasidagi munosabatlar bilan taqqoslash mumkin. Ushbu kontsepsiya yunon faylasufi Aristotel bilan "Siyosat" kitobida Evropaga xos bo'lgan mustabid hokimiyat shakllaridan farqli o'laroq Osiyodagi qadimgi imperiyalarga murojaat qilish uchun tug'ilgan. Aristotelning fikriga ko'ra, despotizm hokimiyat sub'ektlarning tabiati bilan bog'liq itoat qilishga tayyor va o'zlarini boshqara olmaydi. Bu erda u mustabidlikdan farq qiladi, unda hokimiyat o'z manfaatlariga ko'ra harakat qiladigan hukmdorning tabiatiga bog'liqdir. Despotizm shuningdek, diktatura bilan ajralib turadi, chunki bu urush kabi istisno

holatlarning paydo bo'lishiga bog'liq emas. Sharq despotizmidan keyin psixologiya va tarix ilmida ma`rifatli despotizm vujudga keldi. Asosiy despotlar va ularning hukmronlik qilgan vaqti - Prussiya Frederik II (1740-1786), Pombal Markiz (1750-1777) Portugaliyadan, Ketrin II (1762-1796) Rossiya va Iosif II (1780-1790) Avstriyadan. Odamlar farovonligi uchun ozgina g'amxo'rlik qiladigan, temir musht bilan boshqaradigan hukmdorni chaqirish mumkin despotik.

Diktatorlar va mustabidlar ko'pincha despotik deb ta'riflanadi. Despotizm bu kuchning darajasining o'lchovidir, odatdagi ma'noda u noto'g'ri ishlatilgan (yoki to'liq imkoniyatga ega bo'lmagan kishi tomonidan ishlatilgan).

Despotizm bu hokimiyat faqat bitta hukmdorning qo'lida bo'lgan boshqaruv shakli. Bunda sub'ektlar qul kabi muomala qilinadi.

Diktatura yoki zulmdan farqli o'laroq, bu hukmdorning xalqni engib chiqa olishiga emas, balki odamlar o'zlarini namoyon qila olmasliklariga va o'zini o'zi boshqarishlariga, qo'rquv uchun hokimiyatni faqat bitta odam qo'lga topshirishiga bog'liqdir, nima qilishni bilmay. Despotizm, Monteskyoning fikriga ko'ra, faqat bittasi qonunsiz va qoidasiz boshqaradi, o'z irodasi va injiqligi ostida hamma narsani tortib oladi.

Despotizm bu "despot" deb nomlangan mavjudot qoidalarni mutlaq kuch bilan belgilab beradigan boshqaruv shakli. Despot u avtokratiyada bo'lgani kabi individual mavjudot bo'lishi mumkin yoki u oligarxiya singari guruh bo'lishi mumkin.

Despotizm so'zi despot shaklida hukmronlik qilish uchun "vositalar".

Despot yunoncha despotes so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "xo'jayin" yoki "kuch bilan" degan ma'noni anglatadi va turli xil unvonlar va lavozimlarni konvertatsiya qilish uchun ishlatilgan. U Vizantiya sudida dvoryanlar unvoni sifatida ishlagan, Misr fir'avnlarning cheksiz kuchi va hokimiyatini tasvirlash uchun ishlatilgan, Vizantiya davlatlari hukmdorlari tomonidan ishlatilgan va Vizantiya imperatorlari tomonidan unvon sifatida qabul qilingan. Shunday qilib despot u tarixning turli davrlarida turli xil ma'no va talqinlar bilan ishlatilgan va uni bitta ta'rif bilan ta'riflab bo'lmaydi. So'zlashuv bilan "despot" o'z xalqiga, bo'ysunuvchilariga yoki bo'ysunuvchilariga zulm qilish uchun o'z kuchi va vakolatidan suiiste'mol qilgan davlat yoki hukumat rahbariga nisbatan pejorativ tarzda qo'llanilgan.

Shu ma'noda, u "zolim" atamasi bilan kelgan pejorativ ma'nolarga o'xshaydi. "Diktator" deyarli o'xshash pejorativ ma'nolarni ishlab chiqdi, garchi "despot" va "zolim" shafqatsizlikni va hatto yovuzlikdan zavqlanishni ta'kidlaydilar, "diktator" esa qonunni yanada qattiqroq yoki adolatsiz qo'llanishini nazarda tutadi. Klassik shaklda despotizm - bu yakka shaxs (despot) davlatni o'z ichiga olgan barcha kuch va hokimiyatni amalga oshiradigan davlat bo'lib, suverenitet va tsivilizatsiyaning dastlabki shakllarida keng tarqalgan edi, Misr fir'avni klassik despotning namunasi.

Despotizm bu "despot" deb nomlangan yagona mavjudot mutlaq hokimiyat bilan boshqariladigan boshqaruv shakli. Ushbu mavjudot yakka shaxs bo'lishi mumkin, masalan, avtokratiyada yoki u guruhda bo'lishi mumkin, masalan, oligarxiyada. So'zi despotizm"" despot shaklida qoida "degan ma'noni anglatadi va" despot "bilan aralashmaslik kerak. Despot yunon despotlaridan kelib chiqqan bo'lib, taxminan "xo'jayin" yoki "qudratga ega" degan ma'noni anglatadi va turli xil unvonlar va lavozimlarni konvertatsiya qilish uchun ishlatilgan. U Vizantiya sudida zodagonlar unvoni sifatida ishlagan, Vizantiya vassal davlatlari hukmdorlari tomonidan foydalanilgan va Vizantiya imperatorlari tomonidan unvon sifatida qabul qilingan Misr fir'avnlarning cheksiz kuchi va hokimiyatini tasvirlash uchun ishlatilgan. Shunday qilib, despot tarixning turli davrlarida turli xil ma'no va talqinlarga ega ekanligi aniqlandi va ularni bitta ta'rif bilan ta'riflab bo'lmaydi.

Bu boshqa yunoncha basileus va autokrator unvonlariga o'xshaydi, bular despot bilan birga turli vaqtlarda mahalliy boshliqdan tortib oddiy hukmdor, qirol yoki imperatorgacha hamma narsani tasvirlash uchun ishlatilgan.

Ommabop tarzda, "despot" o'z xalqiga, bo'ysunuvchilariga yoki bo'ysunuvchilariga zulm qilish uchun o'z kuchi va vakolatidan suiiste'mol qilgan shaxsga, xususan davlat yoki hukumat rahbariga nisbatan pejorativ tarzda qo'llanilgan. Shu ma'noda, u xuddi shu tarzda "zolim" atamasi bilan paydo bo'lgan pejorativ ma'nolarga o'xshaydi. "Diktator" deyarli o'xshash pejorativ ma'nolarni ishlab chiqdi, ammo "despot" va "zolim" shafqatsizlikni va hatto ulardan zavqlanishni ta'kidlamogda, "diktator" esa ko'proq qattiqqo'llik yoki adolatsiz huquqni muhofaza qilishni nazarda tutadi.

Biror kishi boshqa shaxs bilan aloqada bo'lganda, munosabatlar paydo bo'ladi. Ular biznes, ish, sevgi, do'stlik, qo'shnichilik, oila va boshqalarga bo'linadi, bu faqat sheriklarning holatiga va ularning o'zaro munosabatlarining sifatiga bog'liq. Biroq, har qanday munosabatlarda odamlar o'zlarining xarakterini va xatti-harakatlarini ko'rsatadilar. Bunday ko'rinishlardan biri despotizm bo'lib, u ba'zi munosabatlarda yaxshi, boshqalarida yomon. Psytheater.com onlayn jurnali despotizmning yaxshi va yomon ekanligini tushunish uchun uning tushunchalari, belgilari va sabablarini ko'rib chiqadi.

Despotizm deganda shaxsning boshqa shaxs yoki hatto bir guruh odamlar ustidan hokimiyatga intilishi tushuniladi. Hukmronlik istagi ba'zi psixologlar tomonidan instinktiv ehtiyojlar bilan bog'liq. Har bir inson qudratli bo'lishni, ya'ni atrofida qilgan boshqarishni va ularga buyruq berishni xohlaydi, deb ishoniladi. Biroq, despotizm hamma odamlarda ham o'zini namoyon qilmaydi va unga ega bo'lganlarda u turli darajada namoyon bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadiki, despotizm - bu odam tug'ilmaydi, hayot jarayonida rivojlanadi. Despotizm uchta komponentni o'z ichiga oladi: Boshqa odam ustidan hokimiyatga intilish. Boshqa odamlarning fikrlarini tinglashni va

hisobga olishni istamaslik, bir ovozdan qaror qabul qilish. Boshqa odamning o'z irodasiga doimiy va to'liq bo'ysunish istagi. Despotizm o'zini oddiygina boshqa bir shaxsning - qulning xo'jayini bo'lishni xohlashida namoyon bo'ladi. Biroq, krepostnoylik uzoq vaqtdan beri bekor qilingan va shunga qaramay, odamlar atrofida gilarni bostirish va o'z xohishlariga bo'ysundirish uchun ichki ehtiyojga ega. Odatda, boshqa odamlar bilan munosabatlarga bunday yondashuv norozi. Biroq, despotizm har doim ham yomon emas. Bu nima degani?

Despotizm - bu odam boshqa odamlar ustidan hukmronlik qilishni xohlasa, orttirilgan sifatdir. Zamonaviy dunyoda tenglik hukmron bo'lganligi sababli, despotizm asosan odamlarning tor doirasida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, erlar xotinlari va bolalariga nisbatan, rahbarlar - qo'l ostidagilarga, o'qituvchilar - maktab o'quvchilariga, ayollar - er va bolalarga nisbatan despotga aylanadi. Despotizm - bu o'z-o'zini noto'g'ri baholash va boshqa odamlarni idrok etish. Kuchli odamga uning oilasi yoki qo'l ostidagi deb hisoblangan har bir kishi unga bo'ysunishi, unga bo'ysunishi kerakdek tuyuladi. U ko'rsatmalar berishi kerak, boshqalar esa ularni jimgina bajarishlari kerak. Qolaversa, despotizm nafaqat itoatkorlik, balki despot g'oyalariga moslashish, uning xohish-istaklari, fikriga amal qilish va hatto odamlar qanday bo'lishi kerakligiga moslashishda ham namoyon bo'ladi. Despot boshqa odamlarning fikrlarini qabul qilmaydi, chunki u ularni muhim va hatto o'ziniki bilan teng deb hisoblamaydi. Faqat uning fikri muhim, ahamiyatli va to'g'ri. Shaxsiy chegaralar va boshqa odamlarning erkinligi tushunchasi yo'q.

Despotizm har doim uydagi zo'ravonlik bo'lib, u har doim ham jismoniy shakllarga ega emas. Shubhasiz, agar jabrlanuvchi o'zini himoya qilsa va qarshilik ko'rsatsa, despot o'z kuchlarini kuchaytiradi, ko'pincha jismoniy zo'ravonlikka murojaat qiladi. Bu sodir bo'lgunga qadar, despot o'z qurbonining his-tuyg'ulari, his-tuyg'ulari, komplekslari va qo'rquvlariga bosim o'tkazganda, axloqiy va hissiy zo'ravonlik sodir bo'ladi. Despotizm mutlaqo har qanday odamda o'zini namoyon qilishi mumkin. Ko'pincha har bir kishi o'z fikrida turib olishni xohlaydi, boshqalarni o'z yo'lida harakat qilishga majbur qiladi. Biroq, ba'zilar uchun despotizm xatti-harakatlarning yagona modeli bo'lib, u odamni o'zini va uning atrofida dunyoni noto'g'ri idrok etishga olib keladi. Agar qadimgi davrlarda ayollar va erkaklar "Erkak oila boshlig'i, ayol esa unga bo'ysunadi" tamoyili asosida tarbiyalangan bo'lsa, zamonaviy jamiyatda ayolga erkak bilan bir xil huquqlar berilgan. Hayot va urf-odatlar o'zgardi, ba'zi odamlar hali ham eski an'analar bo'yicha yashashga harakat qilmoqda. Bu xuddi 5 yoshingizda kiygan shimingizni kiyishga urinishdek. Siz tana o'lchovlarida kattalashdingiz, hayotingiz o'zgardi, lekin siz hali ham sevimli bolalaringizning shimlari sizga mos kelmasligiga ko'nika olmadingiz. Shunday qilib, zamonaviy jamiyat erkaklar va ayollarni teng pozitsiyalarga qo'yadi. Shubhasiz, erkak o'zining erkaklik energiyasini, tabiatini, fe'l-atvorini va hokazolarni saqlab qoladi ... Ayol esa, endi

rahbarlik qilish, o'z fikrini bildirish, ishlash va pul topish huquqiga ega bo'lishiga qaramay, ayol bo'lib qolishda davom etadi.

Agar erkak oila boshlig'i bo'lishga harakat qilsa, u holda ayol vaqti-vaqti bilan uning xohish-istaklarini qondiradi, lekin ba'zida bu unga foydali bo'lganda, u o'z huquqlarini unga teng deb e'lon qiladi. Agar ayol erkak bilan teng bo'lishga harakat qilsa, erkak ba'zan uning huquqlariga rozi bo'ladi, chunki ayolning ham oila uchun pul topishi va uning uchun jiddiy muammolarni hal qilishi unga foydalidir. Ammo ba'zida, bu yana erkak uchun foydali bo'lganda, u ayolning itoat qilishi kerakligini eslaydi. Shunday qilib, turmush o'rtoqlar doimiy urush olib boradilar, oxir-oqibat barcha qilich va nayzalarini tashlab, urushni to'xtatish uchun qanday an'analarga ko'ra yashashlari kerakligini hal qilmaydilar. Aytishimiz mumkinki, zamonaviy erkaklar va ayollar oiladagi ierarxiyadan sheriklar o'rtasidagi tenglikka o'tish chorrahasida yashaydilar. Ko'p odamlar bobosi va buvisining eski an'analari bo'yicha tarbiyalanadi, ammo zamonaviy dunyo: "Yo'q, erkaklar va ayollar teng huquqlarga ega. Ayol ham ishlashi mumkin, lekin erkak endi uning fikrini hisobga olishi kerak". Shunday qilib, tushunarsiz vaziyat, inson qanday qoidalar bilan yashashni bilmasa, yuzaga keladi. Ikkita o'zaro eksklyuziv an'analarning birlashishi erkak va ayolning aldashi boshlashiga olib keladi, bu esa oilada urushga olib keladi. Agar biror narsa kimdir uchun foydali bo'lsa, unda ma'lum qoidalar esga olinadi. Agar ayol erkakning uni tinglashidan foyda ko'rsa, u ularning tengligini eslaydi. Ammo bir daqiqadan so'ng u quyidagilarni aytishi mumkin: "Siz oila boshlig'isiz. Shunday ekan, javob bering!" Va erkak ayolning asosiy yoki teng sherigi bo'lishi kerakmi, noaniq bo'lib qoladi? Bunday o'yinlar nafaqat urushga, balki oilaviy hayotda deyarli hech qachon hal etilmaydigan muammolarga olib keladi. Nega? Chunki xalqning o'zi hali eski yoki yangi urf-odatlar bo'yicha yashashini tushunib yetmagan. Ularni birlashtirish mumkin bo'ladi, lekin bu faqat urush va muammolarga olib keladi. Shuning uchun, siz tanlashingiz kerak bo'ladi: yoki erkak javobgardir va ayol unga bo'ysunadi yoki erkak va ayol teng sherikdir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, despotizmning vujudga kelishi yuqorida ta'kidlab o'tilgan, tarixiy voqealar va zulm bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Despotizm ham aynan "zulm" so'zining tub ma'nosidan kelib chiqqanligini ko'rish mumkin. Despotizm ham tarixiy voqeadan keyin aynan psixologiya va pedagogika sohasiga kirib keldi, xususan, psixologiyada despotning vujudga kelish xususiyatlari, tuzilishi, belgilari hamda psixologik xususiyatini o'rganadi. Pedagogikada esa ta'lim va tarbiya berish jarayonida despot va despotizm vujudga kelishida yosh kadrlarga hamda ta'lim sifatiga ta'siri o'rganiladi. Fanlarning boshlanishida hamma elementlarni tarixini o'rganganimizdek, despotizmning ham tarixi ham yuqorida ko'rsatilgan despotning vujudga kelishi mintaqalar bilan bevosita bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йил 21 июндаги Олий Мажлис Сенатидаги нутқи. - <https://president.uz/uz/lists/view/2692>
2. БМТТД, Инсон ривожланиши тугрисидаги маъруза. - Ташкент: 1996.
3. Саробаева У.С. Ўзбек оилаларида гендер тенглик ва миллий кадрларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. - Т.: “Педагогика” илмий-назарий ва методик журнали 2020 йил 5- сон, 3-6 б.
4. Saribayeva U.S. Characteristics of gender equality between husband and wife in uzbek families // Vidyabharati international interdisciplinary research journal. 2021. Web of science. 3940-3949 (Special Issue) ISSN 2319-4979. 615
5. Mark Barton. <https://www.instagram.com/markbarton>.
6. Минюрова С.А. Кустова О.Л. Формирование «образа женщины» в различных социальных группах. // Журнал практического психолога - 1997. - № 5. - С. 27-29; Семейная психология и семейная терапия. - 1997. - № 1. - С. 95-97.
7. Кустова О.Л. Образ женщины в современных средствах массовой информации (на примере журналов Космополитан, «ОНА», «Домашний очаг», «Елле» и др.) // Образ женщины в средствах массовой информации. Материалы декабрьской конференции. Приволжский Дом знаний, 1998.
8. <https://uz.wiktionary.org/wiki/despotizm>.
9. <https://izoh.uz/word/despotizm>.
10. <https://shkolyariki.ru/uz/russkijj/despotizm>.

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING ALIHIDA TOIFALANGAN HUDUDLARDA XIZMAT OLIB BORISHDAGI KASBIY MAHORATI VA KO'NIKMALARI

*O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi 311-guruh kursanti
Yoriqulov Abdurahmon Elmurod o'g'li*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali alohida toifalangan hududlar ya'ni olis qishloq hududlari, ovullar, chegara hududlar, cho'l hududlari, xizmat olib borishning o'ziga xos xususiyatlari, mazkur toifadagi hududlarda xizmat olib boradigan profilaktika inspektorlarining kasbiy mahorati va kasb madaniyati, xizmat jarayonida vujudga keladigan kamchiliklarni bartaraf etishda qunun ustuvorligi va muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yo'llarining ilmiy hamda amaliy va tahliliga to'xtalib o'tgan.

Kalit so'zlar: Alohida toifalangan hudud, olis qishloq hududlari, ovullar, chegara hududlar, cho'l hududlari, profilaktika inspektorining kasb mahorati, profilaktika inspektorining kasb madaniyati, kasbiy mahoratni oshirish sirlari, kasbiy madaniyatni yuksaltirish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье отдельно классифицируются территории, т.е. отдаленные сельские районы, села, приграничные районы, пустынные территории, особенности оказания услуг, профессиональные навыки и профессиональная культура инспекторов-профилактиков, оказывающих услуги в этих категориях территорий, которые возникают в ходе Служба ориентирована на научно-практическое исследование и анализ приоритета права в устранении недостатков и путей устранения проблем.

Ключевые слова: Отдельно выделяемая территория отдаленные сельские местности, сельские местности, пограничные районы, пустынные местности, профессиональные навыки инспектора профилактической службы, профессиональная культура инспектора профилактической службы, секреты повышения квалификации, повышение профессиональной культуры.

ANNOTATION

Through this article, separately classified areas, i.e. remote rural areas, villages, border areas, desert areas, specific features of service delivery, the professional skills and professional culture of preventive inspectors who provide service in these categories of areas, which arise in the course of service focused on the scientific, practical and analysis of the priority of law in eliminating shortcomings and the ways to eliminate problems.

Key words: Separately classified area ,remote rural areas, rural areas, border areas, desert areas, professional skills of the preventive inspector, professional culture of the preventive inspector, secrets of improving professional skills, improving professional culture.

Har jabhada shiddat bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar keng ommani e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Ayniqsa yurtimizda ijtimoiy soha va inson qadrini e'zozlashga uchun qaratilgan ishlarni amalga oshirilishi butun dunyo va keng jamoatchilik nazarida yutimizni bugungi qiyofasini yanada chiroyliroq ko'rsatmoqda. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda ham "Inson qadri uchun" tamoili o'z ifodasini topgan. Bevosita Konstitutsiyamizning 21-moddasida "Har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas.

Inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin" deb takidlab o'tilgan. Bu albatta mamlakatimizda insom huquqlar bo'yicha katta ishlar amalga oshirilayotganini yorqin na'munasi. Bundan tashqari davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yil "Insonga e'tibr va sifatli ta'lim yili" deb nomlangani ham bejiz emas.

Alohida toifalangan hududlarda xizmat olib borishda profilaktika inspektoridan alohida kasbiy mahorat va mukammal bilim, shu bilan birgalikda kasbiy professionallik ham talab etiladi. Alohida toifalangan hududlarda xizmat vazifasini bajarayotgan profilaktika inspektori avvalo muhitga tez moslashuvchan, mavsumiy huquqbuzarliklar tasnifi va to'g'ri kvalifikatsiyani amalga oshirish salohiyatiga ega bo'lishi zarur. Shu bilan birgalikda alohida toifadagi hududlarda oila-turmush sohasidagi jinoyatlar ham kriminogen tahlilda asosiy o'rinni egallaydi.

Mazkur toifadagi hududlarda xizmat olib borishning o'ziga yarasha mas'uliyatli tomonlari ham mavjud, albatta. Boisi, olis qishloq hududlari va chegara hududlarida shahar hududlaridan farqli o'laroq ayrim toifadagi huquqbuzarliklar hisoblanmish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini talon-taroj qilish kabi mavsumiy huquqbuzarliklar yoki qishloq xo'jaligida yer unumdorligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan mineral o'g'itlarni o'g'irlash, talon-taroj qilish kabi huquqbuzarliklar olis qishloq hududlarida ko'proq uchrab tursa, chegara hududlarda esa O'zbekiston respublikasi hududiga noqonuniy yo'llar orqali kirib kelishga urinish, O'zbekiston chegarasini noqonuniy kesib o'tish, turli xil narkotik moddalarni yoki olib kelinishi va chegaradan o'tkazilishi ta'qiqlangan mahsulotlarni chegaradan olib o'tish qoidalarini buzgan holda O'zbekiston hududiga olib kirishga urinish ya'ni kontrabanda, aylanma yollar orqali O'zbekiston hududidan chiqib ketish yoxud respublika hududiga kirib kelish kabi jinoyatlar aynan alohida toifadagi hududlarda uchrashini statistik ma'lumotlar ko'rsatadi.

Shu o'rinda huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarining eng muhim vazifasi sifatida belgilab o'tilganligiga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi: birinchi — huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarining respublika, o'rta va quyi pog'onalari faoliyatining sifat jihatidan yangi tartibini o'rnatish, bunda ularning asosiy vazifalari, funksiyalari hamda

javobgarligini aniq belgilash va chegaralash, profilaktika inspektorlari zimmasiga ular faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'ymaslik; ikkinchi — profilaktika ishini aholi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikda tashkil etish, ushbu ishni, birinchi navbatda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishni ta'minlashga, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirishga qaratish; uchinchi — voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash tizimini ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, o'sib kelayotgan yosh avlodni terrorism, diniy ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalariidan himoyalashga yo'naltirilgan holda rivojlantirish; to'rtinchi — profilaktika inspektorlarining zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarning talab darajasida bajarilishi uchun shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shu jumladan o'zlarining faoliyati haqida jamoatchilik oldida tizimli ravishda hisobot berishlarini yo'lga qo'yish, ularning aholini tashvishga solayotgan muammolarga yuzaki munosabatda bo'lish holatlariga chek qo'yish; beshinchi — profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini baholashning ta'sirchan mezonlarini joriy etish, bunda, birinchi navbatda jamoatchilik fikri, ularning faoliyati natijalaridan fuqarolarning qanoatlanishi hamda aholi bilan hamkorlik darajasini hisobga olish; oltinchi — ushbu sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, profilaktika inspektorlarining bilim darajasi va kasbiy tayyorgarligini oshirish, ular uchun munosib ish sharoitlarini yaratish, ularni bevosita o'zlariga birlashtirilgan hududda xizmat turar joyi bilan ta'minlash, zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish natijadorligi uchun moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

Kasbiy malaka va ko'nikmani oshirishda asosan quyidagilarga e'tibor qaratish zarur hisoblanadi. Profilaktika inspektorlarining bugungi qiyofasi ham kechayotgan islohotlar bilan hamohang bo'lishi, faoliyatida yangilik va zamonaviylik aks etishini taqozo qiladi. Har qanday yangilik va zamonaviy yondashuvning pirovard maqsadi xalqimiz og'irini yengil qilishga qaratilgan. Shu bois, bugungi kunda profilaktika inspektorining zamonaviy qiyofasini yaratish, uni yangi O'zbekistonga xos kadr sifatida shakllantirish ayni vaqtdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Profilaktika inspektorining kasbiy malaka va ko'nikmasini oshirishda asosiy e'tibor uning kundalik faoliyatida fidoyilik, sadoqat va odillik tamoyillari ustuvorligini qay darajada ta'minlayotganiga qaratilishi muhim o'rin tutadi. Shuningdek, uning shaxsida namunaviy xulq-atvor, vazminlik, mushohadalik, bag'rikenglik, olijanoblik, halollik kabi tuyg'ular mukammal shakllanishi lozim. Shaxsiy jihatlarning sifati va samaradorligi profilaktika inspektorida keng dunyoqarash va teran fikrlash qobiliyatining shakllanganlik darajasiga bog'liq. Mas'uliyat va o'z yurtidan ma'naviy qarzdorlik tuyg'usi ish faoliyatida qat'iylik va sadoqat fazilatlarini shakllantiradi. Eng muhimi, profilaktika inspektorining o'z xalqini sevishi va unga mehr qo'yishi aholining dardi va tashvishlari bilan yashash tuyg'usini vujudga keltiradi. Shu bois, qayd etilgan shaxsiy fazilatlar zamonaviy profilaktika inspektori qiyofasini yaratishga muhim poydevor vazifasini o'taydi.

Zamonaviylik, avvalo, amalga oshirilayotgan islohotlar va voqea-hodisalardan xabardorlik, daxldorlik va oqilona munosabat bildira olishda namoyon bo'ladi.

Innovatsion bilim va ko'nikmalar shakllanganligi, o'z kasbiy malakasini mustaqil rivojlantira olish qobiliyatiga egaligi, ish faoliyatida ilg'or axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalana olishi, zamonaviy etika qoidalaridan xabardorligi, xorijiy tillarni o'zlashtirganligi, kommunikativlik, ommaviy axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmasi, xalq bilan muloqot qilishning yangi usul va shakllarini bilishi, kasbiy sohasi va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan muntazam xabardorligi kabi jihatlarda o'z ifodasini topadi.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak alohida toifalangan hududlar sirasiga olis qishloq hududlari, chegara hududlari shu bilan birgalikda cho'l hududlaridagi qishloqlarda xizmat vazifasini olib borayotgan profilaktika inspektorlarining faoliyatiga ham zamonaviy metodlarni tadbiiq etgan holda yangi ilmiy texnologiyalarni joriy etishimiz lozim bo'ladi. Bunda eng avvalo profilaktika inspektori tomonidan xizmat olib borilayotgan hududni ma'muriy maydonini aniq bilishi talab etadi. Bu esa o'z o'rnida, albatta, olis qishloq hududlari, cho'l hududlari, ovullar va chegara hududlarida profilaktika inspektorining o'z ish faoliyatini samarali tarzda amalga oshirish imkonini yaratadi. Alohida toifalangan hududlarda xizmat olib borayotgan profilaktika inspektorining kasbiy madaniyati bu, albatta, uning o'z xizmat sohasidagi farmon, farmoyish, qaror va buyruqlarni shu bilan birgalikda barcha qonun va qonunosti normativ huquqiy hujjatlar va aktlarni bilishi, o'z vaqtida o'qib o'zlashtirishi va amaliyotga tadbiiq eta olishi zarurligi, qolaversa o'z xizmat hududida tashkiliy-huquqiy jihatdan aholi farovonligini ta'minlash yo'lida zarur chora-tadbirlar ko'rishi desak adashmagan bo'lamiz. Bundan tashqari profilaktika inspektori tomonidan xizmat olib borayotgan hududida istiqomat qiladigan tub joy aholini milliy urf odatlari va qadriyatlariga hurmat bilan qarash talab etiladi. Kasbiy mahorat esa albatta yillar mobaynida shakklanadigan tajriba evaziga vujudga keladi. Kasbiy mahorat jihatidan ichki ishlar organlarida xizmat olib boradigan xodimlar uch toifaga ajratiladi. Bular, yosh xodimlar ya'ni ish tajribasiga ega bo'lmagan ichki ishlar organlarida besh yilgacha xizmat faoliyatini o'tagan xodimlar hisoblansa, ikkinchi toifa xodimlar esa ichki ishlar organlaridashaxsiy tajribasini orttirgan xodimlar hisoblanib, ular ushbu sohada o'n yildan o'n besh yilgacha muddat oralig'ida xizmat faoliyatini o'tagan xodimlar hisoblanadi. Uchinchi toifa xodimlar esa o'n besh yildan ortiq muddat sohada ishlab anchagina tajriba orttirgan, bilim, ko'nikma va malakasi jihatidan yosh kadrlarga o'rnak bo'la oladigan kasb fidoiylari hoisoblanadi. Uchinchi toifa xodimlar esa o'n besh yildan ortiq muddat sohada ishlab anchagina tajriba orttirgan, bilim, ko'nikma vca malakasi jihatidan yosh kadrlarga o'rnak bo'la oladigan kasb fidoiylari hoisoblanadi. Kasbiy mahorat esa albatta yillar mobaynida shakklanadigan tajriba evaziga vujudga keladi. Kasbiy mahorat jihatidan ichki ishlar organlarida xizmat olib boradigan xodimlar uch toifaga ajratiladi. Bular, yosh xodimlar ya'ni ish tajribasiga ega bo'lmagan ichki ishlar organlarida besh yilgacha xizmat faoliyatini o'tagan xodimlar hisoblansa, ikkinchi toifa xodimlar esa ichki ishlar organlarida shaxsiy tajribasini orttirgan xodimlar hisoblanib, ular ushbu sohada o'n yildan o'n besh yilgacha muddat oralig'ida xizmat faoliyatini o'tagan xodimlar hisoblanadi. Uchinchi toifa xodimlar esa o'n besh yildan ortiq muddat sohada ishlab anchagina tajriba orttirgan, bilim, ko'nikma va malakasi jihatidan yosh kadrlarga o'rnak bo'la oladigan kasb fidoiylari hoisoblanadi. besh yildan ortiq muddat sohada ishlab anchagina tajriba orttirgan, bilim,

ko'nikma va malakasi jihatidan yosh kadrlarga o'rnak bo'la oladigan kasb fidoiylari hisoblanadi.

Alohida toifalangan hududlarda xizmat faoliyatini amalga oshiradigan profilaktika inspektorlari xizmat intizomiga rioya qilgan holda o'z xizmat faoliyatini sohadagi qonunlar va qonunosti normativ aktlar, IIVning buyruq va ko'rsatmalari asosida amalga oshirishlari ushbu hududlarda huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish bilan birgalikda samarali tarzda profilaktikasini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasi.; T-2023.
2. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklarlar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2896-son qarori. Toshkent shahar., 2017-yil 18-aprel, PQ-2896-son.
3. Vazirlar mahkamasining 2019-yil 26-martdagi "Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlarining ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 251-son qarori. Toshkent shahar., 2019-yil 26-mart.
4. www.lex.uz elektron normativ-huquqiy hujjatlar to'plami .
5. www.Vikipediya.uz .

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA DA NOQONUNIY MIGRATSIYA VA ODAM SAVDOSI OLDINI OLISH VA FOSH ETISH

*IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti
Po`latov Nodirbek Murodjon o`g`li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ichki ishlar organlarining noqonuniy migratsiya va odam savdosini oldini olish, ularning paydo bo`lish yo`llari, xususiyatlari, noqonuniy migratsiya holatlarida ushbu jinoyatlarni fosh etish va aniqlashga qaratilgan ishlar bo`yicha amaliy va nazariy ma`lumotlar bayon etilgan.

Аннотация: В статье представлены практическая и теоретическая информация о работе органов внутренних дел, направленной на предотвращение незаконной миграции и торговли людьми, пути и особенности их возникновения, раскрытие и выявление этих преступлений по делам о незаконной миграции.

Abstract: The article presents practical and theoretical information about the work of internal affairs bodies aimed at preventing illegal migration and human trafficking, the ways and features of their occurrence, the disclosure and detection of these crimes in cases of illegal migration.

Qonunlarga muvofiq Ichki ishlar organlari noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurashda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o`z vakolatlari doirasida:

odam savdosi bilan bog`liq jinoyatlar va huquqbuzarliklar to`g`risidagi arizalarni, xabarlarini va boshqa axborotni qabul qiladi, ro`yxatga oladi hamda ularning "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni, shuningdek, ma`muriy javobgarlik, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya to`g`risidagi qonunchilik hujjatlari va boshqa qonunlarga muvofiq ko`rib chiqilishini ta`minlaydi;

kelib tushgan murojaatlar orqali odam savdosidan jabrlangan yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni aniqlash maqsadida ularni identifikatsiya qiladi hamda qayta yo`naltiradi;

ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va mahkumlar orasida odam savdosi bilan bog`liq jinoyatlardan jabrlangan shaxslar haqida ma`lumot to`playdi, tahlil qiladi va ularni identifikatsiya qilishni tashkil etadi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy media sohasida odam savdosi bilan bog`liq jinoyatlardan jabrlangan shaxslar haqida ma`lumot to`playdi, tahlil qiladi va ularni identifikatsiya qilishni tashkil etadi;

odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxsni dastlabki identifikatsiya qilish maqsadida pul mablag`lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog`liq

operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshiradi;

odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarni fosh etish bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov o‘tkazishni tashkil etish hamda amalga oshirish davrida odam savdosidan jabrlangan, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni dastlabki identifikatsiya qilish va qayta yo‘naltirishni amalga oshiradi;

odam savdosi va u bilan bog‘liq jinoyatlarga to‘qnash kelish xavf ostida bo‘lgan shaxslar orasidan odam savdosidan jabrlangan, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni aniqlash uchun identifikatsiya qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy dasturlar va loyihalarni amalga oshiradi;

identifikatsiya qilish va qayta yo‘naltirish jarayonlarida qatnashayotgan davlat organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari mutaxassislarining odam savdosidan jabrlangan, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxsni aniqlash va identifikatsiya qilish usullari va mezonlari bo‘yicha malaka darajasini oshirish maqsadida har yili kamida bir marotaba o‘quv seminar-treninglar tashkil etadi. O‘z xodimlarining malaka darajasini oshirish istagini bildirgan mazkur organ va tashkilotlarning taqdimnomasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Malaka oshirish instituti va uning hududiy filiallarida o‘qitish tashkil etiladi;

odam savdosi jinoyatlari sodir etilgan xorijiy davlatlar hududida joylashgan O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlari uchun har yili odam savdosining muammosi to‘g‘risida xabardorlikni oshirish va boshqa mamlakatda aniqlangan odam savdosidan jabrlangan, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxsni qayta yo‘naltirish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv seminar-treninglarini masofaviy video-aloqa kanallari orqali tashkil etadi.

Identifikatsiya qilish va qayta yo‘naltirish jarayonlarida qatnashayotgan davlat organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari mutaxassislarining odam savdosidan jabrlangan, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxsni aniqlash va identifikatsiya qilish usullari va mezonlari bo‘yicha malaka darajasini oshirish maqsadida har yili kamida bir marotaba o‘quv seminar-treninglar tashkil etadi;

O‘zbekiston odam savdosiga qarshi samarali kurashish maqsadida BMT, YeXHT va Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot vakolatxonalari bilan hamkorlikda izchil faoliyat olib bormoqda.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazida odam savdosiga qarshi kurashish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda shular haqida so'z bordi.

Milliy markaz direktori A.Saidov va boshqalar O'zbekistonda transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish, odam savdosining oldini olish bo'yicha samarali choralar ko'rilayotganini ta'kidladi. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, bunday jinoyatlardan yoshlarni ogoh etish maqsadida keng ko'lamli tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklariga doir 70 dan ziyod xalqaro hujjatga qo'shilgan. Bu xalqaro-huquqiy hujjatlar normalari bugungi kunda mamlakat fuqarolarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini tartibga soluvchi 700 dan ortiq qonun va 16 ta kodeksga implementatsiya qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30 iyunda qabul qilingan "Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, bir tomondan, Harakatlar strategiyasidagi ustuvor vazifalarni to'liq bajarish, ikkinchi tomondan, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurash sohasida, mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy imijini olg'a surishda davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimini yaratish uchun xizmat qiladi.

Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida ham kechagi uslub, qotib qolgan qarashlardan voz kechish fursati allaqachon yetgan. Bugun odamlardan, Internetdan hech narsani yashirib bo'lmaydi. Joylarda goh tibbiyot xodimlari, goh o'qituvchilar, gohida esa tarbiyachilar turli xo'jalik ishlariga majburiy ravishda jalb etilgani haqidagi xabarlar qulog'imizga chalinib turibdi.

Bunday ma'lumotlarning biri tasdig'ini topmayotgan bo'lsa, tasdig'ini topgan holatlarda tegishli mas'ul shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortilmoqda.

Qachonki, joylarda har bir katta-kichik rahbar bu masalada ham yangicha fikrlab, bugungi islohotlar talabiga mos ish olib borsa, shunda odam savdosi va majburiy mehnatni bartaraf etish bo'yicha ishlarimiz samaradorligi yuqori bo'ladi.

Darvoqe, 30 iyul kuni Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuniga bag'ishlab bir qancha muhim ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Ushbu uchrashuv va muloqotlar doirasida milliy, xorijiy va xalqaro ekspertlar ayni mavzuda o'zaro fikr almashdilar.

Xususan, "Odam savdosi jabrdiydalarini kelib chiqish mamlakatiga qaytarish jarayonida inson huquqlariga amal qilish bo'yicha Dasturulamal printsiplar"

to'plamining o'zbek tilidagi nashri taqdimoti shunday tadbirlardan biridir. Mazkur qo'llanma Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YeXHT) Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB) tomonidan tayyorlangan.

Kitobning o'zbek tiliga tarjimai Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Nashr taqdimoti YEXHTning O'zbekistondagi Loyihalari muvofiqlashtiruvchisi hamda YeXHT/DIIB bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Taqdimot marosimida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi vakillari, shuningdek, YeXHT/DIIB ekspertlari ishtirok etdi va so'zga chiqdi.

Muhokamalar jarayonida odam savdosi jabrdiydalarini kelib chiqish mamlakatiga qaytarish jarayonida olingan saboqlar, erishilgan natijalar va YeXHT mintaqasi mamlakatlarning oldida turgan vazifalar xususida fikr almashildi. O'zbekistonning odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi tajribasi haqida so'z yuritildi.

Anjuman qatnashchilariga odam savdosi jabrdiydalarini qayta yo'naltirish milliy mexanizmini rivojlantirish bo'yicha YEXHT/DIIB tavsiyalari taqdim etildi. Taqdimotda "Odam savdosi jabrdiydalarini kelib chiqish mamlakatiga qaytarish jarayonida inson huquqlariga amal qilish bo'yicha Dasturulamal printsiplar" to'plamining mazmun-mohiyati va ahamiyati e'tirof etildi.

Ma'lumki, 2010 yil 30 iyulda BMTning Bosh Assambleyasi 64/293-rezolyutsiyasi bilan Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha BMTning Global harakat dasturi qabul qilingan. Mazkur Harakat dasturida ushbu jinoyatning oldini olish, jabrdiydalarning himoyasi, jinoyatchilarni ta'qib etish va barcha yo'nalishlarda hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. 2013 yilda esa 30 iyul – BMT tomonidan Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni deb e'lon qilindi.

YeXHT/DIIB 2008 yilda bir qancha mamlakatlarda odam savdosi jabrdiydalari va noqonuniy immigrantlarni kelib chiqish mamlakatlariga qaytarish yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish tashabbusini boshlab berdi. Bunda odam savdosi jabrdiydalarini qaytarish jarayonlarining turli jihatleri va YEXHT inson huquqlari sohasidagi standartlari va majburiyatlariga bu jarayonlarning qanchalik muvofiqligini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Natijada aksariyat mamlakatlarda bu borada foydalanish imkoniyati bo'lgan dasturulamal ko'rsatmalarning mavjud emasligi aniqlandi. Jumladan, hukumat organlari va fuqarolik jamiyati sub'ektlari uchun odam savdosi jabrdiydalarini qaytarish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan standartlarga talab kuchli ekani oydinlashdi.

YeXHT/DIIB tomonidan mazkur to'plam ayni shu muammoni ijobiy hal etish maqsadida tayyorlangan. Qo'llanma YeXHT mintaqasida jabrdiydalarni qaytarish sohasidagi siyosat, tartib va amaliyotni qo'llashga ko'maklashish uchun odam savdosi

jabrdiydalarini qaytarish jarayonida ishtirok etayotgan manfaatdor tomonlarga mo'ljallangan.

Qo'llanmaning birinchi qismida taqdim etilgan yetti dasturulamal printsiplari YeXHT mintaqasida qo'llaniladigan xalqaro normalardan kelib chiqadi. Har bir printsiplari qisqa bayon etilgan hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati uchun asosiy omillar va tavsiyalar ko'rsatilgan. Ikkinchi qismda ushbu dasturulamal printsiplari uchun asos bo'lgan xalqaro-huquqiy normalar haqida atroflicha tushuncha berilgan.

Qo'llanma odam savdosi jabrdiydalarini himoya qilishni yaxshilashga ko'maklashishga da'vat etilgan. Shu bois ushbu nashr davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari uchun zarur manba hisoblanadi. To'plam jabrdiydalarni qaytarish masalasiga qonunchilik yoki dasturiy siyosiy yondashuvlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanayotgan davlat tuzilmalari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Taqdimot doirasida Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuniga bag'ishlangan brifing o'tkazildi. Brifing moderatorlari O'zbekistonda odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2008 yil 17 aprelda "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilinganiga e'tibor qaratdilar.

Qonunga muvofiq, odam savdosiga qarshi kurashish – odam savdosining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish, uning oqibatlarini minimallashtirish, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyatni o'z ichiga oladi. Prezidentimiz Farmonida ushbu Qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vazifasi kun tartibiga qo'yildi.

Mamlakatimizda odam savdosiga qarshi kurashish sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda ushbu sohada jinoyatlarning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu, o'z navbatida, odam savdosi jabrdiydalarining huquq va erkinliklarini ta'minlash, mamlakatda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi.

Tahlillar ushbu jinoyat yuzasidan sudlangan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish borasidagi ko'rsatkichlarda pasayish tendentsiyasi kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Bu ijobiy omil, albatta, amalga oshirilayotgan ta'sirchan chora-tadbirlar o'z samaralarini berayotgani bilan bog'liqdir.

Xususan, o'tgan yili odam savdosiga qarshi kurashish yo'nalishida 123 ta jinoiy ish qo'zg'atilgan. 2017 yilda bu ko'rsatkich 305 tani tashkil etgandi. Ya'ni, odam savdosiga qarshi kurashish yo'nalishida qo'zg'atilgan jinoiy ishlar soni bir yilda 60 foiz kamaygan.

Bu borada jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar soni ham kamaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma'lumotlariga qaraganda, odam savdosi bilan bog'liq jinoyatni sodir etganlik aybi bilan 2017 yilda – 401, 2018 yilda – 234, 2019 yilning 6 oyida esa 70 nafar shaxs sudlangan. Ularning 55 nafari, ya'ni 71 foizi

ayollardir. Shuningdek, odam savdosidan jabrlanganlarning 70 foizini ham xotin-qizlar tashkil etadi.

E'tibor bering: 2018 yilda 249 nafar kishi odam savdosiga doir jinoyatlar qurboni sifatida e'tirof etilgan. 2017 yilda ushbu ko'rsatkich 501 kishini tashkil etgandi. Ya'ni, bu borada bir yilda ikki barobar pasayish kuzatilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 5 noyabrdagi 240-son qaroriga muvofiq, Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha respublika reabilitatsiya markazi tuzilgan. O'tgan davrda Markaz tomonidan odam savdosi jabrdiydalarining 3 ming nafardan ortig'iga huquqiy, ijtimoiy, tibbiy va boshqa xil yordamlar ko'rsatilgan.

Shu o'rinda O'zbekiston 2013 yildan buyon Xalqaro mehnat tashkiloti metodologiyasi bo'yicha va ushbu xalqaro tashkilot ekspertlarining bevosita ishtirokida qishloq xo'jaligi sohasida bolalar mehnati va majburiy mehnatdan foydalanish holati yuzasidan muntazam monitoring olib brayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Natijada Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon bankining 2013-2018 yillardagi monitoringi yakunlari O'zbekistonda paxta yig'im-terimi mavsumida bolalar mehnati va majburiy mehnatdan yalpi foydalanish holatlari kuzatilmaganini ko'rsatdi.

Bu yo'nalishdagi ishlarni yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkmasi tomonidan 2018 yil 10 mayda "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Qaror ijrosi doirasidagi izchil ishlar natijasida bugungi kunda mamlakatda fuqarolarni majburiy mehnatga yalpi jalb etish holatlari barham topdi.

Xorijiy va xalqaro hamkorlarimiz O'zbekistonning bu boradagi sezilarli sa'y-harakatlarini e'tirof etmoqdalar. Xususan, kechagi hafta mamlakatimizda bo'lgan AQSH Savdo vakili ofisi delegatsiyasi O'zbekistonda so'nggi ikki yil ichida amalga oshirilayotgan islohotlar majburiy mehnatning har qanday shakliga yo'l qo'ymaslik borasida jiddiy yuksalishlar ketayotganidan darak berishini qayd etdi.

Ayniqsa, yurtimizda majburiy mehnatga jalb etish holatlari bo'yicha bevosita murojaat etish uchun imkoniyatlarining kengaytirilgani katta ahamiyatga ega bo'ldi. Natijada keyingi davrda, bir tomondan, majburiy mehnatga jalb etish masalalari bo'yicha murojaatlar miqdori sezilarli darajada ortgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu borada huquqbuzarlik qilganlarga nisbatan chora ko'rish holatlari ham ko'paydi.

Keyingi davrda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishni yanada takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Mamlakat tashqarisida ishlaydigan O'zbekiston fuqarolarining ijtimoiy va mehnatga doir huquqlariga rioya etilishini ko'zda tutadigan davlatlararo darajadagi bir qator hujjatlar imzolangan shular jumlasidandir.

O'zbekiston tomonidan Xalqaro mehnat tashkilotining bolalar mehnati va majburiy menat bo'yicha konventsiyalari ratifikatsiya qilingan. Mazkur xalqaro-

huquqiy hujjatlar talablarini amalga oshirish bo'yicha ayni paytda Milliy harakat rejaları hayotga tatbiq etilmoqda.

Majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik uchun nazoratni kuchaytirishda, albatta, qabul qilinayotgan huquqiy va tashkiliy-amaliy choralar katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayni vaqtda bu boradagi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish ishlari jadal bormoqda.

Jumladan, 2018 yil 16 oktyabrda "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Shuningdek, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi hamda bir qancha yangi qonun loyihalari ustida izchil ishlar davom etmoqda. Xulosa o'rnida shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, odam savdosiga qarshi kurash borasida aholining turli qatlamlari, ayniqsa, ayollar va voyaga yetmagan shaxslarga odam savdosi kabi illatning farovon turmush-hayotimizga soladigan xavfi va salbiy oqibatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish, ya'ni, aholining gavjum joylarida, mahallalarda, turli xil ta'lim muassasalarida, davlat idoralari, korxonalar, muassasa, tashkilotlarda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish, keng tushuntirish ishlarini amalga oshirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish asosiy vazifalardan biridir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-avgustdagi " Odamsavdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi 633-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odam savdosiga qarshi kurashish choratadbirlari to'g'risida"gi Qonunga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritildi imzolagan shakli 2019.06.10.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 17-aprelda qabul qilingan "Odamsavdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'QR -154 son 17-aprel Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan yangi tahrirdagi ilova
4. www.uz.Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Rasmiy veb sayti.
5. w.start.uz. O'zbekiston Respublikasi Rasmiy veb sayti.
6. www.tashqish. O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligining rasmiy veb sayti.
7. www.un.uz.org. BMT rasmiy veb sayti. 8. www.global.index. rasmiy veb sayti

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SOG`LIQQA QARSHI HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

*IV Akademiyasi 3-bosqich 308-guruh kursanti
To`rayev Aslbek Almardon o`g`li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorining sog`liqqa qarshi huquqbuzarliklar bo`yicha faoliyatida uchraydigan muommolar, islohotlar, huquqiy asoslar bayon, sohada uchraydigan ayrim kamchiliklar, ularning yechimlari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: shaxs, sog`liq, jamiyat, xavf, tan jarohati, muommolar, bartaraf etish, targ`ibot

Аннотация: В данной статье описаны проблемы, реформы, правовые основы, возникшие в деятельности инспектора по профилактике нарушений здоровья, некоторые недостатки в этой сфере и пути их решения.

Ключевые слова: личность, здоровье, общество, риск, травма, проблемы, устранение, продвижение.

Abstract: This article describes the problems, reforms, legal bases encountered in the activities of the preventive inspector in the field of health violations, some shortcomings in the field, and their solutions.

Key words: individual, health, society, risk, injury, problems, elimination, promotion

Ichki ishlar organlarining sog`liqqa qarshi huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyati har bir sog`liqqa nisbatan individual yondashuvni talab etadi. Bu, avvalambor, voyaga yetmagan jabrlanuvchilarga ham taalluqlidir. Masalan, viktimlikning dastlabki bosqichida profilaktika qilish muammosi so`nggi yillarda bir necha marta ko`tarildi. Ammo o`smirlar va qizlar orasidagi profilaktikaga nisbatan tabaqalashtirilgan yondashuvning zarurligi bu holda ham juda kam tilga olindi. Yuqorida qayd etilgan umumiy, bir xil yondashuv bu yerda ham yetakchilik qiladi. Beqaror oiladan chiqqan o`smir yoki qizni ro`yxatga qo`yish, o`z vaqtida chora ko`rganlik haqida rahbariyatga hisobot berish va shu bilan o`smir yoki qiz jabrlanuvchiga aylangunga qadar profilaktik ta`sir ko`rsatishni to`xtatish, ichki ishlar organlari, avvalambor, voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha inspeksiya xodimlari va uchastka nozirlarining muhim vazifasidir. Shuningdek, profilaktikaning barcha sub`ektlari faoliyatini baholash mezonlari, odatda, ular faoliyat ko`rsatuvchi shaxs ijtimoiylashuvining ma`lum bosqichi bilan chegaralanadi.

Buning ustiga, voyaga yetmaganlar, ayniqsa, qizlar maxsus o`quv-tarbiya

muassasalariga yoki koloniyalarga tushib qolgach, ba'zan ijobiy ijtimoiy faoliyat ko'nikmalarini orttirish zarurligini idrok etish layoqatini yo'qotib qo'yimoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yosh bolalik davrida zo'ravonliklardan jabrlanish va zo'ravonlikka duch kelish holatlari jinoyatchi bo'lish ehtimolini keltirib chiqaradi. Bu, o'z navbatida, bolalarga nisbatan zo'ravonlik qilish holatlarini iloji boricha dastlabki vaqtlarda aniqlash va ular viktimligini oldini olishning ahamiyatini oshiradi.

Ushbu ehtimol jinsiy aloqa va zo'ravonlikning boshqa ko'rinishlari mavjud bo'lganida yanada murakkablashadi. Uy sharoitidagi doimiy zo'ravonlikning ko'lami ro'yxatlar va ma'lumot bazalari muntazam ravishda yangilanib turiluvchi bir necha mamlakatlardagina, jumladan, Buyuk Britaniya va AQShda bolalarni himoya qilish rasmiy agentliklariga xabar qilingan bolaga nisbatan zo'ravonlik qo'llanilishi holatlarining keyingi 1-4 yil ichida takrorlanish nisbati 5-24 %ga teng ekani aniqlangan. Bir bola masalasi bo'yicha kamida ikki marta shikoyat tushgan holatlarda bu ehtimol sezilarli darajada ortar ekan.

Bolaga nisbatan oilada zo'ravonlik qo'llanilishi boshqa muhitlardagi zo'ravonliklar ortib borish xatari bilan bog'liq bo'lib, Buyuk Britaniyada o'tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, xonadonda zo'ravonlikning guvohi bo'lgan bolalarning o'zlari bezorilikdan jabr ko'rishlari ehtimoli yuqori bo'lar ekan⁸⁵. Italiyada boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, maktabda bezorilikning jabrlanuvchisi bo'lish o'z uyida ota-onalar tomonidan zo'ravonlikka guvoh bo'lish bilan uzviy bog'liq ekan. Bu ayniqsa qiz bolalarda ko'proq uchrashi aniqlangan.

Ichki ishlar organlarining sog'liqqa qarshi huquqbuzarliklarning maxsus va individual profilaktikasi ham o'ziga xos xususiyat va ahamiyatga ega bo'lib, profilaktikaning bu turi, zo'rlik bilan sodir etiladigan huquqbuzarliklardan mudofaani ta'minlash maqsadida fuqarolarning kriminologik ong va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarni ko'paytirishni taqozo etadi. Bu, avvalo, har bir potensial jabrlanuvchi kriminologik vaziyatning salbiy oqibatlarini oldini olish uchun zarur choralarni ko'rish prinsipiga asoslanadi.

Ye.O.Alauxanov va Z.S.Zaripovlar tomonidan maxsus (yakka) tartibdagi profilaktikani, viktimligi yuqori bo'lgan shaxsni aniqlash va u bilan tarbiyaviy chora-tadbirlarni o'tkazish, uning jinoyatdan jabrlanib qolish xavfini kamaytirishdan iborat chora-tadbirlar tizimini tashkil etadi⁸⁶, deb ta'kidlaydi.

Kriminologik vaziyatni real baholash nafaqat voqealar salbiy rivojlanganda to'g'ri harakat qilishi, balki fuqarolarni ehtiyotkorlikka chaqirish va yetkazilishi mumkin bo'lgan oqibatlarni oldini olish yoki kamaytirishga xizmat qiladi. Ammo xavfli vaziyatlarni ko'ra bilish va ularni baholay olish barchada bir xil emas. Bunday kamchilik individual viktimlikning asosiy belgilaridan biri bo'lib,

viktimizatsiyaning oldini olish maqsadida uni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shaxsning xavfli vaziyatlarga tushib qolishi mumkin bo'lishining imkoni bo'lmasa-da, bunday vaziyatlarga nisbatan munosabatda bo'lish va immunitet hosil qilish zarur. Bu potensial xavfni real baholash, o'zini boshqara olish va xatti-harakatlarining oqibatlarini anglashga olib keladi.

Shaxs o'zining xavfli vaziyatlardagi kamchiliklarini bilishi, bunday vaziyatlarga tushib qolish ehtimolining yuqoriligini anglashi potensial jabrlanuvchi zaruriy mudofaasining ruhiy quroli bo'lib xizmat qiladi.

Ichki ishlar organlarining sog'liqqa qarshi huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyatini tashkil etishda ommaviy axborot vositalari orqali berilgan axborotni idrok etish va o'zlashtirish osonroq va qulayroq ekanini hisobga olib, bunday yo'sindagi tavsiyalarni osongina eslab qolish imkonini beradigan tavsiyalar ishlab chiqish lozim. Bunda odamning hayot tarziga xos bo'lgan turli vaziyatlar va sharoitlarda unga hujum qilinishining ehtimol tutilgan variantlarini tahlil qilish uchun samarali va maqbul bo'lgan himoya usullarini ishlab chiqish taklif etiladi. Ayniqsa, viktimogen vaziyatlarda harakat qilish tajribasiga ega bo'lgan kishilarning maslahatlari foydali va ishonchga sazovor bo'lishi lozim.

Xorij mamlakatlarida allaqachon amaliyot sinovidan o'tgan bunday chora-tadbirlarning ijobiy samarasi shu bilan belgilanadiki, ehtimol tutilgan viktimogen vaziyatda o'z xulq-atvorini oldindan ishlab chiqish jarayonida inson ongiga harakatlarning muayyan algortmi kirib o'rnashadi va real hayotda bu shaxs bilan shunga o'xshash biron-bir voqea yuz bergudek bo'lsa, bu tajovuzning dastlabki shikastli ta'siriga nisbatan yengilroq kechadi. Bundan tashqari, ehtimol tutilgan kriminal vaziyatlarga real baho berish odamlarda ehtiyotkorlikni kuchaytiradiki, bu ba'zan yuqorida ko'rsatilgan vaziyatlarning yuzaga kelishini oldini oladi.

Ayrim psixologik qonuniyatlarni bilish ham nizoli vaziyatni chetlab o'tish imkonini beradi. Ba'zan tajovuzkor xulq-atvorda darg'azablik, raqibning tajovuzkor ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Uning o'zini tutishi tahdid soluvchi ko'rinish kasb etadi, shaxs xuddi tashlanishga tayyorlanayotgandek bo'ladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, darg'azablik holatida inson kuchiga kuch qo'shilganini his qiladi, yanada serg'ayrat va serzarda bo'lib qoladi. Bu holatda u jismoniy harakatga ehtiyoj sezadi va shuning ta'sirida ba'zan jinoiy zo'rlik ishlatadi⁸⁷.

Shuni qayd etish lozimki, jinoyatchilikning rasmiy statistikasidan tashqari, aholi o'rtasida anonim tarzida o'tkaziladigan so'rovlar jinoyatchilikning miqyosi, taqsimlanishi va rivojlanishini aniqlash imkonini beradi; turli huquqbuzarliklar bo'yicha viktimlashuv darajasini namoyish etadi; jinoyatchi bilan jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni va ularning ijtimoiy-demografik belgilarini ko'rsatadi; viktimlashuv amalda yetkazgan ziyonga baho berish; uning xavflilik darajasini aniqlash; ayrim jabrlanuvchilar o'zlariga nisbatan sodir etilgan jinoyat haqida

huquqni muhofaza qiluvchi organlarga arz qilishdan bosh tortishining sabablarini tushuntirish; jinoiy adliya organlarining ishiga baho berishgako'maklashadi. Huquqbuzarliklar va huquqbuzarliklar profilaktikasiga keng jamoatchilikni jalb etishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish dunyodagi ko'pchilik davlatlar, xususan, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Germaniya va Avstraliya shaharlarida kuzatiladi. Respublikamizda shunga o'xshash dasturlardan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning «Xavfsiz shahar» apparat-dasturiy kompleksi ishlab chiqilib, uning imkoniyatlaridan Toshkent shahrida keng foydalanishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar qay darajada professional va ko'p sonli bo'lmasin, jinoyatchilikka qarshi faqat ularning kuchi bilan kurash olib borish mumkin emasligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Mazkur organlar faoliyati jinoyatchilikka ta'sir o'tkazish jarayonida jamoatchilik (turli-tuman shakllarda) ishtirok etgan taqdirdagina samarali bo'lishi mumkin.

Huquqbuzarliklar viktimligini profilaktika qilishda bir-birini qo'llab-quvvatlash shaxslarning birlashuvidan tashqari, amaliy viktimologiyadan ta'lim kurslarini tashkil qilishida o'z samarasini berishi mumkin. Chet el tajribasida bu mavzudagi ma'ruzalar bugungi kunda deyarli barcha o'quv yurtlarida o'qitilishidan dalolat beradi. Hatto, maktabgacha tarbiya muassasalarida ham bolalar sodda, o'zlari tushunishga qodir bo'lgan darajada turli-tuman xavf-xatarlardan qutulib qolish haqida foydali axborotlar oladilar.

Nazariy kursdan tashqari, maktab o'quvchilari va talabalarda maxsus treninglar o'tkazish: o'zini o'zi himoya qilish usullarini o'zlashtirish, turli himoya vositalarini qo'llash usulini maromiga yetkazish imkoniyati mavjud.

Ko'pgina mamlakatlar tajribasidan ko'rish mumkinki, hamma uchun muhim bo'lgan umumiy maqsadlar va vazifalarni aniq belgilash va hatto, turli rag'batlantirish choralardan foydalanish bunday jamoatchilik harakatiga butunlay o'zgacha tus beradi.

Shuni tan olish kerakki, huquqbuzarliklar viktimligining maxsus profilaktikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi dasturlari O'zbekistonda bu darajada keng rivojlangani yo'q. Ammo bunday aloqalarni yo'lga qo'yish va huquqbuzarliklar viktimligiga qarshi kurashishda butun jamiyatning kuch-g'ayratini birlashtirishga urinishlarni hozirgi vaqtda ham kuzatish mumkin. Bunga fuqarolar huquqbuzarliklarni to'xtatish yoki fosh qilishga ko'maklashuvchi ma'lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga anonim tarzda xabar qilishlari uchun o'rnatilgan «ishonch telefonlari»; tomoshabinlar xavfsizlikni ta'minlash usullari bilan tanishtirishga bag'ishlangan «Sud hokimiyati» yoki «Bir jinoyat izidan» kabi maxsus televizion ko'rsatuvlarning tayyorlanishi va namoyish etilishi; viktimogen vaziyatlarni chetlab o'tish yo'llari va profilaktikaga

doir matbuotda e'lon qilinayotgan maqolalar; jinoyatdan himoyalanişga bo'lgan huquqning mazmuni va uni ro'yobga chiqarish yo'llarini tushuntiruvchi ilmiy-ommabop risolalarning nashr etilishi kabilar misol bo'lishi mumkin.

Fikrimizcha, bunday tadbirlarning bosh maqsadi aholida huquqbuzarliklar viktimgiga qarshi kurashish tajribasi, o'z kuchiga va davlat madadiga ishonch paydo bo'lishiga, binobarin, jinoyatchilik oldida qo'rquv sezilarli darajada pasayishiga erishishdan iboratdir.

Jamoat joylarida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan huquqbuzarliklar viktimgilashuvning maxsus profilaktikasini olib borish uchun odamlar kam bo'lgan joylarning yaxshi yoritilishini ta'minlash; yerto'lalar, chordoqlar va boshqa shunga o'xshash joylarni qulflash va vaqti-vaqti bilan tekshirish; deviant xulq-atvorga moyil bo'lgan shaxslar yig'iladigan joylarni aniqlab, bunday joylarni profilaktika inspektorlarining bo'linmalari tomonidan doimiy nazorat qilish lozim.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlarning jinoiy yo'lni tanlashiga ta'sir qilayotgan asosiy kriminogen omillar sifatida zo'ravonlikni, jinoiy yo'l bilan boylik orttirishni, ma'naviy buzuqlikni targ'ib qiluvchi filmlarni tomosha qilish, jinoyat olami vakillarining hayot tarziga taqlid qilish kabilar⁷⁰ ham kelajakda voyaga yetmaganlarning jabrlanish holatlarini keltirib chiqaradi.

10-29 yoshdagi bolalar va o'smirlar orasida ko'pincha tanishlar va notanishlar o'rtasida ular tomonidan quolsiz kaltaklanish va jismoniy hujumlar natijasida zo'ravonlikdan jabrlanish ko'zatilgan. Bundan tashqari, ularga nisbatan jinsiy zo'ravonlik tarkibiga nomutanosib ravishda yoki o'rinsiz jinsiy aloqa va jinsiy aloqada bo'lmagan harakatlar kirib, rozi bo'lishga yoki rad etishga qodir bo'lmagan kishiga nisbatan qilingan odam savdosi xatti-harakatlari ham kirgan.

Hissiy yoki ruhiy zo'ravonlik bolalarning harakatlarini cheklash, jirkanish, masxara qilish, qo'rqitish va kamsitish, rad etish va dushmanlik qilishning boshqa jismoniy bo'lmagan shakllari ham ushbu turlarga kiradi

Voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi va erkinligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda jabrlanuvchining kriminologik tavsifini belgilovchi omillarning eng ko'p tarqalganlari sifatida: voyaga yetmagan shaxsning tajovuzlar bilan birgalikda spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi; voyaga yetmaganning axloq normalariga zid xulqi; behayo kiyimlar (mini yubkalar

va boshqalar); suhbatlarni jinsiy mavzularga aylantirishni ko'rsatish mumkin, deb ta'kidlaydi Q.Payzullaev.

Huquqbuzarliklarning asosiy ko'pchiligi 57%i yopiq xonada (jumladan, xonadon yoki boshqa yashash xonasida), 12%i uy yo'laklarida, yerto'lalar, liftlar, uy zina maydonlari, avtomashinalarda); 20%i ko'chada, xiyobon yoki istirohat bog'ida; 6%i jamoat joylarida sodir etilgan. 5% hollarda esa jinoyat sodir etilgan joylarni aniqlab bo'lmagan.

Mazkur turdagi jinoyatning jabrlanuvchisi hisoblangan voyaga yetmaganlarning kriminologik xususiyatlaridan biri shunday izohlanadiki, ular nafaqat o'z otalariga yoki boshqa yoshi katta yaqinlarga xabar bermasdan, balki iloji boricha o'zlarining munosabatlarini sir tutishga harakat qiladilar.

Voyaga yetmagan shaxslarning nomusiga tegish uchun javobgarlik normalarini belgilovchi moddalar dispozitsiyasini aniqlashda qonun chiqaruvchi tomonidan himoyaga olingan shaxslarning yoshi 18 va 14 yosh qilib belgilandi. Bu bilan voyaga yetmagan va kichik yoshdagilarning nomusiga tegish atamalari bilan bog'liq muammolar bartaraf qilinadi. Ammo voyaga yetmaganlar jinsiy daxlsizligi bilan bog'liq jinoyat jabrlanuvchilarini o'rganishda yetkazilgan jismoniy va ma'naviy zararni qoplashda bir qancha muammolar vujudga kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. Qonun va adolat ustuvorligini taminlash – barcha ezgu maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti. – T.: NMIU, 2017 – 32
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 592 b.
4. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 10 apreldagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 20-son, 221-modda; 2015y., 32-son, 425-modda; 2016 y., 52-son, 597-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 6. – 70-m.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi «Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy- maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirishchora- tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3827-son qarorilex.uz)// www.lex.uz/.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Farmonilex.uz)// www.lex.uz/.

QORAMOLCHILIKDA NASILCHILIK ISHLARI VA SELEKTSION TADBIRLARNI AMALGA OSHIRISH

*Ilmiy rahbar: Tleubaeva Zaynab,
Bakalavr: Duysenbaeva Shaxnoza
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Nukus filiali*

Annotatsiya: Mazkur maqolada naslchilik ishining nazariy asoslari-qishloq xo`jalik hayvonlarini urchitish hisoblanadi-mavjud zotlarni yaxshilash va yangi zotlari, tiplari, krosslari va duragaylari o`rganilib chiqilgan.

Kalit so`zlar: Naslchilik, urchitish, sut, go`sht, seleksiya, irsiylanish, nasilga o`tish, inbriding, autbriding.

Qoramolchilikda naslchilik ishining keng ma`nosi-bu hayvonlarni tanlash va saralashda ta`mirlovchi yosh mollarni yo`naltirilgan parvarishlash, hayvonlarning nasldorlik va mahsuldorlik sifatlarini yaxshilash, naslchilik zaxiralaridan oqilona foydalanishdagi tashkiliy-zootexnikaviy tadbirlar tizimidir. Rivojlangan davlatlar tajribasi. Qoramolchiligi rivojlangan mamlakatlarda (Isroil, AQSh, Gollandiya va hokazo) sutdor zotli sigirlardan o`rtacha 8000-12000 kg sut sog`ib olinmoqda. Ixtisoslashgan go`shtdor zotli mollarni jadal parvarishlashda kunlik tirik massa o`shishi 1200-1300 grammdan va so`yim chiqimi 60-65 foizga to`g`ri kelmoqda. etakchi mamlakatlar sutdor qoramolchiligidagi genetik taraqqiyot uchta omillar ta`sirida kechmoqda: zamonaviy seleksiya usullari, ratsional oziqlantirish, sog`ishning yangi texnologiyalari. Sutdor qoramolchilikning dunyoviy genofondi bo`yicha maslahat va takliflar berish vazifasini Interbull (Interbull) tashkiloti (Shvetsiyaning Upsal shahrida joylashgan) bajarmoqda. Har bir rivojlangan G`arbiy mamlakatlarda milliy dasturlarni shakllantirishda ma`lumotlar to`plash va ularni ishlash, bajarilishini nazorat qilish va umuman ushbu davlatlar sut yo`nalishidagi qoramollar populyatsiyasi genofondini takomillashtirish bo`yicha markazlar tashkil qilingan. Buyukbritaniyada ADS, Germaniyada VDS, Isroilda ICBA, AQShda ADSA va Kanadada naslli mollarni hisobga olish assatsiyasi va korporatsiyalari faoliyat ko`rsatmoqda.

Naslchilik ishida ilg`or usullarni qo`llash

Rivojlangan davlatlarda mollarning nasldorlik qiymatini baholashda BLUP (Best Licner Unblased Prediction) uslubi qo`llanilmoqda. Har bir molning nasldorlik indeksi, ularning sut sog`imi, yog` va oqsil miqdorlari hamda sut yog`i va sut oqsili aniqlanadi. Har bir belgilar nasldorlik indeksi qiymati bilan birgalikda ularning umumiy nasldorlik indeksi qiymati hisoblab chiqariladi. Dunyo tajribasida sutdor qoramolchilikda sut

tarkibida oqsil miqdorini ko'tarish, sigirlarni xo'jalikda foydalanish muddatini uzaytirish, go'shtdor qoramolchilikda ozuqalar konversiyasiga (samarali o'zlashtirish) katta e'tibor berilmoqda.

Sof zotli urchitish

Bir zotga mansub bo'lgan hayvonlarni juftlashtirish. Olingan avlodlar sof zotli hisoblanadi. Asosiy vazifasi-zotning sifatini saqlash va takomillashtirishdir. Biologik xususiyati - mollarning irsiyatligini saqlash va uni kuchaytirishdir.

Sof zotli urchitishda mollarning monozigotaligi oshib boradi, tipi, mahsuldorligi va irsiy xususiyatlari bir-biriga xos bo'lgan mollar olinadi.

Sof zotli urchitish samaradorligi, seleksiya ishlarini yo'naltirishga, mollarning individual va zot xususiyatlarini yaxshilashga mashxur buqalar, tizim va oilalarning sifatiga, zotdagi genetik o'zgaruvchanlikga va sof zotli mollarning soniga bog'liq. Yosh mollarni parvarishlash, etuk mollarni oziqlantirish va saqlash sharoitlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu usul qora-ola, golshtin, shvits, gereford, sharole va hokazo klassik zotlarda keng qo'llaniladi.

Sof zotli urchitishda ikki xil juftlashtirish:-qarindoshlikda bo'lmagan (autbriding) va qarindoshlikda (inbriding)gi usul qo'llaniladi.

Autbriding (getrogen) juftlashtirish:-tizimlararo krossida, "qonni yangilash", podani sog'lomlashtirish, xayotchanligini oshirishda qo'llaniladi.

Inbriding-(gomogen) juftlashtirish:-mashxur nasldor mollarning irsiyatlik xususiyatlarini avlodlarga o'ikazishda qo'llaniladi.

Inbridingdan tartibsiz foydalanish qator noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Olingan avlodlarda mahsuldorlik, urchish-ko'payish va xayotchanligi pasayib konstittsiyasi noziklashib boradi.

Uning zararli ta'siri-inbrid depressiyasi yoki inbrid degeneratsiyasi deb yuritiladi. Inbrid mollarda gomozigotalik kuchayib ketadi.

Qoramolchilik inbridingida 40 dan ortiq gomozigotalik qaytish: majruxlik va karotip anomaliysi (irsiy brak) uchraydi.

Sigirlarni urchish va buzoq berish xususiyatlariga salbiy ta'sir etuvchi 23 ta tug'ma nuqsonlar (defektlar) aniqlangan.

Keng miqyosli seleksiya usulida "yaxshilovchi" buqalardan keng foydalanishda. Ular naslida defektlarning yo'qligi nazoratga olinishi kerak. Aks xolda defektli buqalar nasl chorvachikka katta iqtisodiy zarar keltiradi. Keyingi vaqtda genetik anomaliya: BLAD (Boiline Leukocyte Adhesion Deficiency), leykotsitlar adgeziyasi va CVM (Complex Vertebral Malformatton) umirtqaning kompleks majruxligi. Ushbular retsessiv tipdagi irsiyatlikka ega, tseteroziylik holatida namoyon bo'ladi.

Tizim va oilalar bo`yicha urchitish

Naslchilik zavodi va naslchilik xo`jaliklarida tizim va oilalar bo`yicha urchitish muxim ahamiyatga ega.

Qoramolchilikda tizimlar bo`yicha urchitish birinchi bor XVIII asrning ikkinchi yarmida Angliyada R.Bekvel tomonidan langorn molida, shuningdek aka-uka Kolinglar va T.Betsonlar tomonidan shotgorn zotida qo`llanilgan.

Tizim-geneologik, zavod va qarindoshlik guruhlariga bo`linadi.

Gneologik tizim-qiymatli buqadan bir necha avlodlargacha olingan mollar ular faqat kelib chiqishi bo`yicha bir buqaga urug`doshlikda bo`ladi. Geneologik tizim ko`pincha **formal** deb yuritiladi.

Zavod tizimi-bu mashxur avlod boshchisidan tarqalgan, barchasiga xarakterli bo`lgan mahsuldorlik sifati va boshqa xususiyatlari bilan unga mos keladigan, tanlash va saralash asosida takomillashib boradigan hamda ushbu xususiyatlarini avlodga o`tkazish qobliyatiga ega bo`lgan mollar guruhidir. Ular mahsus naslchilik-selektsiya rejasi va tinimsiz takomillashtirish asosida shakllanadi.

Qarindoshlik guruhi-bu ayrim buqalar avlodi bo`lib, o`zining tipi va nasldorlik sifati bo`yicha ajralib turadi. Tegishli selektsiya ishlarini yo`naltirish bilan qarindoshlik guruhini zavod tizimiga ko`tarish mumkin.

Tizim ichida saralashda turli darajadagi inbridinglar qo`llaniladi. Eng maqbul o`rta me`yoriy (III-III, III-IV) inbriding hisoblanadi.

Xulosa

Qoramolchilik qishloq xo`jaligining eng muhim sohasi xisoblanadi. Shu bois qoramolchilikda nasilchilik ishini to`g`ri tashkil etish natijasida xalq talabidagi arzon va yuqori sifatli go`sht-sut maxsulotlarini ko`paytirish va nasilli qoramollar bosh sonini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Nosirov U.N., Qoramolchilik "O`zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2001.
- 2.To`raqulov Z.T., Abdirasulov A., Ibragimov Yu. "Qoramolchilikdan amaliy mashg`ulotlar" Samarqand, 1996.
3. Amirov Sh.Q. Qoramolchilik fanidan mustaqil ishlarni bajarishga oid uslubiy ko`rsatma. Samarqand , 2011.

QUYONLARNING GO'SHT MAHSULDORLIGI, GO'SHT TARKIBI VA TO'YIMLILIK QIYMATI

Ilmiy rahbar: Sarsenbayev Quwatbay

Bakalavr: Duysenbayeva Rayxan, Mamutova Sarbinaz

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

Annotatsiya: Ushbu maqolada quyonlarning parxezbop go'shtining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, quyon go'shtining tarkibi va to'yimlilik qiymati o'rganilib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Quyon go'shti, parxezbop go'sht, yog', oqsil, xolesterin, nimta, davlat standartlari, navlar, semizlik toifalari.

Insonlarning oziq-ovqat iste'molidagi go'shtning o'rni beqiyos va albatta ratsion tarkibida bo'lishi shart. Uni tarkibida organizm uchun zarur bo'lgan oqsillar, yog'lar, mineral moddalar shuningdek, A, D va B guruhidagi vitaminlar mavjud. Go'shtning oziqaviy qiymatini tarkibidagi to'laqiymatli oqsillar; globulin, albumin, miozin va boshqalar belgilaydi. Organizmda hazmlanish koeffitsienti 95 foizni tashkil etadi.

Quyon go'shti juda muloyim, xushtam chunki parranda go'shtiga nisbatan to'liq qiymatli oqsillarga boy. Shuning uchun yosh bolalarga, keksalarga, bemorlarga va xaddan ziyod semirgan kishilarga ham shifoli, parxez oziq-ovqat sifatida tavsiya etiladi.

Tarkibidagi oqsil jihatidan faqat kurka jo'jasi go'shtidan orqada qolishi mumkin. Quyon go'shtining tarkibidagi oqsil inson organizmi tomonidan 90 % o'zlashtiriladi. Bu ko'rsatkich qoramol go'shtida 62 % ni tashkil etadi. Quyon yog'i tez eruvchan, sifati bo'yicha qoramol, cho'chqa, qo'y go'shti yog'laridan ustunroq turadi.

Quyon go'shtida natriy moddasi parranda go'shti tarkibidagiga nisbatan 2,7 marta, buzoq go'shtidagidan esa 2,4 marta kam. Bu holat quyon go'shtida xolesterin moddasining kam to'planishini ta'minlab, shifobaxshligiga sabab bo'ladi.

Quyonlarning tirik vazniga nisbatan 70 % ni, qoramollarda esa 42-50 % ni muskul tolasi, suyak va tog'aylar esa quyonlarda 13-36 % ni, qoramollar nimtasida esa 18-30 % ni tashkil etadi.

Quyon bolalarini 70 kunligida tirik vazni 2 kg bo'lib, shu vaqtda ulardan broyler go'shti olinadi. Bunda go'shtining tarkibida 22 % gacha oqsil, 5 % gacha yog' bo'ladi.

Voyaga yetgan quyonlar go'shtida 19-21 % oqsillar, yog' esa semiligiga ko'ra 2-18 % gacha bo'lishi mumkin. Turli hayvonlarning 100 g yog'i va go'shtining tarkibidagi xolesterinning miqdori quyidagicha:

Qoramollarda 37-48 mg

Tovuqlarda	35-108 mg
Cho'chqalarda	74-126 mg
Buzoqlarda	38-83 mg
Quyondalarda	25 mg

Keyingi yillarda insonlarning sog'lom turmush tarzi va parhez oziq-ovqatlarga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Tarkibida oqsil miqdori ko'p, ammo yog' miqdori kam saqlaydigan oq rangli parranda go'shti iste'moli ommalasha boshladi. Lizin va triptofan kabi almashinmaydigan aminokislotalar quyong'oshti tarkibida eng ko'p miqdorda uchraydi. Quyong'oshti ham oq rangli go'sht toifasiga mansub bo'lib, kimyoviy tarkibi bo'yicha parranda go'shtiga o'xshash. Parranda va quyong'oshti o'rtasida parhezboqlik xususiyatlari bo'yicha farq borligini aniqlashgan.

Birinchidan quyong'oshti tarkibida natriy tuzlari parranda go'shtiga nisbatan kam miqdori uchraydi

Ikkinchidan organizmida go'shtning hazmlanish jarayonida cho'kma hosil qiladigan azot birikmalarini saqlamaydi.

Quyong'oshti boshqa turdagi hayvonlar go'shtiga nisbatan vitamin va minerallarga boy bo'ladi. O'rtacha 100 gramm quyong'oshtida 67 g suv, 21,2 g oqsil, 11,0 g yog', 0,8 g kul moddasi, 0,8 mg vitamin S, 0,79 mg vitamin E, 6,2 mg RR uchraydi. Quyong'oshtining sifati bo'yicha, simob (Hg), kadmiy (Cd), mishyak (As), qo'rg'oshin (Pb) kabi toksin xossali elementlar miqdori belgilangan me'yordan ancha kam, hazmlanishi qiyin bo'lgan yog' miqdorining ozligi, quyong'oshtining yosh bolalarni oziqlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Hozirgi kunda chorvachilik hayvonlarining go'shtiga bo'lgan talab kun sayin ortib borayotganini hisobga olsak quyong'oshti iste'molini ommalashtirish xalqqa quyong'oshti foydalari haqida kengroq tavsiyalar berish lozim va quyonchilikni ommalashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1Ballasov U., Mamatiminov Sh. Quyonchilik. O'quv qo'llanma. ToshDAU, tahririyati nashriyoti, 2016 yil.

2 Qo'ziyev I.A., Qo'chqorov A.X. Quyong'osht va nutriya go'sht mo'yna. O'quv qo'llanma. Toshkent, Dizayn-Press, 2013 yil.

3 Исмаилов М.Ш., Бозоров С.Р., Ибрагимов Б.Б. Куёнчилик Амалий қўлланма Самарқанд 2019. 148 б

4 Исмаилов М.Ш., Ибрагимов Б.Б., Ҳайдаров Э.И., Шокиров Л.Х. Фермер ва шахсий хўжаликларда куёнларни урчитиш, озиқлантириш ва сақлаш бўйича тавсиянома Самарқанда-2020 64 б

TURLI YOSHDAGI QORAKO'L QO'ZILARNING TIRIK VAZN VA EKSTERER KO'RSATKICHLARI

Sultonov Yusupbek Fayzullaevich - Q.x.f.b.f.d(PhD) v.v.b. dotsent
Amonov Rasul Chorshambi o'g'li - Mustaqil izlanuvchi (PhD),
Ja'hanbaev Timur Baxadur uli - bakalavr
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli yoshdagi qorako'l qozilarining tirik vazni va eksterer ko'rsatkichlari o'rganilgan hamda ju'n maqsuldorligini oshirish yo'llari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Qo'zilarning tug'ilgan davridagi tirik vazni, tirik vazn va uning dinamikasi, tirik vazn ko'rsatkichlari.

Qo'zilarning tug'ilgan davridagi tirik vazni bilan ulardan olinadigan teri sathi o'rtasida musbat korelatsion bog'liqlik bor. Tug'ilgan vaqtdagi tirik vazn qancha katta bo'lsa, olinadigan teri sathi ham shuncha keng bo'ladi. olinadigan terining sifatiga va bahosiga uning sath o'lchami ham bevosita ta'sir qiladi.

Shu nuqtai nazardan tajribadagi qo'ylardan olingan avlodlarda tirik vazn, eksterer o'lchamlari o'rganildi.

Tirik vazn va uning dinamikasi. Muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadigan ushbu ko'rsatkich qo'ylar muhsuldorligining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tirik vaznning talab darajasida yoki undan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq. Ushbu sharoitida barcha xususiyatlar maksimal namoyon bo'ladi. Qorako'l qo'ylari tirik vazn ko'rsatkichi bo'yicha uncha yirik emas, lekin ulardan olinadigan avlodlar tug'ilgan paytida onasining tirik vazniga nisbatan boshqa qo'y zotlariga qaraganda ko'proq salmoqni tashkil etadi (10-13%) va bu xususiyat ularning ekstremal cho'l sharoitida yuqori darajadagi chidamlilikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

1-jadval

Avlodlarning tug'ilgan vaqtidagi tirik vazni

Avlodlar	n	Tirik vazn, kg			
		Tug'ilganda, kg		Tug'ilganda, %	
		$X \pm S_x$		C_v	
		Kumushsimon	Olmos	Kumushsimon	Olmos
Yarimdoira qalamgul	50	3,9 ±0,04	4,0 ±0,05	10,05	13,3
Qovurg'asimon	35	4,0±0,03 ^x	3,9±0,007 ^x	10,7	9,77
Yassi	35	3,8±0,12 ^x	3,9±0,09	12,4	12,2
O'siq gul	25	4,1±0,01	4,2±0,06 ^x	11,6	15,5

X-P<0,05

Tadqiqotlarda turli guruh qo'ylardan olingan avlodlarning tug'ilgandagi tirik vazni gul tiplari bo'yicha urganildi. (1-jadval).

Ko'pchilik olib borilgan tadqiqotlarda boshqa gul tipidagi qorako'l qo'zilariga nisbatan yassi gul tipli qo'zilar tirik vaznining biroz pastligi bilan ajralib turishi aniqlangan.

Bajarilgan tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, tirik vazn o'siqgul tipidagi qo'zilarida boshqa gul tiplariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin ($4,1 \pm 0,01$; $4,2 \pm 0,06^x$). Rangbaranglik bo'yicha esa olmos rangbarangligida eng yuqori o'rtacha tirik vazn ($4,2 \pm 0,06^x$; 15,6%) qayd etilgan. Eng kichik tirik vazn ko'rsatkichi kumushsimon rangbarangligida uchrab, ($3,8 \pm 0,12^x$) olmos rang o'siq gul tipiga nisbatan 0,4 kg yoki 3,2 % past natija ko'rsatgan.

Tadqiqot davomida aniqlangan holatlarni tirik vazn ko'rsatkichlarini ma'lum darajada gul tipiga va ularning rangbaranglik xususiyatlariga bog'liq bo'lishi bilan izohlash mumkin.

XULOSALAR

1. Bajarilgan tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, tirik vazn o'siqgul tipidagi qo'zilarida boshqa gul tiplariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rish mumkin ($4,1 \pm 0,01$; $4,2 \pm 0,06^x$). Rangbaranglik bo'yicha esa olmos rangbarangligida eng yuqori o'rtacha tirik vazn ($4,2 \pm 0,06^x$; 15,6%) qayd etilgan. Eng kichik tirik vazn ko'rsatkichi kumushsimon rangbarangligida uchrab, ($3,8 \pm 0,12^x$) olmos rang o'siq gul tipiga nisbatan 0,4 kg yoki 3,2 % past natija ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turganbaev R.U., Nurabullaeva G. Qoraqalpoq "durdonasi". // Agro ilm. 2018 yil. №4. 56-57 betlar.

2. Turganbaev R.U. va boshqalar. Qoraqalpoq zot tipidagi sur rangli qorako'l qo'ylarining mahsuldorlik xususiyatlari. Chorvachilik va naslchilik ishi. 2018 yil. №1. 25-27 betlar.

3. Tursunov X. Sur qo'zilarida rangbaranglikning ifodalanishi va uni seleksiyalash xususiyatlari. Nomzodlik diss. avtoreferati, Tashkent, 2007 19b.

4. Usanov R. Qarnabcho'l sharoitida sur korako'l qo'ylarini urchitish. Cho'l-yaylov chorvachiligining ekologik asoslangan texnologiyalari. // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari. Samarqand. 2009 yil 20-21 avgust. 121-126 betlar.

5. Usmonkulova Z., Hakimov U. Jun qoplami-ko'ylarning ximoya vositasi. // Cho'l chorvachiligi va ekologiyasining dolzarb muammolari mavzusidagi yosh olim va mutaxassislarining ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2001, 20-23 betlar.

6. Xasilbekov A.Ya., To'xtarov R.M., Qodirov F. Junga birlamchi ishlov berish va toza jun tayyorlash. // Zooveterinariya. 2015 yil. №12. 31-32 b.

UO`K:636.2.033.636.2.034

SUT YO`NALISHIDAGI QORAMOLLARNING BUQACHALARIDAN GO`SHT ISHLAB CHIQRISHDA OZIQLANTIRISHNING AHAMYATI*Ilmiy rahbar: Amonov Rasul Chorshambi o`g`li,**Bakalavr: Ja`nabaev Timur Baxadir uli**Bakalavr: Xojametova Dilfuza Berdibek qızı**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sut yo`nalishidagi qoramol zotlarining buqachalarini oziqlantirishi, o`sis va ulg`ayishini hisoblash va me`yorlash tuyimli moddalar bilan taminlash, yog`i olingan va yog`i olinmagan sutlarning buzoqlarga tasiri, buzoqlarning usishi va rivojlanishi uchun sariflanayotgan oziqalarning tasnifi va bir kunlik vazn olganligi o`rganilgan.

Kalit so`zlar: Ratsionlar tarkibida quruq modda, qoramollar, ratsionlar, buqachalar, oziqlantirish, ozuqalarning is`temol darajasi.

Kirish. Chorvachilik tarmog`ini jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli go`sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlash, ayniqsa, qishloq joylarida istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko`paytirishda muhim o`rin tutadi. Ichki iste`mol bozorida go`sht, sut, tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta`minlash, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik ozuqa bazasini kengaytirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko`paytirish bo`yicha ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo`mitasi bilan birgalikda 2022-2023-yillarda har bir tumanda kamida 1 tadan go`sht va sut mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholi xonadonlariga kooperatsiya usulida chorva mollari yetkazib berishni va yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash va sotishni tashkil etish gi qarorlarning ijrosini ta`minlash ishlab chiqaruvchilar bilan bir vaqtda Oliy ta`lim muassasalarida tayyorlanayotgan yosh mutaxassislarning oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. Shunday ekan sut yo`nalishidagi qoramol zotlaridan jadal foydalanishni joriy etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo`lib hisoblanadi.

Tatqiqot maqsadi. Xo`jalikda yetishtirilgan ozuqalardan foydalanib sut yunalishidagi turli zodga mansub qora-ola, simental, golishten qoramollarning buqachalaridan go`sht ishlab chiqarishda oziqlantirishning tasirini o`rganish tatqiqot maqsadi sifatida tanlandi.

Tatqiqot manbai va usullari. Tatqiqotlar Qoraqolpog`iston Respublikasi Shimboy tumani "CHIMBOY SARIMSAQ" fermer xo`jaligida hamda Ho`jayli tumanidagi "G`OFUR G`ULOM" fermer xo`jaligida Qora-ola, golishtin, simental zotlariga mansub qoramollarda olib borildi

Tajribadagi hayvonlarni ratsioniga kiritilgan sut, obrat, ko`k ozuqalar, beda pichani, makkajo`xori silosi, senaj xo`jalikni o`zida yetishtirilgan.

Yozgi ratsion tarkibida asosan ko‘k ozuqalar kiritilgan bo‘lsa, qishki ratsionlarga asosan makkajo‘xori silosi, senaj, beda pichani, somon kiritilgan. Tajribaning barcha davrlarida va yilning fasllarida hayvonlarga kuchli ozuqalar berilgan. Tajriba davrida hayvonlarga berilgan ozuqalar tarkibi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Tatqiqotning natijalari.Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, buzoqlarga berilgan sut va obrat miqdori bir xil bo‘lgan. Ammo boshqa turdagi ozuqalarning is’temol darajasi bo‘yicha farq kuzatilgan. Xususan, II, III guruhdagi buqachalar o‘z tengqurlari, I guruhga nisbatan tegishli: 2677,0 kg yoki 25.9 %, yashil beda ko‘p iste’mol qilishgan. Makkajo‘xori silosi, I guruhdagi o‘z tengqurlari, II guruhga nisbatan shunga mutunosib ravishda: 148,0 kg yoki 5%; xuddi shuningdek senaj miqdori ham 61,0 kg yoki 4,06%; III guruhdagiga nisbatan shunga mutunosib ravishda: 90,0 kg yoki 3.1%; xuddi shuningdek senaj miqdori ham 61,0 kg yoki 4,06%; ziyod bo‘lgan.

1-jadval

Tajribadagi hayvonlarga jami sarflangan yem-hashak miqdori (har bir boshga o‘rtacha), kg.

Oziqa turi	Guruhlar					
	I		II		III	
	Oziqa miqdori	Oziqa birligi	Oziqa miqdori	Oziqa birligi	Oziqa miqdori	Oziqa birligi
Yog‘i olinmagan sut	100	30,0	100	30,0	100	30,0
Yog‘i olingan sut	120	15,6	120	15,6	120	15,6
Beda o‘ti (gullash davri)	7582	1592	10259	2154	10259	2154
Makkajo‘xori silosi	2961	592,2	2813	562,6	2871	574,2
Senaj	1501	435,2	1440	417,6	1428	414,1
Hashaki lavlagi	750	90,0	764	91,7	764	91,7
Beda pichani	854	375,8	867	381,4	867	381,4
Bug‘doy somoni	210	46,2	231	50,8	231	50,8
Paxta sheluxasi	176	63,4	198	71,3	198	71,3
Omixta yem	1158	1030,6	1164	1035,9	1164	1035,9
Iste’mol qilingan ozuqalarning to‘yimligi, ozuqa birligi	15412	4437,1	17956	5000,2	18002	4819
Quruq modda, kg	5280,1		6819,8		5280,1	
Hazmlanuvchi protein, kg	572,39		739,29		572,39	
Almashunuvchi energiya, MDj	53866,4		69573,1		53866,4	

Shuni ta’kidlash lozimki, yosh qoramollarni bo‘rdoqilayotganda tuzilgan ratsionlar tarkibida quruq modda me’yor darajasida bo‘lish kerak. Chunki, hayvonni quruq modda energiya va to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabini qondirishda katta rol o‘ynaydi. Bizning tajribamizda ratsionlardagi quruq modda miqdori simmental zotiga mansub bo‘lgan hayvonlarda yuqori bo‘lgan. Xususan, II - guruxdagi simmental zotiga mansub buqachalar tajriba davomida is’temol qilgan ozuqalarning tarkibidagi quruq modda 6819,8 kgga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha ular o‘z tengqurlaridan, I

guruhdagi qora-ola buqachalardan mutanosib ravishda: 1539,7kg yoki 29,2%, ustun bo'lgan.

Qoramollarning irsiyatdagi sut va go'sht maxsuldorligi faqat ma'qul tashqi muhit sharoitlari ularni o'stirish va foydalanish davomida yaratib berilgandagina ro'yobga chiqadi. Hayvonlarda tug'ilgandan so'ng yuqori mahsuldorlik va sifatlarni shakllantirish hayvonlarning ona qornida va tug'ilgandan keyingi rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysinadi. Sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qoramolchilik fermer xo'jaliklarida zamon talabi asosida aholini oziq ovqat mahsulotlari bilan taminlash maqsadida sifatli go'sht ishlab chiqarishni jadallashtirish zarur. Fermer xo'jaligida tajriba uchun I-guruhga 1 tipli oziqlantirishdagi Golshtin zotli buqachalar olingan bo'lib, II-guruhga fasllar kesimida mavsumiy oziqlantirilgan Golshtin zotli buqachalar olingan. Ikkala guruhga ham buqachalardan n=10 boshdan tanlab olindi.

Xulosa

Hozirgi vaqtda duno aholisining soni ortib borishi sababli sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qoramolchilik fermer xo'jaliklarida zamon talabi asosida aholini oziq ovqat mahsulotlari bilan taminlash maqsadida sifatli go'sht ishlab chiqarishni jadallashtirish zarur. Bu mavzu songida xulosa qilib chuni aytish mumkinki mollarni semirtirishda belgilangan racion asosida oziqlantirish juda yaxshi natijaga beradi. Nafaqat mollarni balki boshqa chorvachilik hayvonlarini yaxshi tuzilgan racion ososida oziqlantirilsa albatta kozlangan natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мысик А.Т. Современные тенденции развития животноводства в странах мира. // Зоотехния. Москва, 2010. -№1. -S. 2-8.
2. Fonge, J. Holstein-Dairy Fanner, 1972, 19,4:22-23.170, Franz H., Droese A« Grundlagen und Zielstellung zur einbe-ziehung der Milcheiweissleistung in das Zuchtprogramm. -Tierzucht, 1972, N 7.
3. T. Q. Nao'rinov, K. M. Allamberganov. "Buqachalarda go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari. Ilmiy-amaliy maqola. "CHORVACHILIK VA NASLCHILIK ISHI" Ilmiy-amaliy jurnal.ISSN-2184-9459 15-17b
4. Akbarova. M va boshqalar. Har xil zotga mansub buqachalarning o'sish va rivojlanish bosqichlari. Ilmiy-amaliy maqola. "CHORVACHILIK VA NASLCHILIK "jurnal.#1(12)2020 18-20b.
5. O. Mamatqulov, Sh. Mamtaliyev va O. Rizayevlar. "O'z naslchilik" davlat korxonasida angler zotli naslli buqachalar va ularning nasldorlik ko'rsatkichlari. Ilmiy-amaliy maqola.

TURLI ZOTGA MANSUB SIGIrlARNING O'SISH VA RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH

*Ilmiy rahbar: Amonov Rasul Chorshambi o'g'li,
bakalavr Ja'ababayev Timur Baxadir uli,
bakalavr Saparbaev Quwanish Elburus uli.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sigirlarning o'sishi va rivojlanish ko'rsatkichlari tirik vazni ko'rsatkichlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: tirik vazn, qoramollar, sut, go'sht mahsuldorligi rivojlanish, o'sish, genotip, o'sish dinamikasi

Ma'lumki, hayvonlarni turi, zoti, jinsi, yoshi va mahsuldorlik yo'nalishidan qat'iy nazar tirik vazni muhim va asosiy seleksion belgisi bo'lib hisoblanadi va hayvonlarni rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. Sigirlarning tirik vazni to'g'risida ham xuddi shu fikrlarni aytish mumkin. Sigirlarning tirik vazni, ularning irsiyatiga, oziqaning to'yimlilik ko'rsatkichlariga, asrash sharoitiga, ekologik xolatiga tabiiy-iqlimga va boshqa bir qator omillarga bog'liq bo'ladi.

Legoshin G.P. va boshqalar (2002), Proxorenko P., Amerxanov X. larning (2002) va M.E.Ashirovlarning (2017) ta'kidlashlaricha sigirlarning maqbul tirik vaznini aniqlash u yoki bu zotni takomillashtirishda yuqori genetik salohiyatga ega bo'lgan yuqori mahsuldor podalarni shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek podalarni takomillashtirishda jahon genofondiga xos bo'lgan zotlarni naslli buqalaridan samarali ravishda chatishtirish ishlarida foydalanishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham biz o'z tadqiqotlarimizda turli psixo-etologik tiplarga mansub bo'lgan golshtin va qora-ola zotli sigirlarni sun'iy urug'lantirishdan oldin, sigirlar tuqqanidan keyin va laktatsiyaning 3-oyligida tirik vaznini aniqladik va olingan natijalarni quyidagi 1-jadvalda keltirdik.

1-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning tirik vazni (n=10)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar			
	I		II	
	X±S _x	C _v ,%	X±S _x	C _v ,%
Sun'iy urug'lantirishdan oldingi tirik vazn, kg	477,9±3,9	7,1	462,0±4,9	6,1
Tuqqandan keyingi tirik vazn, kg	472,4±4,1	6,9	461,3±5,4	5,9
Laktatsiyaning 3-oyligidagi tirik vazni, kg	497,7±5,9	6,4	477,0±3,9	6,7

1-jadval ma'lumotlarining tahlili shundan dalolat berganki, psixo-etologik tiplar kesimida sigirlarning tirik vazni bir xil bo'lmagan.

Xususan sun'iy urug'lantirishdan oldingi tirik vazn faol psixo-etologik tipiga mansub bo'lgan sigirlarda 462 kg ga teng bo'lib, o'z tengqurlari I tajriba guruhidagi o'ta faol psixo-etologik tipiga mansub bo'lgan sigirlardan 15,9 kg yoki 3,4 foiz ortda qolgan. Bu farq tuqqandan keyingi tirik vazn bo'yicha va laktatsiyaning 3 oylik tirik vazni bo'yicha I guruhdagi o'ta faol psixo-etologik tipiga mansub bo'lgan sigirlar foydasiga shunga mutanosib ravishda: 11,1 kg yoki 2,4 foiz va 20,7 kg yoki 4,3 foizni tashkil qilgan.

Umuman olganda tajriba guruhlaridagi sigirlarning tirik vazni bo'yicha psixo-etologik tiplari kesimida sezilarli darajada farq kuzatilmagan.

Xulosa

Turli zotga ega bolgan sigirlarning o'sishi va rivojlanishini baholaganda asoson ularning fiziologik holatiga, etologiyasiga hamda qaysi zotga mansub ekanliga katta etibor berish lozim. Xulosa qilib shuni aytish mumkin sigirlarning o'sish va rivojlanishi ularni asrash sharoitiga va yaxshi oziqlanishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кахаров А. Эффективность использования пород крупного рогатого скота разного направления продуктивности и их помесей для производства говядины в условиях Юга Узбекистана. Автореф. Дисс. докт. с.-х. наук. Ташкент. 1994. 50 с.

2. Каримов Ш.А. Продуктивные и некоторые биологические особенности швицкой и черно-пестрой пород крупного рогатого скота в условиях фермерских хозяйств. Автореф. Дисс. Канд. с.-х. наук. Ташкент. 2007. 21 с.

3. Калашников А.П. Нормы и рационы кормления сельскохозяйственных животных. Москва «Агропромиздат» 1985, 51 с.

4. Лещук Г.П. Задачи племенной работы в качественном преобразовании молочного скота Зауралья. Ж. «Зоотехния», 2006, №10, с. 2-3

5. Nosirov U.N. Qoramolchilik. Toshkent. 2001. 383 b.

6. Nosirov U.N., Shakirov Q. O'zbekiston sharoitida golshtin va flegfix simmental zotlarining iqlimga moslashish, nasldorlik va mahsuldorlik sifatlarini takomillashtirish. Avtoref. diss. s.-x. nauk. Tashkent. 2015. 34 s.

OVQAT HAZM QILISH SISTEMASI ORGANLARINING TUZILISHI VA FUNKSIYASI

*Toshkent davlat stomatologiya instituti
104B stomatologiya fakulteti talabalari:*

Saidakbarov Saida'lo Saidazim o'g'li

Qarshiboyeva Madina Murod qizi

Xolmaxamatova Kamola Abdumannob qizi


Anatomiya Kafedrası ilmiy rahbari:

Xalilov Sanjar Abduvohid o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqola ovqat hazm qilish sistemasi, hazm qilish organlarining tuzulishi, funksiyasi, uning taraqqiyoti haqida umumiy tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: Ovqat hazm qilish sistemasi, ovqat haz qilish organlari, taraqqiyoti, hazm qilish a'zolarining devori, og'iz bo'shlig'i, tanglay, tishlar, til, so'lak bezlari, halqum, qizilo'ngach, oshqozon, ichak.

Kirish: Hazm a'zolari ovqat moddasini mexanik maydalash, kimyoviy moddalar ta'sirida parchalash, qonga yoki limfaga so'rilishini ta'minlash, chiqindi moddalarni tashqi muhitga chiqarish kabi vazifalarni bajaradi. Hazm tizimining ko'pchilik qismi devori ikki qavatli nayni eslatadi. Ichki nay a'zolarining shilliq qavatidan hosil bo'lsa, tashqi nay mushak va seroz pardadan hosil bo'ladi. Bu ikki nay orasida biriktiruvchi to'qimadan iborat, qon tomirlarga boy bo'lgan shilliq osti qavati joylashgan. Bu ikki nay, nisbatan harakat qilish xususiyatiga ega. Shilliq osti qavat to'qimalari va mushak tolalari burama shaklida joylashganligidan harakat, og'iz bo'shlig'i sohasidan, to'g'ri ichak tarafiga bo'ladi. Ko'pgina hazm qilish a'zolarining devori to'rt qavatdan tashkil topadi: 1) ichki — shilliq qavat; 2) shilliq osti qavati; 3) mushak qavati; 4) tashqi — seroz parda qavati. A'zo devoridagi har bir qavat hosilaning qalinligi, shu a'zoning vazifasiga bog'liq bo'ladi. Ba'zi a'zoda mushak qavati yaxshi taraqqiy etgan bo'lsa (me'da), boshqa a'zolarida shilliq qavat rivojlangan (ingichka ichak) bo'ladi. Ovqat hazm qilish organlariga og'iz bo'shlig'i, halqum, qizilo'ngach, oshqozon, ingichka ichak, to'g'ri ichak hamda yo'g'on ichak kiradi.



Ovqat hazm qilish a'zolarining taraqqiyoti: Hazm a'zolari tizimining ko'pchilik a'zolari ichki embrional parda — entodermadan taraqqiy qiladi. Og'iz bo'shlig'i va to'g'ri ichakning ostki qismlari esa tashqi embrional parda — ektodermadan taraqqiy qiladi. Ichak nayi devorining mushak va seroz qavatlari mezenxima to'qimasidan rivojlanadi.

Og'iz bo'shlig'i tashqi muhit bilan og'iz tirqishi rima oris vositasida aloqa qiladi. Og'iz bo'shlig'i cavitas oris (grekcha stoma — og'iz) ikki qismdan tashkil topgan: og'iz dahlizi — vestibulum oris, hamda og'izning xususiy bo'shlig'i cavitas oris propria. Bu ikki bo'lim orasidagi chegara yuqorigi va pastki tish qatorlaridan tashkil topadi. Og'iz dahlizining oldingi devorini lablar labia oris tashkil etib, yuqori va pastki lablarning og'iz tirqishi burchagidagi birlashuvi natijasida commissurae labiorum hosil bo'ladi. Lablar og'iz halqasimon mushak tolalaridan hosil bo'lib, tashqi yuzasi teri, ichki yuzasi esa shilliq qavat bilan qoplangan bo'ladi. Og'iz dahlizining orqa devori tishlar va milklardan (gingiva) hosil bo'ladi. Yuqori lablar ichki tarafda milk va yuqori lab yuganchasi — frenulum labii superioris vositasida birlashadi; pastki lab esa ichki tarafda milk bilan va pastki lab yuganchasi — frenulum labii inferiores vositasida birlashadi. Og'iz dahlizinin tashqi yon devorlarini Iunj - buccae tashkil etadi. Iunj — buccae va Iunj mushagi — m. buccinator tashqi tarafdin teri va

ichki tarafdin shilliq qavat bilan qoplangan. Og'izning xususiy bo'shlig'i — *cavitas oris propria* ning yuqori devorini qattiq va yumshoq tanglay hosil etadi. Bu bo'shliqning tubi esa og'iz diafragmasi — *diaphragma oris* deb atalib til bilan to'lib turadi. Til ostida til yuganchasi — *frenulum linguae* bolib, uning ikki tarafida til osti so'rg'ichlari — *caruncula sublingualis* joylashgan. Bu so'rg'ich yuzasiga jag' osti va til osti soiak bezlarining naylari ochiladi. *Diaphragma oris* — juft m. *mylohyoideus* lardan hosil boladi va uning ustida til joylashadi.

Tanglay — *palatum*, ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, oldingi sohada qattiq tanglay — *palatum osseum seu palatum durum* va orqa sohada yumshoq tanglay — *palatum molle* bo'ladi. Qattiq tanglay yuqori jag' suyagining tanglay o'simtsi hamda tanglay suyagining gorizontall qismi hisobiga hosil bo'ladi. Qattiq tanglayning o'rta qismida tanglay choki — *raphe palatinae* va oldingi sohada esa ko'ndalang burmalar - *plicae palatinae transversa* bo'ladi. Yumshoq tanglay — *palatum molle* orqa sohada erkin holda, chodir singari osilib turadi va *velum palatinum* deb ataladi. Yumshoq tanglay chodirining ikki yon tarafida yo'ylar bo'lib, tanglaydan til ildiziga — *arcus palatoglossus* hamda halqum devoriga - *arcus palatopharyngeus* yo'naladi. Bu yo'ylar orasidagi bo'shliqda tanglay murtagi — *tonsilla palatina* joylashgan. Yumshoq tanglayning asosi serbar biriktiruvchi to'qimadan — *aponeurosis palatina* va mushaklardan tashkil topgan.

Tishlar (*dentes*) vaqtincha yoki sut tishlariga — *dentes decidui* va doimiy tishlar *dentes permanentes* ga bo'linadi. Tishlar tuzilishiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi: 1) *dens incisivus* - kesuv (kurak) tish; 2) *dens caninus* — qoziq tish; 3) *dens premolaris* — kichik oziq tish; 4) *dens molaris* katta oziq tish. 3- katta oziq tish *dens molaris tertius* kechroq chiqqanligi uchun „aql“ tish *dens serotinus* deyiladi. Tishlarning quyidagi qismlari bo'ladi: 1) toj qismi *corona dentis*; 2) bo'yin qismi *collum dentis*; 3) ildiz qismi *radix dentis*.

Til — *lingua* (grekcha — *glossa*) — ko'ndalang targ'il mushaklardan tashkil topgan a'zo. Tilning o'rta qismida — tanasi — *corpus linguae*, oldingi sohada — uchi — *apex* hamda orqa sohada ildiz qismi — *radix linguae* joylashgan. Til tanasi hamda va ildiz chegarasida chuqurcha bo'lib, ko'r teshik — *foramen cecum linguae* deb ataladi. Bu chuqurchadan yon tarafga egat - *sulcus terminalis* yo'naladi.

So'lak bezlari og'iz bo'shlig'iga ochilib, chiqaruv nayiga ega bo'lgan katta so'lak bezlariga — *glandula parotoidea*, *glandula sublingualis*, *glandula submandibularis* va chiqaruv nayi bo'lmagan mayda so'lak bezlariga bo'linadi. Mayda so'lak bezlari lab yuzasida — *glandulae labiales*; Iunj sohasida — *glandulae buccales*; tanglay yuzasida — *glandulae palatinae*; til yuzasida — *glandulae linguales* joylashadi va o'zi joylashgan yuzaga, 74- rasm. So'lak bezlari. katta so'lak bezlari esa nay vositasida 1 *arcus supraciliaris*; 2 — *glandula Qgiz* bo'shlig'iga ochiladi.

Halqum — pharynx hazm va nafas a'zolarining o'zaro kesishgan qismi hisoblanadi. Halqum kalla suyagi asosidan boshlanib VI-YII bo'yin umurtqalarigacha davom etadi. Halqum og'iz bo'shlig'i va hiqildoqlaming orasida joylashadi. Shu sababdan halqumni uch qismga bo'lishimiz mumkin: burun qismi pars nasalis; og'iz qismi — pars oralis; hiqildoq qismi — pars laryngea. Halqumning kalla asosiga to'g'ri kelgan qismiga halqum gumbazi fornix pharyngis deyiladi. Halqumning burun qismi — kalla asosi bilan yumshoq tanglay sohasi orasida joylashgan. Halqumning bu qismiga burun bo'shlig'ining davomi hisoblangan xonalar ochiladi. O'rta quloq bo'shlig'idan boshlanadigan tubae auditivae — eshituv nayi yoki Yevstaxiy nayi ham halqumning burun qismi sohasiga ochiladi va bu teshikka ostium pharyngeum tubae deyiladi. Bu teshik atrofidagi shilliq qavatda limfo— epitelial to'qimalar yig'ilgan bo'lib, nay murtagi — tonsilla tubaria deyiladi. Shunday murtak halqum gumbazi sohasidagi shilliq qavatda ham uchraydi va halqum murtagi — tonsilla pharyngea deyiladi

Qizilo'ngach— esophagus halqumning davomi bo'lib, me'dagacha davom etadi. Joylashish sohasi VI bo'yin umurtqa sohasidan XI ko'krak umurtqa sohasigaeva davom etib, o'rtacha 23-25 sm bo'ladi. Uning bo'yin qismi — partes cervicalis, ko'krak qismi — partes thoracica va qorin qismi — partes abdominalis bo'ladi. Bo'yin qismi — bo'yin umurtqalari sohasiga to'g'ri keladi. Ko'krak qismi diafragma gacha davom etib, diafragma ostida qorin qismi joylashadi.

Me'da — ventriculus seu gaster qorin bo'shlig'ining yuqori qavatidagi a'zo bo'lib, ko'p qismi chap sohada joylashadi. Me'dada oldingi devori — paries anterior va orqa devori paries posterior bo'ladi. Me'daning qizilo'ngach bilan tutashish sohasi pars cardiaca deyilib, qizilo'ngachning me'daga o'tish teshigi — ostium cardiacum deyiladi. Me'daning 12 barmoq ichakka o'tish sohasini — pars pylorica. shu sohadagi teshik esa — ostium pyloricum deyiladi. Me'daning chap tarafga yo'nalgan, gumbaz shaklidagi qismi, me'daning tubi — fundus yoki gumbazi — fornix deyiladi. Me'daning gumbaz qismidan uning chiqish sohasigacha bo'lgan qismi me'daning tanasi — corpus ventriculi deyiladi. Me'daning pars pylorica qismining tanaga yaqin sohasi kengayib— antrum pyloricum va o'n ikki barmoq ichakka davom etadigan qismiga — canalis pyloricus deyiladi. Me'daning yuqori va o'ng tarafidagi kichik egriligiga — curvatura ventriculi minor, qavariq holdagi pastga va o'ng tarafga yo'nalgan katta egriligiga — curvatura ventriculi major deyiladi. Me'da devori 4 qavatdan iborat. 1.Ichki yuzasidagi shilliq qavat — tunica mucosa burmalar plica gastricae ni hosil qiladi. Me'da shirasi — saccus gastricus ni ishlab chiqadigan bezlar ham shilliq qavatda joylashadi. 2.Shilliq qavat ostida — tela submucosa qavati joylashganidan, me'da ichki yuzasida burmalar hosil bo'ladi. Kichik egrilik sohasida bu burmalar bo'ylama bo'lib, mushak qavati qisqarishi natijasida „me'da yo'li" - canalis gastricus hosil bo'ladi. 3.Mushak qavat — tunica muscularis shilliq

mushaklardan tashkil topadi va uch qavat bo'lib joylashadi. Tashqi qavatda bo'ylama — stratum longitudinale tutamlari; o'rta qavatda — halqasimon — stratum circulare tutamlari; ichki yuza sohasida esa qiyshiq tutamlar — fibrae obliquae joylashadi. 4. Tashqi qavat — tunica serosa qorin pardaning visseral varag'i bo'lib hisoblanadi. Bu parda jigar va me'daning kichik egriligi orasida Hg. hepatogastricum boylamini, me'da bilan taloq orasida Hg. gastrolienale boylamini, me'da bilan ko'ndalang chambar ichak orasida esa lig. gastrocolicum boylamini hosil qiladi.

Ingichka ichak — me'daning chiqish qismidan boshlanib, o'ng yonbosh sohasidagi yo'g'on ichakning boshlanish qismida yakunlanadi. Ingichka ichakda moddalarning kimyoviy shira ta'sirida parchalanishi davom etadi va so'riladi. Ingichka ichakning asosiy vazifasi parchalangan oziqa moddalarni qonga va limfaga so'rilishini ta'minlashdan iborat.

Yo'g'on ichak — intestinum crassum ingichka ichakning davomi hisoblanadi va quyidagi qismlardan tashkil topadi: 1) ko'richak qismi - caecum; 2) ko'tariluvchi qismi — colon ascendens; 3) ko'ndalang qismi — colon transversum; 4) tushuvchi qismi — colon descendens; 5) S-simon qismi — colon sigmoideum; 6) to'g'ri ichak — rectum.

To'g'ri ichak — rectum yo'g'on ichakning oxirgi bo'limi bo'lib tashqi chiqaruv teshigi — anus bilan yakunlanadi. Bu sohada halqasimon m ushak tolalari qalinlashib m. sphincter ani internus — ichki siquvchi mushakni hosil qiladi. Teri ostida, chiqish teshigi sohasida esa ko'ndalang — targ'il mushak tolalaridan tashkil topgan — m. sphincter ani externus joylashgan.

Xulosa: Ovqat hazm qilish sistemasini xulosalashning ahamiyati yuqorida ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Ovqat hazm qilish jarayoni qisqa vaqt davomida sodda qilib ko'rsatilmasa, bu muhim va ahamiyatli jarayon. Ovqat hazm qilishning bir qatori organlari — masalan, og'iz, qorin va ichakdagi kimyoviy va fizik jarayonlari — salbiy o'zgarishlar bilan ta'sir topgan bo'lsa, bu jarayonning normal yoki abnormal bo'lishini aniqlash uchun muhimdir. Ovqat hazm qilish sistemasi odatda qanday ishlashi, ovqatning digestiya, assimilyatsiya va energiya ta'minlash usullarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonni tushuntirish, inson ozi uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.khanacademy.org/science/high-school-biology/hs-human-body-systems/hs-the-digestive-and-excretory-systems/a/hs-the-digestive-and-excretory-systems-review>
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/anatomiya/ovqat-hazm-qilish-a-zolarining-tuzilishi>
3. Odam anatomiyasi: F.N. Bahodirov 159-186 betlar
4. Atlas 1: N.K.Ahmedov (2005-y)

BOSH MIYA TUZULISHI VA FUNKSIYALARI

*Toshkent davlat stomatologiya instituti
104B stomatologiya fakulteti talabalari:*

Mirsultonov Shoxruh Mirg'ani o'g'li

Zokirova Gavhar Hasan qizi

Abdusattorova Maftunaxon Abdusamadovna

Anatomiya Kafedrasi ilmiy rahbari:


Xalilov Sanjar Abduvohid o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqola markaziy nerv sistemasi, bosh miya tuzulishi, uning qismlar va funksiyalari haqida umumiy tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: Markaziy nerv sistemasi, bosh miya, rombsimon miya, miyacha, uzunchoq miya, oraliq miya, miya ko'prigi, o'rta miya

Kirish: Bosh miya (encephalon) uni o'rgan pardalari bilan birga kallaning miya qismi ichida joylashgan. Uning ustki yon yuzasi kalla qopqog'i ichki yuzasiga mos ravishda gumbaz hosil qiladi. Pastki yuzasi kallaning ichki asosidagi chuqurchalarga mos murakkab relefga ega. Bosh miyaning og'irligi katta odamlarda 1100 dan 2000 gramgacha, o'rtacha: erkaklarda 1394 , ayollarida 1245 g. Bosh miya uch yirik qismdan: katta miya yarimsharlari, miyacha va miya so'g'onidan iborat.

Bosh miya — encephalon quyidagi bo'limlarga bo'linadi: 1) rombsimon miya — rhombencephalon. O'z navbatida rombsimon miya ikki qismdan iborat: a) myelencephalon — uning tarkibiga uzunchoq miya — medulla oblongata kiradi. b) metencephalon — uning tarkibiga ko'priq — pons va miyacha — cerebellum kiradi. 2) o'rta miya — mesencephalon. 3) oldingi miya — prosencephalon. O'z navbatida oldingi miya ikki qismdan iborat: a) diencephalon — oraliq miya; b) telencephalon — oxirgi miya. Bosh miya tarkibida uning so'g'oni — truncus encephali bo'lib, bu hosila tarkibini quyidagilar tashkil etadi. a) medulla oblongata — uzunchoq miya; b) pons — ko'priq; d) mesencephalon — o'rta miya. Odamning aqliy faoliyati bosh miya katta yarimsharlarning po'stloq qismida joylashgan nerv hujayralarining murakkab fiziologik, biokimyoviy va biofizik xususiyatlariga bog'liq. Shuningdek, odam aqliy faoliyatining rivojlanishi uning yoshlikdan tarbiyasi, bilim olishi, mashq qilishiga bog'liq.



Rombsimon miya pufagi o'z navbatida ikkiga ajraladi: a) myelencephalon — uzunchoq miya — medulla oblongata; b) metencephalon Voroliy ko'prigi — pons va miyacha — serebellum taraqqiy etadi. Rombsimon miya bo'shlig'i IV qorincha — ventriculus quartus ni tashkil etadi.

Uzunchoq miya — medulla oblongata orqa miyaning davomi hisoblanadi. Uning yuqori chegarasi ko'prik bilan tutashsa, pastki chegarasi ensa suyagining katta teshigiga yoki birinchi juft orqa miya nervining chiqish sohasiga to'g'ri keladi. Uzunchoq miyaning oldingi yuzasida, orqa miyada uchragan fissura mediana anterior — oldingi o'rta tirqish ko'rinadi. Bu tirqishning ikki yon tarafida harakat o'tkazuv yo'llarining tutamlaridan tashkil topgan piramida dastasi — pyramis medullae oblongatae joylashadi. Uzunchoq miyaning oldingi lateral egatidan til osti nervi (XII juft) tutamlari chiqadi. Orqa yon egatlar olivalarning orqasida joylashgan bo'lib, til halqum nervi (IX juft), adashgan nerv (X juft), qo'shimcha nerv (XI juft) tolalari chiqadi. Uzunchoq miyada muvozanatni saqlovchi o'zaklar, nafas hamda yurakning ish va qon aylanish faoliyatini boshqaruvchi markazlar joylashadi. Uzunchoq miya ichida muvozanatning oraliq markazi bo'lgan nucleus olivaris, IX-XIT 312 juft bosh miya nervlarining o'zaklari, nafas va qon aylanish markazlari, to'rsimon holda joylashgan nerv hujayralari - formatio reticularis to'plami uchraydi.

Miya ko'prigining pastki sohasi uzunchoq miya bilan birlashib, yuqoridan miya oyoqchalariga davom etadi. Yon tarafdin esa miyachaning o'rta oyoqchalari pedunculus cerebellaris medius vositasida ko'prik miyacha bilan tutashadi. Ko'prikning oldingi yuzasidan qon tomir joylashadigan egat — sulcus basilaris yo'naladi. Uning orqa yuzasi rombsimon chuqurchani tashkil qilishda qatnashib. IV qorincha bo'shlig'iga qaragan bo'ladi. Ko'prikning oq moddasini tashkil etishda, uzunchoq miyada ko'ringan harakat va sezuv o'tkazuv yo'llari qatnashadi. Ko'prik ichida Y-YIII juft bosh miya nervlarining o'zaklari joylashadi. Uzunchoq miyada

ko'ringan to'r farmatsiyasini tashkil etadigan hujayralar ko'prik sohasida ham joylashadi va formatio reticularis pontis deb ataladi.

Serebellum ([lat.](#) serebellum) - lat. orqa miya bo'limi. pons), sathida joylashgan, lekin ko'prik orqasida. Ushbu joylashuv miyaning to'rtinchi qorincha tomi sifatida serebellumning anatomik funksiyasini belgilaydi. Telencephalon yarim sharlari bilan bog'liq holda , serebellum darhol telensefaloning oksipital va temporal loblari ostida joylashgan . U bu loblardan tentorium serebellum, dura materning zich qatlami bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilar serebellumning telensefalonga o'xshashligini ta'kidladilar, ammo kichikroq hajmda, bu "kichik miya" bo'limi nomida aks ettirilgan. Telencefalonga o'xshab, serebellum bir-biriga tor median qismi (chuvalchang, [lat.](#) vermis) bilan bog'langan ikkita yarim sharga ega . Ichki tuzilishi jihatidan serebellum, shuningdek, kulrang moddadan iborat korteksning tashqi joylashishi va faol markazlar (yadrolar) mavjudligi bilan oq moddaning ichki joylashishi bilan telensefaloning yarim sharlariga o'xshaydi. Yarim sharlardan farqli o'laroq, korteks va oq materiyaning tuzilishi tananing proektsiyasining ma'lum bir zonasining joylashuvidan qat'i nazar, stereotipik tuzilish bilan tavsiflanadi.

O'rta miya ([lot.](#) mesencephalon) - embriogenez davrida global o'zgarishlarga uchramaydigan miya poyasining bo'limi. Anatomik jihatdan bu o'rta miya bo'shlig'i miyaning uchinchi va to'rtinchi qorinchalarini bog'laydigan va kulrang moddalar bilan o'ralgan suv o'tkazgichi ekanligi bilan namoyon bo'ladi. Embriogenezda hosil bo'lgan o'rta miya egiluvchanligi saqlanib qoladi, bu esa yuqori yotgan bo'limlar (diensefalon va telencephalon) va pastki yotgan bo'limlar (orqa miya va medulla oblongata) orasidagi burchakning shakllanishini belgilaydi. O'rta miyaning hosil bo'lishida asosan ko'ruv a'zolarining tasiri katta bo'lganligidan shu a 'zolari boshqaradigan nerv hujayralari o 'rta miya sohasida joylashadi. O 'rta miyaning dorzal (orqa) sohasi — o 'rta miya tomi — lamina tecti mesencephali deb ataladi.

Oraliq miya -diencephalon. Oraliq miya ikki bolimdan iborat. Orqa sohada joylashgan bo'rtiq sohasi — thalamencephalon va oldingi sohadagi bo'rtiq osti — hypothalamus yuzalari. I. Bo'rtiq sohasi o'z navbatida 3 qismdan iborat. a) ko'ruv bo'rtig'i — thalamus; b) bo'rtiqning ustki sohasi — epithalamus; d) bo'rtiqning orqa sohasi — metathalamus. Oraliq miya bo'shlig'i III qorinchani tashkil etadi. . U to'rtta asosiy tuzilmaga bo'linadi:

- talamus - juftlashgan;
- subtalamus - juftlashgan;
- gipotalamus - juftlashtirilmagan;
- epitalamus - juftlashtirilmagan.

Diensefaloning markaziy juftlashgan qismi, talamus (vizual talamus) ovoid shaklidagi shakllanish bo'lib, barcha sezuvchanlik turlaridan ba'zi istisnolardan tashqari, impulslarni qabul qiluvchi neyronlarning kontsentratsiyasini ifodalaydi.

Bundan tashqari, ko'plab nerv tolalari talamusni miya yarim korteksiga bog'laydi. Talamus loblari orasidagi bo'shliq miyaning uchinchi qorinchasini hosil qiladi. Bog'lanmagan shakllanish epitalamus, talamusning yuqorisida va orqasida joylashgan bo'lib, ichki sekretsiya bezi, pineal bez va uning talamus bilan bog'lanishlari tasma shaklida hosil bo'ladi. Pineal bez (pineal bez) endokrin tizimning organi bo'lib, retinaning yoritilishiga javoban tananing faoliyatini belgilaydi. Nerv tolalarini bog'lash va mahkamlash funksiyasidan tashqari, o'z tarkibida faol neyronlar mavjud. Diensefalonning juftlanmagan qismi, gipotalamus, talamusdan pastroqda joylashgan va uchinchi qorincha tagini hosil qiladi. Gipotalamusning huni shaklidagi ichi bo'sh shakli uning devorlarida miya sopi va yarim sharlar bilan neyron aloqalari bo'lgan faol markazlarga ega. Gipotalamus infundibulumining cho'qqisi gipofiz bezini mahkamlaydigan sopi bilan tugaydi. Ushbu anatomik kompleks gipotalamusning vegetativ innervatsiya va endokrin tizimni tartibga solish markazi sifatida funksiyasini belgilaydi. Epitalamusning juftlashgan tuzilmalari har bir talamus ostida ikkita balandlik shaklida genikulyar tanalar bilan ifodalanadi. Anatomik va funksional jihatdan genikulyar organlar o'rta miya tomining tuzilmalari (yuqori va pastki kolikulalar) bilan bog'langan. Bu eshitish va vizual analizatorlardan impulslarni o'tkazishda genikulyar organlarning ishtirokini belgilaydi.

Xulosa: Bosh miya sistemasini xulosalashning ahamiyati yuqorida ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Odamning bosh miyasi uning aql-idroki, fikrlash qobiliyati, ongi kabi muhim ruhiy xususiyatlarining fiziologik asosi hisoblanadi. U tashqi va ichki muhit ta'sirini analiz-sintez qilib, ularga javob qaytaradi. Tananing barcha to'qima va organlari ish faoliyatini bir-biriga bog'lab boshqaradi, organizm bilan tashqi muhitning aloqasini ta'minlaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. https://znanierussia.ru/articles/%D0%93%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%BD%D0%BE%D0%B9_%D0%BC%D0%BE%D0%B7%D0%B3_%D1%87%D0%B5%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%B5%D0%BA%D0%B0
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/anatomiya/bosh-miya-tuzulishi>
3. Odam anatomiyasi: F.N. Bahodirov 302-328 betlar
4. Atlas 1: N.K.Ahmedov (2005-y)

VOLEYBOL SPORT TURIDA ASOSIY HARAKATLANISH ELEMENTLARI (METODIK TAVSIYA)

Qodirov Qaxramonjon Tursunovich

Andijon tumani XTBga qarashli

25- umumiy o'rtta talim maktabi

Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi



Annotatsiya: O'zbekistonda voleybol sport turining rivojlantirish uchun dastur-me'yoriy asoslar o'z-o'zidan darslarni nazarda tutmaydi, lekin majburiy davlat hujjatlari bilan tartibga solinadigan tizim: voleybol bo'yicha o'quv rejaları va dasturlaridir. Bu dasturlarda turli yoshdagi voleybolchilar bilan mashg'ulotlarda amalga oshiriladigan vazifa va vositalar ilmiy asoslab berilgan, voleybolchilar tomonidan o'zlashtirilgan harakatlar ro'yxati keltirilgan, jismoniy tayyorgarligini baholash me'yorlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: voleybol, hujum, murabbiy, himoya, harakat elementlari, harakat, taktika o'yin, texnika, o'yinchi, jismoniy tayyorgarlik.

Kirish. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda voleybol bo'yicha bir nechta dasturlar mavjud: qo'shimcha ta'lim muassasalari va sport klublari uchun dastur (2007), bolalar va o'smirlar sport maktablari va ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari maktablari uchun sport mashg'ulotlari dasturi (2008), shuningdek. Voleybol mashqlarining boshlang'ich shakllari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy madaniyat bo'yicha uslubiy tavsiyalar (2008).

Asosiy qism. To'pni o'yinga kiritish texnikasi -To'pni uyinga kiritish – uyinni boshlash yoki da'vom ettirish vosiasi bulsada, ayniksa, sungi yillarda, xujum texnikasi tizimidagalaba keltiruvchi asosiy malakaga aylanib bormokda.

To'pni uyinga kiritish bir necha turlardan iborat:

1. Turga nisbatan tug'ri turib pastdan va yukoridan to'p kiritish.
2. Turga nisbatan yon tomon bilan turib pastdan va yukoridan to'p kiritish.
3. YUkoridan tugri va yon tomon bilan to'pga umuman aylanma xarakat bermasdan (planiruyuhaya podacha) to'p kiritish.

YUqorida qayd etilgandek, to'p kiritish turlari xar xil bulsada, ularning bir xil xususiyatlari mavjud, ushbu dastlabki xolat chap (ung) oyoq bir kadam oraligida oldinda joylashadi xarakatlanishni dastlabki boskichida oyoqlar tizza kismidan bir oz etilgan buladi; chap kulda joylashgan to'pni; pastdan to'p kiritish taxminan to'p 25-50 sm balandlikga vertikal irg'itiladi: yukoridan to'p kiritishda:

- to'p taxminan 1,0 m atrofida irgitiladi, bundan tashkari pastdan to'p kiritishda gavda oldiga bir oz bukilgan buladi, yukoridan to'p kiritishda esa gavda vertikal xolatda buladi: to'p irgitilishi bilanok tanani ogirlik arkazi orka omonga siljiladi, gavda va ung kul barobariga orka tomonga xarakatlanadi;

- pastdan tugri turib to'p kiritishda ung ukl erga nisbatan perpendikular ravishda orkaga siljilib, sung irgitilgan to'pni shiddat bilan olidinga – balandga uriladi;

- yukoridan tug'ri turib to'p kiritishda ung yukoriga vertikalqutarilgan xoladan orka tomonga xarakatlantirilib, tirsakdan bukiladi, sung kul yozilishi bilan bir katorda old tomonga shiddat bilan uriladi;

- tananing ogirlik markazi old tomonga siljishi kerak;

- yuqoridan yon tomon bilan turgan xolatda to'p gavda ung tomonga egiladi, kul orkaga – pasta tushiriladi va katta shiddat bilan old tomonga xarakatlantirilib, vertikal xolatda irgitilgan to'p zarb bilan uriladi;

- tugri va yon tomon bilan to'pni aylanma xarakatsiz kritishda zarba buruvchi kul to'pdan deyarli kiska oralikda buladi va zarba to'pni markaziy nutasiga tugri kelishi kerak.

Zarba berish texnikasi - Sakrab zarba bilan to'pni urish yoki to'siqlarnichalgitish niyatida bir kul bilan to'pni raqib maydonchasini bush joyiga uzatish (utkazi yuborish) uyin vaziyatining ochko olish bilan tugallanishiga yoki juda bulmaganda raqib jamoani kayta xujum uyushtirishga imkon bermaslikka karatilgan bulishi lozim.

ZARBA – kiska oralikda chopish 1 faza, depsinish va sakrash 2 faza, zarba berish 3 faza va qo'nish 4 faza makakalari asosida amalga oshiriladi.

Qisqa oralikda yugurish fazasi uz navbatida bir-biri bilan boglik bulgan 3 kismga bulinadi; datlabki (tayorgarlik) o'rta (yugurishning asosiy kadamlari) va tovonni qo'yish (depsinishgacha) jarayonlari.

Yugurishning dastlabki kismida voleybolchi xali uzatilgan to'pning tulailmasdan xarakat ydinlashtirish maksadida bir ikkita tayyorgarlik kadamini kuyadi.

Yugurishning ikkinchi (o'rta) kismida, uzatilgan to'pi yunalishi va unga munsib bulgan xarakat yunalishi aniklanib, shiddat blan yugurish kadamlari tashlanadi. Bu kismda ijro etiladigan malakalar xujumchini jismoniy, texnik va taktik imknihatlariga karab u yoki bu tomonga uzgarishi mumkin.

Yugurishning uchinchi kismida tana ogirlik markazini pastrok tushirib ung oyoq bilan shiddatli katta kadam kuyiladi, avvalo erga oyoqning tovon kismi kuyiladi, sung chap oyoqni birlashtirish bilan bir katorda ikki oyoqning tizza kismilari yanada bukiladi, ikki kul orkadan oldinga tezlik bilan xarakatlanib, inertsiyadan foydalanilgan xolda depsinish ijro etildi.

Ikkinchi faza sakrash – vertikal ravishda, kullarni oldinga – yukoriga shiddatli xarakati turga tegmasdan va ikki oyoq bilan deysinish evaziga amalga oshiriladi. Sakrash fazasining sunggi damida gavda orka tomonga egiladi. Zarba beruvchi kul, shiddat bilan yoy shaklida yukoriga xarakatlantiriladi, kul tirsak kismidan past tomonga bukiladi.

Uchinchi faza – to'pni zarba bilan urish – ung kulni (zarba beruvchi kul) tirsak kismidan yozilishi, uni yukoriga – oldinga karab ijro etilgan xarakati blan ifodalanib kul aynan vertikal xolatgacha yozilgan vaqda kuldin tashkari korin-kukrak, elka-kukrak-bel mushaklarini baravariga keskin kiskarishi yordam berishi zarur. Zarbani taktik maksadga karab barcha mushaklarni kiskarish kuchi va ishtirok etish foizi turlicha bulishi mumkin.

Turtinchi faza – qo'nish – oyoqlarni egilgan xolatida amortizatsiya karashiligida ijro etiladi.

Zarba berish texnikasi – to'g'ri yo'nalishda, ya'ni chalishini yunalishida gavdani burmasdan va burib turli yunalishda zarba berishni uz ichiga oladi. Zarbani mazkur turlaridan tashkari sakrab yon tomon bilan zarba berish turi mavjud. Lekin zarbaning ushbu turi sungi yillarda kam ijro etilmokda.

To'siq qo'yish texnikasi - To'siq qo'yish – bu raqib uyinchisi tomonidan uzatilagn yoki zarba berilgan to'p yunalishini tusish, unda karama-karshi «jonli devor» tashkil qilishdir. To'siq qo'yish asosiy ximoya vositasi bulibgina kolmay, balki mazkur to'siq yordamida ochko olti imkoniyati xam mavjud bulishi mumkin. Demak uz navbatida to'siq qo'yish xujum tizimiga xam mansubdir.

To'siq qo'yuvchi uyinchi dostlab oyoqlarini elka kenligiga joylashtiradi, oyoqlar tizza kismidan xiyol bukilgan buladi, ullar tirsak kismidan bukilgan bulib, panjalar yoyilganshakilda bulib. To'pni yunalish joyiga karab xarakatlantirilgandan so'ng (ba'zida turib) oyoqlar tizza qismidan bir ozgina bukilib, shiddat bilan yoziladi va qo'llarni faol harakati bilan sakrab, to'p kengligida to'siq qo'yiladi.

«Qo'nish» - oyoqlarni amortizatsion bu kish xisobiga amalga oshriladi. To'siq qo'yishda sakrash jarayoni raqib xujumchisining sakrash vaktidan bir oz kechrok xolda va gurux bulib ijro etilishi mumkin. Gurux ishtirokida to'siq qo'yish to'siq kuyuvchi uyinchilarining kullari orasidan to'p uta olmasligini ta'minlashi zarur.

To'siq qo'yishda raqib tomonidan uzatilgan yoki zarba bilan uriladigan to'pning bulajak yunalishini faximlash va shunga yarasha munosib joy tanlash mazkur malakani ijobiy yakunlashida goyat katta axamiyatga ega.

To'pni pastdan qabul qilishni takomillashtirish mashqlari

1.O'yinchi ikki qo'li bilan to'pni o'zini tepasiga tashlab, o'zi shu to'pni ikki qo'l bilan qabul qilishi.

2.O'yinchi ikki qo'li bilan to'pni polga urib qaqchigan to'pga etib olib, to'pni pastdan qabul qilishga dastlabki holatni egallash, to'pni qabul qilish.

3. Devor oldida turib, devordan qaytgan to'pni qabul qilish. Devorga qarab to'pni urib, qaytgan to'pni qabul qilish. Devordan masofa taxminiy va qabul qilishni hisobga olgan holda devorga yaqin yoki uzoq turiladi. To'pni pastdan qabul qilish texnikasi o'rganilgandan keyin dumalab yoki ko'krakka yiqilib to'pni qabul qilishga o'rgatish mumkin.

Yiqilib to'pni qabul qilish uchun belgilangan mashqlar.

1. Past holatdan o'rtaga do'mbaloq oshish yoki yonbosh-belda yumalashish.

2. Oldinga bir qadam tashlab past holatni egallash va orqaga yonbosh orasiga yumalanish.

3. O'rtacha holatda katta qadam yonga tashlab orqasiga yumalanish yoki yonbosh orqaga yumalanish.

4. Sekin yugurib kelib past holatni egallash va orqaga yiqilib yumalanish yoki yonbosh orqaga yumalanish.

Orqaga va yonbosh-orqaga yumalashni takomillashtirish mashqlari.

1. Aylana bo'ylab yugurish, o'qituvchini signalidan keyin orqaga yoki yonbosh orqaga yumalash.

2. Shu mashqni faqat yonga katta qadam tashlash bilan bajariladi. Mana shu mashqlarni bajargandan keyin to'pni yuqoridan ikki qo'l bilan qabul qilib orqaga yoki yonbosh orqaga yumalash.

Shu mashqlarga o'xshash mashqlar.

1. Shug'ullanuvchilar sherik-sherik bo'lishib, bir-biriga qarama-qarshi turishibdi. 1-o'yinchi past holatdan to'pni 2 qo'l bilan yuqoridan qabul qilishga tayyorlanadi, 2-o'yinchi esa to'pni 1-o'yinchiga tashlab beradi, 1-o'yinchi to'pni yuqoridan ikki qo'l bilan qabul qilingan keyin orqaga yoki yonboshga yumalaydi.

2. O'yinchilarni dastlabki holati shu 1-o'yinchi o'rtacha holatda turadi, 2-o'yinchi to'pni unga tashlab beradi, 1-o'yinchi esa to'pni yuqoridan 2 qo'l bilan qabul qilib orqaga yoki yonboshga dumalaydi.

3. O'yinchilarni dastlabki holatda shu 1-o'yinchi hohlagan balandlikda, xohlagan tomonga, xohlagan tezlikda tashlaydi. SHunga qaramay 1-o'yinchi to'pni yuqoridan ikki qo'l bilan qabul qilib orqaga yoki yonboshga yumalaydi. Ko'krakka yiqilishni bo'lim-bo'lim bo'yicha o'rgatish kerak. Ko'krakka yiqilishning tahminiy mashqlari:

1. O'yinchilar ko'kragi bilan yotgan holatda, o'qituvchini signal bilan yonga chiqariladi va bel, bo'g'inda, ko'krak qafasida orqaga qarab egiladilar. Oyoqni tizza bo'g'ini ham bukiladi.

2. O'yinchi qo'llar yordamida erda yotganda 2-bir o'yinchi uni oyog'ini to'pig'dan ushlab ko'taradi. shu holatdan erda yotgan o'yinchi ko'krakka yiqiladi.

3. Past holatda turgan joyidan o'yinchi oldinga qarab bir qadam tashlaydi va ko'krakka yiqiladi. Ko'krakka yiqilishni o'rgangandan keyin yiqilib to'pni pastda 1 yoki 2 qo'l bilan qabul qilishni o'rganamiz. SHuni o'rganish uchun berilgan mashqlar:

1. Shug'ullanuvchilar sherik-sherik bo'lib bir-biriga qarma-qarshi turishadi. 1-o'yinchi past holatda turadi, 2-o'yinchi esa to'pni biroz etkazmay 1-o'yinchi tomonga tashlaydi. 1-o'yinchi esa to'pni pastdan qabul qilib ko'krakka yiqiladi.

2. Dastlabki holat shu 1-o'yinchi to'pni 2-o'yinchiga etkazmay tashlaydi. 2-o'yinchi to'pga qarab katta qadam tashlaydi va to'pni pastdan 1 yoki 2 qo'l bilan qabul qiladi. Shu vaqtni o'zida orqada qolgan oyoq bilan itarilib ko'krakka yiqiladi.

3. O'yinchini biri to'pni yo'nalishini o'zgartirib to'pni tashlaydi. SHerigi esa to'pga etib kelib, to'pni pastdan 1 yoki 2 qo'l bilan qabul qilib ko'krakka yiqiladi. To'pni ko'krakda qabul qilayotganda sharoitni sun'iy qiyinlashtirish mumkin. To'pni yo'nalishini, balandligini, tezligini o'zgartirish mumkin.

To'pni ko'krak bilan yiqilib qabul qilishdagi xatolar.

1. O'yinchi to'pga etib kela olmasligi.

2. Orqaga yiqilayotganda etarlicha tanani gruppirovka qilmaslik.

3. Oldinga yiqilayotganda tanani etrlicha egilmasligi.

To'pni qabul qilishni takomillashtirishni quyidagi mashqlarda bajarish mumkin.

1. O'yinchi to'pni polga uradi. O'zi shu to'pni pastdan o'zini tepasida, qabul qiladi. Keyin esa yuqoridan o'pni sherigiga uzatadi.

2. O'yinchilar bir-biriga qarama-qarshi bo'lib turishadi. (4-9m).

To'rta perpendekulyar ravishda turishadi. to'pni pastdan qabul qilishda yuza chizig'idan amalga oshirish kerak.

4. 2 ta o'yinchi yuza chizig'iga turadilar. 1-o'yinchi to'pni polga uradi va to'pni ketidan borib to'pni pastda qabul qiladi, o'zini tepasiga 2-o'yinchi esa shu to'pni 2 qo'l bilan yuqoridan 4 yoki 2 zonaga uzatadi.

Xulosa: Voleybol sport turida fazalar birorta bir harakat hal qilish uchun va taktik bosimlarni kombintatsiya qilishda asosiy bo'lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Атаев А.К. развитие быстроты, ловкости и силы у детей. Ташкент, Ўқитувчи, 1973. - 120с.

2. Баген М.М. Обучение двигательным действиям. М.:Физкультура и спорт. 1985.- 192 б.

3. Брил М.С. Отбор в спортивных играх. Москва, ФиС, 1987.

4. Волков В.М., Филин В.П. Спортивный отбор. Москва, ФиС., 1983.

BYUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING AUDITORI

*Umirova Mavjuda - Bank Moliya akademiyasi
Davlat Moliyaviy Nazorati va Auditi (DMNA)
yo'nalishi 23-23-guruh magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: Maqolada Budget tashkilotlarida asosiya vositalar auditi faoliyatining nazariy xamda amaliy jihatlar va byudjet tashkilotida ichki auditni samarali tashkil etish yo'llari, ichki auditni maqsadi va vazifalari, prinsiplari, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya bo'limlari bo'yicha tekshirish o'tkazishni o'z usullari, tekshiriladigan bo'limlarni nazorat qilish ketma-ketligi bo'yicha yondoshuvlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: byudjet tashkiloti, ichki audit, audit usullari, samaradorlik, auditor, sifat, baholash, intizomli yondoshuv, risk, aktiv, davlat mulki.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты проверки основных средств в бюджетных организациях и пути эффективной организации внутреннего аудита в бюджетной организации, цели и задачи, принципы внутреннего аудита, методы проведения проверок. рассмотрены подходы к последовательности контроля проверяемых участков.

Ключевые слова: бюджетная организация, внутренний аудит, методы аудита, эффективность, аудитор, качество, оценка, дисциплинированный подход, риск, актив, государственная собственность.

Abstract: The article discusses the theoretical and practical aspects of checking fixed assets in budgetary organizations and ways to effectively organize internal audit in a budgetary organization, goals and objectives, principles of internal audit, methods of conducting audits. approaches to the sequence of control of inspected areas are considered.

Key words: budgetary organization, internal audit, audit methods, efficiency, auditor, quality, assessment, disciplined approach, risk, asset, state property.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2018 yildagi PQ-3946 sonli "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga asosan mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy

vositalar hisobi va auditing nazariy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Asosiy vositalarni tan olish mezonlari, asosiy vositalarni boshlang'ich tannarxida baholash, asosiy vositalarni haqiqiy tannarxi bo'yicha hisob modeli yoki qayta baholangan qiymati bo'yicha hisob modellari asosida baholash tartiblari, asosiy vositalarni qayta baholash natijalarini aks ettirish, asosiy vositalarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xalqaro audit standartlari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar asosiy vositalarni audit qilish metodologiyasini takomillashtirish o'ta dolzarb hisoblanadi. Shu bois, mazkur dissertasiya ishi dolzarb mavzuga bag'ishlangan. Odatda, u yoki bu korxonada va tashkilotning auditorlik tekshiruvchi auditorlik firmalaridan birida ishlovchi mustaqil auditorlar guruhi tomonidan o'tkaziladi. Auditorlik tekshiruvchi jarayonining samaradorligini oshirish uchun, ya'ni unda ishlab chiqariladigan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi ma'lumotlarning malakali, haqiqiy va sifatli bo'lishini ta'minlash uchun uni aniq va to'g'ri tashkil eta bilish zarur bo'ladi. Auditor asosiy vositalar auditini boshlashda xo'jalikka kelishi bilan birinchi navbatda quyidagilarni aniqlashi zarur:

⊗ korxonaning asosiy vositalar hisobini tashkil qilish bo'yicha tekshirilayotgan hisobot davridagi hisob yuritish siyosati, uning o'tgan hisobot davridagiga nisbatan o'zgarishi bilan tanishish;

⊗ asosiy vositalarning so'nggi inventarizatsiya (ashyoviy ro'yxat)dan o'tkazilishi va uning natijalarini aniqlash;

⊗ asosiy vositalarni so'nggi qayta baholash materiallari va ularning hisobda aks ettirilishi bilan tanishish. Bunda auditor O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining tegishli me'yoriy xujjatlariga muvofiq korxonada balansida turadigan va qayta baholangan asosiy vositalar tiklanish qiymati bo'yicha aks ettirilishini nazarda tutishi lozim.

⊗ korxonada asosiy vositalarni hisobdan chiqarish bo'yicha doimiy komissiya tashkil etilishi: asosiy vositalarni foydalanish joylarida saqlash uchun javobgar shaxslar haqida buyruq (farmoyish) ning mavjudligini tekshirish, shuningdek, ular bilan shaxsan to'la moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzilganligini aniqlash;

⊗ buxgalteriyada asosiy vositalar kartotekasi (AV 6 va AV 8 shaklidagi inventar kartochkalar) va kompyuterda yoki qo'lda bajariladigan variantdagi aniq inventar ro'yxati (AV 9 shakl) yuritilishiga ishonch hosil qilish lozim;

⊗ ishdan bo'shab ketgan moddiy javobgar shaxslar haqida ma'lumotlar (buyruqlar, xodimlar ro'yxati)ni o'rganish;

⊗ asosiy vositalar hisobini yuritish qoidalari bayon qilingan amaldagi me'yoriy xujjatlar va asosiy vositalar hisobiga doir yagona shakldagi (unifikatsiyalangan)

idoralararo dastlabki xujjatlarning shakllari bilan korxonada buxgalteriyasi qay darajada ta'minlanganligini aniqlash. Asosiy vositalarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishda foydalaniladigan manbalar buxgalterlik hisobning korxonada qabul qilingan tashkiliy shakliga ham bog'liq. Bular hisobni qo'lda yuritish sharoitida: jurnal orderlar, vedomostlar, kartochkalar: avtomatlashtirilgan hisob sharoitida esa kompyuter dasturlari, mashinagrammlaridir. Lekin shuni unutmaslik kerakki, hisobning har qanday shakli sharoitida ham asosiy vositalarning xarakteriga oid muomalalar (kirimi, chiqimi, xo'jalik ichidagi siljishi, ta'mirlanishi) me'yoriy xujjatlar va dastlabki xujjatlashtirishning unifikatsiyalangan idoralararo shakllari bilan rasmiylashtirilishi lozim. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

⊖ asosiy vositalar buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish masalalarini tartibga soladigan asosiy me'yoriy xujjatlar;

⊖ korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i;

⊖ asosiy vositalarni hisobga olishda korxonada qo'llaniladigan analitik va sintetik hisob registrlari;

⊖ buxgalteriya hisobotlari;

⊖ asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish (ichki siljish) dalolatnomasi (nakladnoyi) (AV-1 shakl);

⊖ ta'mirlangan, qayta jixozlangan va zamonaviylashtirilgan obyektlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (AV-2 shakl);

⊖ asosiy vositalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi (AV-Z shakl);

⊖ avtotransport vositalarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi (AV-4 shakl);

⊖ asosiy vositalarni hisobga oladigan inventar kartochka (AV-6 shakl);

⊖ asosiy vositalarni hisobga oladigan inventar kartochkalar ro'yxati (AV7 shakl);

⊖ asosiy vositalar xarakterini hisobga oladigan kartochka (AV-8 shakl);

⊖ asosiy vositalarning inventar ro'yxati (ishlatish joylari bo'yicha) (AV-9 shakl).

Auditor ushbu me'yoriy xujjatlar, hisob registrlari va dastlabki xujjatlarda asosiy vositalar xarakterini rasmiylashtirish uchun javobgar shaxslar imzolarining mavjudligi va haqqoniyligiga e'tibor karatib, barcha rekvizitlarning to'g'ri tulg'azilganligini aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Auditorlik faoliyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 25.02.2021 y. O'RQ-677-sonli Qonuni
2. Дуstmуродов Р.Д. Аудит асослари. Дарслик.: Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003;
3. Мусаев Х.Н. Аудит. Дарслик. – Т.: Молия, 2003
4. International Accounting Standard 16 Property, Plant and Equipment. EC staff consolidated version as of 16 September 2009.

XALQ CHOLG'U ASBOBLARINING O'ZIGA XOSLIGI

Ashurova Shaxnoza Axmedovna

*Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom san'atiga
ixtisoslashtirilgan maktab internati katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada, xalq cholg'u asboblarining o'ziga xosligi va ularning ma'noli qo'llanilishi tahlil qilinadi. Asboblar, ularning yaratilishi, o'ziga xosligi tushunchasi, va ularning amaliy qo'llanilishi haqida ma'lumotlar to'planadi va baholanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, xalq cholg'u asboblarining ijodkorlar va iste'molchilar uchun o'ziga xoslik darajasining yuqori bo'lishi, ularning qo'llanilishining osonligi va amaliy foydasi ko'proq e'tibor qilinadigan jihatlar bo'lib kelib chiqadi.

Kalit so'zlar: Musiqa ijrochilari, cholg'u asboblari, doira, rubob, dutor, g'ijjak, nay, surnay, karnay, zarbli sozlar:

Kirish. Ma'lumki, o'zbek xalq musiqa merosi ham boshqa ko'pgina Sharq xalqlari musiqasi singari, folklor hamda og'zaki an'anadagi professional musiqa turlariga bo'linadi. Cholg'ular ham o'z navbatida, faqat folklor janrlari ijrochilari qo'lida hamda professional musiqa ijrochilari tomonidan ishlatiladigan turlarga bo'linganligini ko'ramiz. Tarixiy yodgorliklarda, jumladan, musiqiy risolalar va boshqa manbalarda esa deyarli mohir ijrochi ustoz-sozandalar ishlatgan cholg'ular o'z aksini topgan. Lekin cho'ponlar tomonidan yoki keng omma orasida folklor musiqalari ijro qilinib, tuzilishi jihatdan oddiygina bo'lgan ko'pgina cholg'ular, jumladan, suyak yoki yog'ochdan yasalgan chanqovuz va shunga o'xshagan sozlar tasviri (yoki tasnifi) san'at yodgorliklari hamda maxsus musiqa risolalarida juda kam uchramiz. Bunday cholg'ularning ko'pchiligi biz uchun noma'lum qolganligi ham ehtimoldan xoli emas.

O'zbek xalq cholg'ulari ko'p va xilma – xil bo'lganligi uchun ularni qayta ta'mirlash nihoyatda murakkab va uzoq davom etgan jarayon bo'ldi. Bizgacha yetib kelgan an'anaviy cholg'ularning o'rniga, ijrochilikning nozik va yuksak badiiy talablariga javob bera oladigan yangi, zamonaviy cholg'ular yaratila boshlandi. Bu ishga birinchilardan bo'lib, XX asrning 20-30 yillarida musiqa cholg'u asboblarini yangilashga kirishgan Toshkentlik mashhur musiqa cholg'ulari ustasi usta Usmon Zufarov (1892-1981) dutor, g'ijjak, tanbur kabi musiqa cholg'ularining turdosh oilalarini yaratishga, Matyusuf Xarratov hamda usta Ro'zmat Isaboyevlar tomonidan esa chang soziga qo'shimcha torlar o'rnatilib, ovoz jarangdorligini kengaytirishga erishildi.

Asosiy qism. Milliy sozlarimizning ko'pligi va xilma-xilligiga doir ashyoviy dalillar, jumladan, devoriy toshlarda ishlangan qadimiy soz chizg'ichlari, kitobiy

mo`jaz suratlarda aks ettirilgan cholg`ular tasviri hamda musiqiy risola va boshqa yozma tarixiy manbalarda qayd etilgan ma`lumotlar bundan dalolat beradi. Cholg`ular o`z tuzilishi, tasviriy vositalarining xarakteri, xususiyatlari va ijrochilik uslublariga qarab uch guruhga bo`linadi:

1. Zarbli sozlar
2. Puflab (damli) chalinadigan sozlar
3. Torli sozlar

Ushbu tasnifot cholg`ularda tovush hosil qilish manbai vositasi asosida qurilgandir. Demak, shunga ko`ra:

❖ Zarbli cholg`ular guruhiga: doira, nog`ora, safoil, qoshiq, qayroq singari cholg`ular kiradi.

❖ Damli cholg`ular guruhi: nay, qo`shnay, bulomon, sibizg`a, surnay, karnay, chanqoviz singari cholg`ulardan tarkib topadi.

❖ Torli cholg`ular guruhini dutor, tanbur, ud, rubob, qo`biz, g`ijjak, sato, chang tashkil etadi. Bu cholg`ularning har biri ijro etiladigan asarlar xususiyati va funksiyalariga qarab yakka yoki ma`lum bir ansambl hamda orkestr tarkibida ishlatiladi.

O`zbekistonda doimiy ishlatilib kelinayotgan cholg`ularning ko`pchiligi, jumladan, doira, rubob, dutor, g`ijjak, nay, surnay, karnay, bulomon kabi cholg`ular boshqa Sharq xalqlarida mavjud bo`lib, ularning musiqa san`atida ham katta o`rin egallaydi. Ammo ularni ishlatishda esa har bir xalqning milliy musiqasida ma`lum darajada farq borligi ajralib turadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda, o`zbek va tojik xalqlarida ko`pgina cholg`ular va ularning ishlatilishi deyarli bir xil ekanligining ham guvohi bo`lamiz.

G`ijjak. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o`zbek va tojik xalqlari orasida qadimdan keng tarqalgan kamoncha bilan chalinadigan torli cholg`u asbob. G`ijjakning eng qadimiy namunalari ikki simli bo`lgan. Keyinroq olti, etti simli g`ijjaklar ham ishlatilgan. Hozir xalqimiz orasida keng tarqalgan to`rt simli g`ijjak sozi o`zining ijro qilish imkoniyati bilan ma`lum darajada Ovro`paning skripka soziga yaqindir. Shuning uchun ham ayrim ijrochilar g`ijjak o`rniga skripkadan ham foydalanadilar.

G`ijjakning kosasi tut, o`rik va kokos yong`og`i hamda yog`ochdan o`rtasi kovak qilib o`yilib yasaladi. Kosaning ustiga baliq terisi yoki molning yurak pardasi qoplanadi. Dastasi yassi bo`lib, kosaga yaqinlashgan sari ingichkalashtirib ishlangan. Kosaning pastki qismida temir oyoqcha o`rnatilgan bo`lib uni ijrochi tizzasiga qo`yib stulda o`tirib chalishi uchun moslashtirilgan.

G`ijjakning kamonchasi ot dumining qillaridan tayyorlanib chalish vaqtida o`ng qo`l barmoqlari bilan tortib turiladi. Ijrochidan kamonni juda katta mahorat bilan torlar ustiga yurgiza bilish talab etiladi. Chunki torlarda barmoqlarni navbatma-navbat bosib

hosil qilinadigan har bir yoqimli nozik va rang-barang tovush kamon yordamida amalga oshiriladi. O'z navbatida bunday tovushlar g'ijjakda keng qo'llaniladigan qochirim va nolishlar bilan yana ham boyitiladi.

Qashqar rubobi. Qashqar rubobi - o'zbek xalq cholg'u sozlari ichida alohida o'rin tutadi. Bu cholg'u asbobi o'zining jarangdor, tiniq ovozi bilan inson qalbiga yaqinligi, o'rganish va chalish jihatidan bir muncha qulaylikka ega ekanligi bilan xalqimizning sevimli sozlaridan biriga aylanib qolgan. U cho'ziqsimon kosa va ikki shoxli uzun dastadan iborat bo'lib yarim doira shaklida o'yilgan. Kosaxonasining ustki qismi teri bilan qoplangan bo'ladi.

Qashqar rubobi qayta ta'mirlanib, dastasiga bog'lanadigan ichak parda latundan yasalgan parda bilan almashtirildi, dastasining uzunligi qisqartirildi, pardalar soni ko'paytirilib, ijro etish texnikasi yengillashtiriladi. Natijada turli xarakter va qiyinchilikdagi musiqa asarlarini chalish imkoniyati yaratildi.

Ovoz tembri (tusi)ga qaraganda o'rta registrda jaranglaydigan sozdir. Uning beshta tori bo'lib, birinchi va ikkinchi juft torlari po'lotdan, uchinchi yakka tori esa ipakdan bo'ladi. Har bir juft tor yo'g'onligi asosida joylashgan bo'lib, unison tarzda sozlanadi. Demak, eng ingichka juft tor birinchi oktavaning Iya, ikkinchi juft tor birinchi oktavaning mi, uchinchi yakka tor esa kichik oktavaning si tovushiga sozlanadi. Simlar orasi sof kvarta intervali asosida joylashgan.

Nay. O'rta asrda yashab ijod etgan olim Abu Nasr Forobiy o'zining mashhur "Katta musiqa kitobi"ning, ikkinchi bobida puflama musiqa asboblari jumladan, nay sozi haqida yozib, uni qamishdan yasalganligi to'g'risida fikr bildirdi. O'zbekiston hududida, jumladan Samarqand yaqinidagi Afrosiyob nomi bilan ataladigan qishloqda olimlar tomonidan arxeologik ishlar olib borilganda, u yerdan fleyta (nay) chalib turgan musiqachining haykalchasi topilgan. O'rta asr miniatyuralarida esa nay xonaki xalq cholg'ulari ansambli tarkibidan o'rin olgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, fleyta ya'ni nay uzoq asrlardan buyon avloddan-avlodga o'tib kelgan cholg'udir. U O'zbekiston hamda Tojikistonda juda keng tarqalgan. Nayni buryatlar va mangollarda limba, Xitoyda esa li deb nomlashgan.

Nay qamishdan, yog'ochdan, mis, bambuk singari matolardan yasaladi, shuning uchun ham - qamish nay, yog'och nay, mis nay deb nomlanib kelingan. Tuzilishi trubochka shaklida bo'lib, diametri 20-30 mm, uzunligi esa 450-520 mm. Nayning ustki qismida 6 ta teshigi bor.



1-Rasm.Nay

Doira. Markaziy Osiyo musiqa san`atida milliy urma sozlarimiz uzoq tarixga ega bo`lib, ular asrlar davomida avlodan-avlodga o`tib davr rivojlanib, takomillashib, mukammallashgan shaklda bizgacha yetib keldi. Qadim zamonlardan buyon urma cholg`ular yog`och mahsulotlari – quruq daraxt va kundalardan yasalgan. Gardish (qasqon)lari esa xilma-xil ko`rinishlarda shakllanib, ularga turli hayvonlar terisi qoplangan. Davrlar o`tishi bilan ularning shakli ham o`zgarib takomillashib, rivojlana borgan.

Eng qadimiy hamda ko`pgina xalqlar orasida keng tarqalgan urma zarbli sozlardan biri - doiradir. Bu cholg`u taxminan ming yillik asrlardan so`ng, meloddan VI ming yil oldin, inson hayoti olamida muhim o`rin tutganligi haqida ma`lumotlar bor. Doira zarbi ilmining ilk tadqiqoti, usul (ritm) nazariyasining boshlang`ich ildizi, Zardushtiylar davriga borib taqalsa-da, uning rivoji O`rta asrning ulug` allomalari qomusiy olimlar tomonidan jumladan, Abu Nasr Forobiyning “Katta musiqa kitobi”da, Ibn Sinoning “Iyqu” ilmiga bag`ishlangan risolasida, Darveshali Changiyning “Musiqiy risola” kabi asarlarida alohida e`tibor bilan urma zarbli cholg`ularning o`rganilganligi tarixda ma`lum.

Doira keng tarqalgan urma cholg`u asboblaridan biri bo`lib, unda turli xil ansambl va orkestrlar tarkibida hamda yakka soz sifatida ijro qilinadi. Doirada asosan ikki xil tovush mavjud bo`lib, ulardan biri ancha bo`g`iq tovush bum – doiraning o`rtasiga, ikkinchisi baland, jarangdor bak esa, chekkarog`iga uriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq cholg`u asboblarining o`ziga xosligi yuqori hisoblanadi. Ular o`zlariga xos dizayn va funksiyalarga ega, shuningdek, ularni o`rganish va ularni ishlatish osonligi. Bu asboblar, har xil amaliyotlar uchun keng qamrovli qo`llanilishi mumkin va qulaylik keltirib chiqaradi. Natijalar, xalq cholg`u asboblarining texnologik rivojlanishda muhim o`rin egallaydi va ularning ko`p tomonlama amaliy foydasi bo`lishi mumkinligini ta`kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi madaniyati ishlari vazirligi “Rubob navolari”. Toshkent. 1993 y.
2. X. Nurmatov. “Rubob darsligi”. Toshkent. “O`qituvchi” nashriyoti. 1993y.
3. X Nurmatov. “O`zbek xalq musiqasi”. Toshkent. “O`qituvchi” nashriyoti. 1998 y.
4. Sh. Raximov. ”Cholg`ulashtirish va partitura o`qitish” o`quv qo`llanma. Toshkent. 2009 y
5. Sh. Raximov. “Cholg`u ijrochiligiga o`rgatish metodikasi” o`quv qo`llanma. Toshkent. 2009 y.

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING FUQAROLAR BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH, MUOMMOLAR VA YECHIMLAR

Komilov Doniyorbek Elmurod o`g`li
IIV Akademiyasi 312-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda fuqarolar bilan hamkorligining mohiyati va o`ziga xos xususiyatlari, asosiy yo`nalishlari, usul va shakllari, xorijiy davlatlar tajribasi va ularning tahlili, hamkorlikni tashkil etishdagi muammo va kamchiliklarhamda ularning yechimlari yuzasidan taklif va tavsiyalar yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрены сущность и особенности сотрудничества инспектора по профилактике с гражданами в осуществлении профилактики преступности, основные направления, методы и формы, опыт зарубежных стран и его анализ, предложения и рекомендации относительно проблем и недостатков. в организации сотрудничества и освещены пути их решения.

Abstract: In this article, the essence and specific features of the prevention inspector's cooperation with citizens in the implementation of crime prevention, the main directions, methods and forms, the experience of foreign countries and their analysis, suggestions and recommendations regarding the problems and shortcomings in the organization of cooperation and their solutions illuminated.

Хар қандай жамиятнинг муҳим қисми ҳисобланган фуқаролар давлатнинг равнақи ва ривожланиши, унинг тинчлиги ва осойишталигини сақлашда асосий ролни ўйнайди. Бу қадимдан ўз ишотини топган ва бугунги кунда амал қилиниши лозим бўлган қоидага айланган.

Буюк мутафаккир Абу Наср Форобий маънавий озодлик, инсон такомилли, адолатли жамият қуришнинг бирдан-бир шартли одамларни эзгуликка чорлаш, ғоявий жиҳатдан вояга етказиш деб билган ва бу ҳақда шундай деб ёзган: “Инсон бахт-саодат нималигини тушунган бўлса-ю, унга эришишни мақсад қилиб олмаса, ғоя ва хоҳишига айлантормаган бўлса, унга нисбатан озгина бўлса-да, шавқ ва завқ сезмаса, истак ва мулоҳазасини, куч ва қувватини бошқа нарсаларга сарфласа бу қилмишлари ёмон ва ноўринлидир” .

Албатта қайси мамлакатда фуқароларнинг фаровон ҳаёти таъминланар экан, шу давлатда ривожланиш бўлади. Фуқаронинг фаровонлиги эса унинг юртига бўлган меҳрини янада оширади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: “Хабарингиз бор, бу йил мамлакатимиз аҳолиси 33 миллион кишидан ошди. Бу, албатта, кичкина

рақам эмас. Шунинг учун ҳам, фуқароларимизнинг ижтимоий ҳуқуқларини рўёбга чиқариш, жумладан, улар учун муносиб шароит яратиш, ёшларни ўқитиш ва касбга тайёрлаш, иш ва уй-жойлар билан таъминлаш каби ҳаётий масалаларни ҳал этишимиз лозим. Конституциямизда ҳар бир инсон малакали тиббий хизматдан фойдаланиш ҳуқуқига эга экани мустаҳкамлаб қўйилган. Бу муҳим ҳаётий қонданнинг ижросини таъминлаш – халқимиз генофондини асраш ёки оддий қилиб айтганда, давлат ва жамият тараққиётининг

кафолатидир, десак, айти ҳақиқатни айтган бўламиз” , - деб такидлаб, фуқароларимизни ҳар томонлама ижтимоий-иқтисодий қўллаб қувватлаш муҳим аҳмият касб этишини кўрсатиб ўтди.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21-моддасида “Ўзбекистон Республикасининг бутун худудида ягона фуқаролик ўрнатилади. Ўзбекистон Республикаси фуқаролиги, унга қандай асосларга эга бўлганликдан қатъий назар, ҳамма учун тенгдир. Қорақалпоғистон Республикасининг фуқароси айти вақтда Ўзбекистон Республикасининг фуқароси ҳисобланади. Фуқароликка эга бўлиш ва уни йўқотиш асослари ҳамда тартиби қонун билан белгиланади” , - деб белгилаб қўйилган.

Юқоридаги Конституциявий нормадан кўриниб турибдики, Ўзбекистон Республикасида ягона фуқаролик белгиланган бўлиб, фуқароларнинг тенгилиги принципи муҳим аҳмият касб этади ва Ўзбекистон Республикасининг барча фуқаролари ҳуқуқ, бурч ва мажбуриятлари бир ҳилдир.

Конституциянинг 7-бобида фуқароларнинг “Шахсий ҳуқуқ ва эркинликлар” (24-31-моддалар), 8-боби “Сиёсий ҳуқуқлари” (32-35-моддалар), 9-боби “Иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқлар” (36-42-моддалар), 10-боби “Инсон ҳуқуқлари ва эркинликларининг кафолатлари” (43-46-моддалар) белгиланган бўлса 1-бобида фуқароларнинг бурчлари белгилаб берилган.

Жумладан, Конституциянинг 47-моддасида “Барча фуқаролар Конституцияда белгилаб қўйилган бурчларини бажарадилар”, -деб белгиланган бўлиб, бу фуқароларнинг давлат ва жамият олдидаги бурчларини бажаришлари шартлигини кўрсатади, 48-моддасида “Фуқаролар Конституция ва қонунларга риоя этишга, бошқа кишиларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари, шаъни ва қадрқимматини ҳурмат қилишга мажбурдирлар” , - деб белгиланганлиги уларнинг қонунларга қатъий риоя этишлари, амал қилишлари лозимлигини белгилаб беради, 49-моддасида “Фуқаролар Ўзбекистон халқининг тарихий, маънавий ва маданий, меросини авайлаб асрашга мажбурдирлар. Маданий ёдгорликлари давлат муҳофазасидадир”, - деб белгиланиши фуқароларнинг тарихий обидалар, маънавий ва маданий меросни авайлаб асраш билан бир қаторда уларни ҳимоя қилишга ҳам мажбур эканликларини, 50-моддасида “Фуқаролар атроф табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга

мажбурдирлар”, деб белгиланиши табиатни асраш балки уни ҳимоя қилиш ва ушбу соҳадаги ҳуқуқбузарликларни олдини олишга мажбурликларини белгилаб беради, 52-моддасида “Ўзбекистон Республикасини ҳимоя қилиш – Ўзбекистон Республикаси ҳар бир фуқаросининг бурчидир. Фуқаролар қонунда белгиланган тартибда ҳарбий ёки муқобил хизматни ўташга мажбурдирлар”, - деб белгиланган норма фуқароларнинг диний экстремизм ва терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, уюшган жиноятчилик ва бошқа кўринишдаги ҳуқуқбузарликларга қарши кураш бурчи эканлигини белгилаб беради. Шу билан бирга, қонуннинг амал қилиш доирасини аниқ белгилаб қўйиш муҳим аҳамиятга эга. Мисол учун, ушбу қонун солиқ, валюта, банк, суғурта, транспорт, ҳаракат хавфсизлиги, экология, санитария-гигиена, божхона, ҳуқуқтартибот идоралари фаолияти бўйича жамоатчилик назоратини амалга ошириш муносабатларини қамраб олиши зарур. Айни пайтда қонун билан жамоатчилик назоратини юритувчи асосий тузилмаларни белгилаб қўйиш талаб этилади. Чунки, профилактика инспекторлари айнан ушбу соҳадаги ишларни назорат қилишда ва маълумотлар олишда фуқароларнинг ёрдамига суянади.

Within the Modern English Lexicology course taught at English teachers training universities the students learn the basic characteristics of the vocabulary, the basic features of lexical units, such as their morphological structure, functional and semantic classification of lexical units and ways of semantic change, etymological characteristics and word-formation patterns, the peculiarities of set expressions and idioms, principles of lexicological analysis and classification of the vocabulary units, and they apply and improve their own vocabulary research skills through working on practical exercises and texts' analysis related to the vocabulary analysis and classification. At this course for the first time they get acquainted with the concepts of vocabulary as an object and metalanguage used to describe it. The metalanguage itself represents a difficulty for the students, that is why it is advisable to begin with a word story and then proceed to the explanation of the term. This process is necessary to make sure that the students understand the word and its basic linguistic features. This is a vital step in the word memorization process as well as in the nurturing of the linguistic competence. During word formation classes it is recommended to play games with the words. This can be done as 'a group work'. The students "imitate" the word creating patterns, such as compounding, blending or back-formation, and rehearse them in contexts, letting their peers guess the word, its meaning and explain the mechanism of the meaning change. Such exercises are just as important as formal ones. Putting students in pairs or groups and letting them discuss their definitions of such notions as lexemes, meaning and reference, denotation and connotation, semantic change and its mechanisms is a good way to see if all students are storing the same information. Games are a brain-compatible strategy for reinforcing learning. Actively processing vocabulary words in multiple ways allows the brain to store information in multiple memory systems, thus making access to that information easier with multiple triggers or cues (Sprenger, 2010).

By the end of the course the graduates acquire the desired competences to identify, analyse and assess the status and pragmatic potential of various lexical units, and are able to describe the word as the basic language unit, its structural, semantic and functional characteristics; describe the differences between various types of vocabulary units – morphemes, words and set expressions; carry out the meaning analysis and semantic classification of the vocabulary into semantic classes, such as synonyms, antonyms, homonyms and others. They learn how to distinguish and explain various types of morphological structures and types of stems; describe the structural, semantic and functional differences between grammatical and derivational morphemes. They can determine various types of word formation and their relevance for the modern vocabulary enrichment; identify productive and non-productive ways of word building, present valid examples and explain the ways of creating neologisms. They can distinguish the different types of stable word groups, explain the basic principles of

their classifications and ways of forming, describe them from the point of view of their idiomaticity and linguocultural specificity. They become aware of the techniques of the etymological analysis of the vocabulary units, learn differentiating features between native and borrowed vocabulary units, can identify basic regional and territorial variations of the English vocabulary. The final assessment can be conducted in the form of the complex lexicological analysis of the given text – an extract from original English text, preceded with a list of 15 questions related to the semantic, structural, word-formation, phraseological, etymological and other aspects of the text's vocabulary, by applying proper resources and attending to pragmatic, discourse-based factors (Riemer 2010).

Vocabulary is far from being just words. Vocabulary can be defined as the sum-total of the language units, including meaningful chunks of the words named morphemes, free words forms named lexemes and structurally and semantically inseparable word groups named stable phrasemes, using just one of the linguistic set of terms to describe the relevant language elements comprising the lexicon. Vocabulary study is the domain of Lexicology which is rightly a part and parcel of professional language learning programmes in this country.

In the Lexicology course the stock of words is not simply regarded as a list of isolated elements. Lexicologists try to find out generalizations and regularities and especially consider relations between elements. English Lexicology is therefore concerned with systems, paradigms and word structures, not with a mere agglomeration of words, and it covers the fundamentals of the word theory and of the main problems associated with English vocabulary, its characteristics and subdivisions (Елисеева 2003).

Vocabulary studies is truly about words – where they come from, how they change, how they relate to each other and how we use them to view the world (Bauer 1998). The fundamental theoretical knowledge about the composition of the English vocabulary is aimed at developing linguistic competences and practical skills required for the professional teaching of the English language.

The Modern English Lexicology course aims to enable students to understand and interpret the magic of the Word, its role in the vocabulary building-up and enlargement, which involves awareness of the structural, semantic, word-formation and phraseological aspects of the English vocabulary. It also looks at etymological feature of the language, its role in the creative force and intercultural relevance, the linguistic and communicative appropriateness of the semantic classification of the vocabulary in the language performance. The practical classes in lexicological analysis of the lexicon units and literary extracts are aimed at developing their socio-linguistic competences, language intuition and enriching their professional linguistic and communicative thesaurus and make the students comprehend the links between the

language theories and the reality of living speech, on the one hand, and the language-learning and language-teaching processes, on the other, keeping in mind that the majority of EFL students are future English teachers.

The extralinguistic reality as well as social and cultural phenomena can no longer be separated from a linguistic science. The pragmatic information and the ways of its drawing from the text under analysis is incorporated in the lexicology course as the importance of discourse analysis in the vocabulary research has been widely acknowledged in modern language teaching pedagogy. It is the inalienable responsibility of the language teacher to draw on the insights of modern linguistics, on the internal and external aspects of the language normative behavior and its dynamic change. The effective modern vocabulary teaching and learning strategies should have the nature of the linguistic and contextual dimensions and dynamics, incorporated into learners' language learning process. Teachers should strive for developing a dynamic view of the language change which is a part of the sociolinguistic reality. Lexicology gives them a foundation for understanding and accepting linguistic development and change and increases students' awareness of vocabulary prescription and variation, to cope with the global English language universe successfully.

References:

Елисеева В.В. Лексикология английского языка (учебник) . СПб: СПбГУ, 2003 – p.3

Bauer L. Vocabulary. Language Workbooks series, London/New York: Routledge, 1998 – p.viii

Lipka L. An outline of English Lexicology : lexical structure, word semantics, and word-formation. Tiibingen : Niemeyer, 1990 – p.256

Riemer N. Introducing Semantics. CUP, 2010 – p.370-372

Sprenger M. Teaching the Critical Vocabulary of the Common Core. *ASCD book*, 2013// www.ascd.org/publications/books/113040/chapters/What-Does-the-Research-Say-About-Vocabulary

YO‘L TRANSPORT HODISALARINING KELIB CHIQISH SABABLARI

Yunusov Ibrohimjon Nishanovich
Farg‘ona viloyati Quva tuman kasb-hunar
maktabining maxsus fan o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan “Avtomobil-Haydovchi-Yo‘l-Piyoda-Muhit” tizimida hamda amaldagi me‘yoriy hujjatlarga keltirilgan 9 turdan iborat: to‘qnashuv, ag‘dirilib (to‘ntarilib) ketish, turgan transport vositasini urib ketish, to‘siqlarga urilish, piyodalarni bosib (urib) ketish, velosipedchini bosib (urib) ketish, aravani bosib (urib) ketish, hayvonlarni urib (bosib) ketish, boshqa qolgan yo‘l transport hodisasi kabi yo‘l transport hodisalari kelib chiqish sabablari ko‘rib chiqilgan hamda ularni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: avtomobil, haydovchi, yo‘l, piyoda, muhit, transport, yo‘l transporthodisasi, harakat xavfsizligi, harakat tezligi, to‘qnashuv, ag‘dirilib ketish, turgan transport vositasini urib ketish, to‘siqlarga urilish, piyodalarni bosib ketish, velosipedchini bosib ketish, aravani bosib ketish, hayvonlarni urib ketish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018 yilda yangi yo‘llar barpo etish, transport-logistika infratuzulmasini yanada rivojlantirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha quydagi ishlarni rejalashtirganligini ta’kidlab o‘tdi:

birinchidan, 180 kilometr uzunlikdagi temir yo‘llarni qayta tiklash va 200 kilometrdan ortiq temir yo‘llarni elektrlashtirish; ikkinchidan, Toshkent-Urganch-Xiva tezyurar poyezdi va Toshkent, Samarqand-Buxoro-Urganch-Xiva turistik poyezdi harakatini yo‘lga qo‘yish, Toshkent Janubiy vokzali hamda Xiva yangi vokzalini foydalanishga topshirish; uchinchidan, Buxoro-Miskin va Qarshi-Kitob temiryo‘l yo‘nalishlarini elektrlashtirish va Qarshi-Shaxrisabz yagi temiryo‘l tarmog‘ini qurish; to‘rtinchidan, Toshkent shahrida Sergeli va Yunusobod metro yo‘nalishlari, poytaxt atrofidagi katta halqa yo‘l bo‘ylab harakat qiladigan yerusti metrosi qurish borasidagi ishlarni jadallashtirish; beshinchidan, sifatli xizmat ko‘rsatish imkonini beradigan zamonaviy infratuzilmalar barpo etish orqali avtomobil yollari va temiryo‘l yo‘nalishlarida yirik tranzit yo‘llarini tashkil etish.

O‘zbekiston zamini tarixdan ma’lumki, savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalar va Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab shakllangan turli tsivilizatsiyalarni tutashtirib turuvchi markaz bo‘lib kelgan. Hozirgi globalashuv sharoitida Markaziy Osiyoning xalqaro tashuvlardagi ahamiyati to‘xtovsiz o‘sib bormoqda. Bu o‘rinda, birinchi navbatda, mintaqa etakchilaridan biri bo‘lgan O‘zbekistonning salohiyati yaqqol ajralib turadi.

Bugungi kunga kelib samarali tashuvlar tizimi iqtisodiy o‘sishning hal qiluvchi

omili ekani hech kimga sir bo'lmay qoldi. Transport tizimlari va kommunikatsiyalari Markaziy Osiyo orqali transosiyo va transevropa tashuvlarining asosidir. Dengizga chiqish yo'lining mavjud emasligiga qaramasdan, Markaziy Osiyoning qulay geografik joylashuvi unga qator qulayliklar tug'diradi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoning hal qiluvchi transport-tranzit tarmog'iga aylanishi uchun transport-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangilash, mahalliy va xalqaro transport xizmatlari tarkibini diversifikatsiya etish, yangi transport yo'laklarini shakllantirish va rivojlantirish, transport xizmatlari sifatini oshirish va tannarxini kamaytirish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari yo'llarda harakatni amalga oshirish, xavfsizligini ta'minlash jarayonida vujudga keladigan barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Harakat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi me'yoriy hujjatlar O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan.

Avtomobil yo'llarida, shahar ko'cha va maydonlarida transport vositalarining normal harakat rejimining buzilishi oqibatida insonlar halok bo'lishiga, tan jarohati olishiga, shuningdek, transport vositalariga va undagi yuklarning zarar ko'rishiga, yo'ldagi sun'iy inshootlarning zararlanishiga yoki boshqa turdagi moddiy zararlar yetkazishga sababchi bo'luvchi halokatlarga yo'l-transport hodisasi deyiladi. Bu ta'rifga ko'ra yo'l-transport hodisasida ikkita omil bo'lishi tavsiflidir, bular: insonlarning o'limi, tan jarohati yoki katta miqdordagi moddiy zarar, shuningdek, biron-bir transport vositasining harakatda bo'lishidir.

Yo'l harakati to'g'risidagi Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qabul qilingan:

Yo'l transport vositalari qatnovi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maqsadda foydalaniladigan er mintaqasida yoxud sun'iy inshoot yuzasi; Yo'l harakati odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo'llar doirasida harakatlanish jarayonida yuzaga keluvchi vositalar majmui; Yo'l harakati qatnashchisi yo'l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, yo'lovchisi yoki piyodalar tariqasida bevosita ishtirok etayotgan shaxsga aytiladi; Yo'l harakati xavfsizligi yo'l harakati qatnashchilarining yo'l-transport hodisalarini va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holatiga aytiladi; Yo'l-transport hodisasi yo'lda harakatlanayotgan loaqal bitta transport vositasi ishtirokida sodir etilib, odamlar o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar etishiga, transport vositalari, yo'l inshootlari, yuklarning shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar etkazilishiga sabab bo'lgan hodisaga aytiladi; Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash yo'l-transport hodisalarining yuzaga kelish sabablarining oldini olishga, bunday hodisalar oqibatlarining og'irligini engillashtirishga qaratilgan faoliyatga

aytiladi; Transport vositasi odamlarni, yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan qurilmaga aytiladi.

Avtomobil yo'llarida insonlar tomonidan boshqariladigan turli xildagi mexanik va mexanik bo'lmagan transport vositalari, harakatlanayotgan (yoki harakatda bo'lmagan) piyodalar majmuidan iborat murakkab dinamik tizim mavjuddir. Bu tizimni yo'l harakati deb ataladi.

Avtomobil transporti ishini, haydovchi mehnatini, yo'ldagi transport vositalarining va piyodalarning harakatini tashkil etishni bir biridan farqlash lozim. Birinchi ikki masala bilan asosan avtokorxonalar, keyingisi bilan esa yo'l xo'jaliklari, Yo'l harakati xavfsizligi organlari va hokimiyat vakillari shug'ullanadilar.

Avtomobil yo'llarida insonlar tomonidan boshqariladigan turli xildagi mexanik va mexanik bo'lmagan transport vositalari, harakatlanayotgan (yoki harakatda bo'lmagan) piyodalar majmuidan iborat murakkab dinamik tizim mavjuddir. Bu tizim yo'l harakati deb ataladi.

Avtobuslar to'xtab yo'lovchi tushirish yoki ortib ketishlari uchun maxsus avtobus bekatlari bilan jihozlash zarur. Ko'chani o'rta polasidan haydovchilarning tartibsiz harakatlanishi, yo'l qatnov qismining duch kelgan joyidan harakatlanishi, haydovchilarning qatnov qismidagi yo'l belgi chiziqlariga amal qilmasliklari natijasida yo'l transport hodisalarini ro'y bermoqda ushbu holatni oldini olish maqsadida qatnov qismidagi 1.3 –to'rt undan ortiq harakatlanish bo'lagi bo'lgan yo'llarda qarama-qarshi yo'nalishdagi transport vositalari oqimini ajratuvchi chiziq o'rniga barer beton devorlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqoridagilarga haydovchilar, piyodalar va piyoda bolalar amal qilishsa har xil baxtsiz hodisalarni oldini olgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – 80 b.
2. Азизов Қ.Ҳ. Ҳаракат хавфсизлигини ташкил этиш асослари. Дарслик. – Тошкент: 2009. - 267 бет.
3. Xolmatov U., Xolmatov S. YO 'L TRANSPORT HODISALARINIVUJUDGA KELISHIDA PIYODA VA PIYODA BOLALARNING O 'RNI //Science and innovation in the education system. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 8-15.
4. Xolmatov U. S., Umid o'g'li X. S. YO 'L TRANSPORT HODISALARINI VUJUDGA KELISHIDA "AVTOMOBIL-HAYDOVCHI-YO 'L-PIYODA-MUHIT" TIZIMINING ANAMIYATI //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 19-26.
5. Икромов Н. А., Холматов У. С., ўғли Холматов С. У. ҲАЙДОВЧИЛАРНИНГ ИШ ТАЖРИБАСИНИ ЙЎЛ ТРАНСПОРТ ҲОДИСАСИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ //Journal of new century innovations. –2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 11-18.

TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING KREATIV USULLARI

Axmatova Sojida Shermamat qizi

*Ishtihon tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli
37-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ta'lim sohasini rivojlantirish yo'lida bajarilayotgan islohotlar haqida to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: ta'limiy kreativlik, kommunikatsiya, kompetensiyaning shakllanishi.

Dunyoga yuz tutib borayotgan mustaqil davlatimizga hozirgi kunda o'z haq - huquqini anglaydigan, fikrini isbotlay oladigan, gapga chechan, so'zini o'tkaza oladigan mutaxassislar kerak. Bunday mutaxassislarni esa maktab tayyorlab beradi.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Jamiyat taraqqiyotini, hayotning takomillashuvini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunga erishishning birdan bir yo'li yosh avlodning o'qishi va bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishdir. Hadislarda «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», deyilishida juda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish va intilishlar insonni ma'naviy jihatdan o'stiradi, axloqiy barkamollikka yetishtiradi. Shuning uchun ham bizning davrimizda xalq ta'limi tizimiga, yoshlar ma'naviyatining muhim bir manbai sifatida katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi vaqtda mana shu masalaga alohida e'tibor berilmoqda. Zeroki, yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko'pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko'nikmalari hamda og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda, ularni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda ta'lim tizimining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir.

Shu o'rinda avvalo muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning ma'sullar bilan birga chiqargan qarorlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik ta'lim sohasini yana-da takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish hamda sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Pedagogik ta'lim sohasini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorni imzoladi.

Qaror bilan 2020/2021 o'quv yilidan boshlab o'qish muddati 3 yil bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxati tasdiqlandi. Shuningdek, pedagogik mahorat va malaka darajasiga ega bo'lgan, o'z ishida aniq natijalarga erishgan o'qituvchilarga yuqori ish haqi to'lash tizimini joriy qilishga qaratilgan "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xalq ta'limi tizimida darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etish ishlarini sifat jihatidan yaxshilashga qaratilgan "Noshirlik va matbaa sohasini yana-da rivojlantirishga oid qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, darsliklar va o'quv-metodik majmualarni tayyorlash, nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, shu jumladan, davlat buyurtmasiga asosan tayyorlanadigan darsliklar va o'quv-metodik majmualardan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlar Xalq ta'limi vazirligiga o'tkazildi.

Xalq ta'limi vazirligi va Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasining "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Respublika ta'lim markazining Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich joriy qilish bo'yicha ishchi guruhi va "Yo'l xarita"si tasdiqlandi. Xalq ta'limi vazirligi tizimida bugungi kunda jami 892 nomdagi elektron axborot-ta'lim resurslari yaratilgan, tizim, video va audiodarslar, interaktiv va animatsiyali virtual laboratoriya ishlari hamda dars ishlanmalari, multimedia ilovalar, testlar, ta'limiy o'yinlar boshqa qo'shimcha ta'lim resurslarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Shuningdek, Qarorga ko'ra, har bir tumanda (shaharda) matematika fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Ushbu qarorlarning har bir bandi, uning har bir so'zi davlatimizda ta'lim sohasini rivojlantirishning asosiy omili sifatida qo'llaniladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan oliy ta'lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayotgani ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash va bu borada hukumatimiz tomonidan berilgan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "besh muhim tashabbus"ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari — "Prezident maktablari", "Temurbeklar maktabi", "Ijod maktablari" bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda

ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, ta'lim tiziming rivojlanishi mutaasaddilar bilan bir qatorda ta'lim oluvchi yoshlar va biz kabi ta'lim beruvchi bo'lajak kadrlarga ham birdek bog'liq. Bu fikrning isboti sifatida shuni aytolamanki, har bir bo'lajak mutaxassis, har bir oliy o'quv yurti talabasi o'z zimmasiga shunday mas'uliyatni olsa, ta'lim sohasi yanada barqarorlashib, davlatimiz bu sohasada yetakchi davlatlar qatorida yuqori cho'qqilarga chiqaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Pedagogik ta'lim sohasini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. „Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti" 2017y, O'zb.Resp. qonun hujjatlari to'plami, 14-son, 280 modda
3. 2023.strategy.uz
4. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2020 yil

TARBIYA PSIXOLOGIYASINING PEDAGOGIK TAHLILI

Bobanov Xurshid

Shahrisabz davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi.

Ramazonova Sevinch Sodiq qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lim yunalishi

1 - bosqich talabasi.

Annotasiya: Ushbu maqolada inson hayotida tarbiyaning qanchalik muhim ekanligi va unga pedagogik jihatdan yondashish lozimligini, bolaga tarbiya berish jarayonida ota onaning o' rni haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Kalit so'zlar: tarbiya, tarbiya psixologiyasi, tarbiyasi qiyin bolalar, xulq atvor, axloq.

Kirish

Tarbiya inson hayotini belgilab beruvchi, uning ma'naviy, ma'rifiy aqliy va ruhiy jihatdan shaxs sifatida shakllanishini ta'minovchi omil sanaladi. Tarbiyaning boshlang'ich bo'g'ini sifatida oila alohida ahamiyat kasb etadi. Bola tug'ilibdiki uning atrofida ota onasi va opa akalari g'amxo'rlik qilishadi. Farzandning jamiyatg foydasi tegadigan farzand sifatida tarbiyalash ham aynan ota onaga bog'liq. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql buning yaqqol isboti bo'la oladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Garchi bolaga tarbiya berish ota ona zimmasiga yuklatilgan bo'lsada fan borasida ko'pgina muhokamalarga sabab bo'lgan mavzu sifatida qaraldi. Tarbiya so'ziga fan doirasida qaraydigan bo'lsak uning bir necha turlari mavjud.

- 1) aqliy tarbiya
- 2) ahloqiy tarbiya
- 3) mehnat tarbiyasi
- 4) jismoniy tarbiya
- 5) huquqiy tarbiya
- 6) estetik tarbiya
- 7) ekologik tarbiya
- 8) jinsiy tarbiya.

Yuqorida ko'rsatib o'tganlarimiz tarbiyaning turlari hisoblanadi.

Bolada xar bir tarbiya turlarini to'laqonli rivojlantirish uchun ota ona bolaga ko'proq e'tibor qaratishi va bolaning savollariga to'laqonli javob berishlari lozim.

Asosiy qism:

Yuqorida sanab o'tilgan tarbiya turlariga ta'rif.

Aqliy tarbiya - bilimlarni to'plash, voqea hodisalarni naliz va sintez qilish hisoblanadi. Shu bilan birgalikda aqliy tarbiya vazifasiga biror fan doirasidagi ma'lumotalarni o'rganish ham kiradi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning boshlang'ich bo'g'ini ham aqliy tarbiya sanaladi.

Ahloqiy tarbiya - ahloq ijtimoiy tushunchalardan biri bo'lib, uning mohiyati shaxsning xulq atvori, xarakteri bilan belgilanadi. Ahloqiy tarbiya insonlar bilan, turli ishlar bilan va vazifalar bilan munosabat o'rnatganda namoyon bo'ladi.

Mehnat tarbiyasi - insonni shaxs sifatida shakllanishini uchun zarur bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishida o'ziga bo'lgan ishonch, qat'iylilik, tashkilotchilik, ishni ko'zini bilish kabi sifatlarni namoyon qilishda asosiy rol bajaradi. O'zbekiston Respublikasi "**Ta'lim to'g'risida**"gi va "**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**"ga muvofiq o'quvchilarga mehnat tarbiyasini berishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya - sog'liqni mustahkamlashga, organlarning faol rivojlanishiga qaratilgan tarbiyaning alohida e'tiborga molik qismi. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish insonning aqliy qobiliyatini hamda jismoniy holatini yaxshi rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga insonda estetik hislarning paydo bo'lishini ham ta'minlab beradi. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish ibtidoiy jamoa davrida ham bo'lgan. Ular asosan o'yin va ov qilish orqali chiniqqanlar.

Huquqiy tarbiya - bu jamiyat a'zolarining yurish turishi, o'zini tuta bilishi va davlat tomonidan belgilangan qonun - qoidalarga qat'iy rioya qilishi hisoblanadi. Huquqiy tarbiyaning vazifasi insonlar ongida, huquqning ahamiyati va maqsadini, hamda qonun qoidalarga ongli ravishda rioya qilish lozimligini singdirishdir.

Estetik tarbiya - estetik tarbiyaning asl mohiyati go'zallikdir. Go'zallik bu insonning qalb go'zalligi, istarasining issiqligi, odob axloqli bo'lishidir. Odam bolasidagi go'zallik tabiat ato qilgan husn jamolidan tashqari, yana eng yaxshi xulq atvorini, insondagi eng yaxshi fazilatlarni, o'z ichiga olgan odamiylikdan iborat deya Mirzakalon Ismoiliy o'z fikrlarini bildiradi.

Ekologik tarbiya - bu tarbiyaning asl mohiyati insonga ekologik bilim berish va ularning tabiatga bo'lgan mehrini o'yg'otishdan iborat. Ekologik tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat va tabiatning rivojlanish qonuniyatlari ular o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rganish va zamonaviy fikrlovchi shaxslarni tayyorlash hisoblanadi.

Jinsiy tarbiya - bolalar balog'at yoshida jinsiy rivojlanish boshlanadi. O'smirlar va yoshlarda jinsga nisbatan to'g'ri munosabatlarni shakllantiruvchi tarbiyaning muhim turidir. Jinsiy tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarning nikohni qadrlashga hamda oilani qadrlashga yordam berishdan iborat.

Tarbiya bu insonni kamolotga yetaklovchi, uning shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlovchi omildir. Tarbiya borasida O'zbekiston Respublikasi ikkinchi prezidenti

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "**Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi**" deb ta'kidlaydi. Chunki inson qanchalik tarbiyali bo'lsa jamiyat undan foyda ko'radi. Tarbiyasiz bo'lsak-chi? Unda jamiyatga katta putur yetadi. Ya'ni jamiyat rivojlanishdan ortda qoladi. Inson tarbiya olishi bilan birga unda "**men**" tushunchasi ham shakllanib boradi. Insonning menligi boshqa kishilar bilan munosabat qurganda, o'tmishi va kelajagini his qila boshlaganda namoyon bo'ladi. Agar kishi o'z meniga haddan ortiq e'tibor qaratsa va boshqalardan o'zini ustun deb bilsa, manman va kibrli inson sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyasi qiyin bo'lg'an bolalarga ham asosiy sabab bu manmanlik va kibrdir. Bolada tarbiyaning qiyinlashuvi oiladagi turli nizoli holatlar, bolaga e'tibor va mehr yetishmasligi sababdan yuzaga keladi. Bunday sharoitda ulg'aygan bola o'ziga nisbatan ishonchsiz va zo'ravonlikka moyil bo'lib qoladi undan tashqari ichkilik, og'irlik kabi kechirib bo'lmas xatoliklarga yo'l qo'yish ehtimoli ham yuqori bo'ladi. Tarbiyasi og'ir bo'lg'an bolalar uchun ular yashayotgan oila, maktab, sinf va muhit katta ahamiyat kasb etadi. Psixologiyada tarbiyasi og'ir bo'lg'an bolalar bir qancha turlarga bo'linadi.

Birinchi tur - qonunbuzuvchilarga taqlid qiluvchi bolalar.

Ikkinchi tur - ijtimoiy moslashuvi salbiy, mustahkam qarashlarga ega bolalar.

Uchinchi tur - ikkilanuvchi o'z xatolarini tushinuvchi bolalar.

To'rtinchi tur - Kuchli bolalarga bo'ysunuvchi bolalar.

Beshinchi tur - tasodifan qonunbuzarlik yo'lga kirib qolgan bolalar hisoblanadi. Bolalarni bu yo'lga kirmasliklari uchun oila a'zolari e'tiborli bo'lishlari lozim. Bola rivojlanishida eng muhim omil bu muhit hisoblanadi. Aynan bu fikrning tasdig'i sifatida rus olimlari **S.LRubinshteyn, L.S Vigotskiy, A.L Leontov, B.G Ananov** tajribalar olib borganlar. Tashqi muhit inson psixikasiga qnady ta'sir qiladi degan savolga bir necha usullar bilan javob berish mumkin. Ijtimoiy muhitda sodir bo'ladigan har qanday voqea inson psixikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va chuqur iz qoldiradi.

Tarbiyaning umumiy vazifalari.

Jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda qator ehtiyojlarini qondirish nazarda tutiladi.

Jamiyat rivoji uchun zarur bo'lg'an ijtimoiy madaniyatga mos bo'lg'an insonlarni tayyorlash.

Bola tarbiyalashda oila bilan birgalikda.aktab ham katta ahamiyatga ega.Bu borada Abdulla Avloniy "**Bolalarning tarbiya topishida, ularning qalbida axloqiy,ma'naviy barkamollikni o'stirishda asosiy kuch maktab**" deya ta'kidlab o'tadi. Tarbiya maktabgacha ta'lim va maktabda turli faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Tarbiya haqida Sa'diy Sheroziy shunday deydi.

Minbarning poyida tursa ham eshak

Tarbiya yuqmaydi, bo'lmaydi odam

Tarbiya ko'rmagin ulg'aysa kishi.

Eshshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham.

Balog'at yoshi 11 yoshdan 14 - 15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda balog'at yoshidagi bolalar asabiy, ko'p e'tibor talab qiladigan, o'z fikrida qat'iy turadigan bo'lib qolishadi. Aynan bu davrda jinsiy yetilish boshlanadi va gormanol o'zgarishlar yuzaga kelishi natijasida ruhiy o'zgarishlar kelib chiqadi. O'mirlik yoshida esa o'zga jinsga moyillik hislari paydo bo'ladi. Bu davrda o'smir yolg'izlikka intiluvchan, jamoalardan o'zini tortuvchi va yaqin bir kishisi bo'lishiga harakat qiladi. Bundan shunday xulosaga ega bolish mumkinki xar bir davrda tarbiya o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi.

Xulosa:

Ushbu maqoladan xulosa qilar ekanmiz tarbiya asosan oiladan boshlanadi va bir insonning tarbiyasi bo'lishi jamiyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan bir insonning tarbiyasizligi ham jamiyatga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Inson tarbiyasiga oila kuchli ta'sir etganidek maktab ham katta ahamiyatga egadir. Inson shaxs sifatida shakllanishi uchun tarbiya turlarining har biri rivojlangan bo'lishi lozim. Shunday ekan bola tug'ilishi bilan oq jismoniy rivojlanishi bilan birga uning tarbiyaviy jihatdan rivojlanishiga ham e'tibor ko'rsatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) G'oziyev Pedagogik psixologiya asoslari.
- 2) Sh.A Do'stmuhammedova, X.A Tillashayxova, G Baykunosova, G. Ziyaviddinova Umumiy psixologiya (yosh davrlari va pedagogik psixologiya)
- 3) R.S Nemov Psixologiya.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA INTERFAOL USLUBLARDAN FOYDALANISHNING TA'LIMIY AHAMIYATI

Kuchkarova Mohira Nurillayevna

*Ishtihon tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli
37-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yangi interfaol uslublardan foydalanishning ijobiy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, interfaol metodlardan namunalar tavsiya qilinib yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qish, interfaol, izohli o'qish, intonatsiya, metod, ta'lim, ifodali o'qish, badiiy o'qish.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan oq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari uchun o'qituvchilar astoydil harakatda bo'lishlari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi - o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi - o'qituvchi, o'quvchi - o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan,

o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat - dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ - ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media - ta'lim metodlaridan iborat. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz:

Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi

Ta'lim - tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Interfaol o'yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi. -ishtirokchilarni tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o'yinlar : - ishtirokchilarning soni bo'yicha -yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va

ommaviy tarzda o'yinlar : - o'yin jarayoni bo'yicha fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan; - vaqt me'yor bo'yicha -dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlar. Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga boigan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi. O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish savodxonligi" darslariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqloq va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir. Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini

shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estelik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va "Ona tili" o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.
2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxonidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.
3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafak-kurini o'stirish.
6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.
7. Elementar adabiy tasavurlarini shakllantirish.

Shuni unutmash kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi. O'qish inson xayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l-yo'riqlarini oqish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutug'i asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, o'qilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq turli talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, ifodali o'qishga katta e'tibor berilgan. Hozir

maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib borilyapti. Izohli o'qishga keyingi ma'ruzalarda to'xtalamiz. O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar xayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati, ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uyg'onadi. Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q. va boshqalar "O'qish ktobim" 2- sinf, T. 2006 yil
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
3. Abdullayeva Q., va boshqalar "Ona tili" T., "O'qituvchi" 1999 yil.
4. Bo'ri Ziyamammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiyazamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.
5. «Kitobim-oftobim» Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti, 2008 yil.
6. "O'qish savodxonligi" darsligi.
7. www.ziynet.uz sayti.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ	3
2	MAKTABGACHA YOSHLI BOLALARDA MUHOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA O'YINLARNING AHAMIYATI	6
3	ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ СОДИР ЭТИЛИШИ САБАБЛАРИ ВА ШАРТ-ШАРОИТЛАРИНИ АНИҚЛАШ ҲАМДА БАРТАРАФ ЭИШ ФАОЛИЯТИ	10
4	ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ СОДИР ЭТИЛИШИ САБАБЛАРИ ВА ШАРТ-ШАРОИТЛАРИНИ АНИҚЛАШ ҲАМДА БАРТАРАФ ЭИШ ФАОЛИЯТИ	16
5	MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA KO'P PARTIYAVILIK SIYOSATI	21
6	IQTISODIYOTNING REAL SEKTORINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI	24
7	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	27
8	ALISHER NAVOIY ILMIY MEROSI O'RGANILISHI	32
9	ALISHER NAVOIY IJODIDA LIRIK OBRAZLAR.LIRIKADA VOQELIKKA MUNOSABAT	37
10	LOOKING AT THE POTENTIAL OF PERSONNEL IN THE HOSPITALITY INDUSTRY AS THE BASIS OF THE COMPANY'S COMPETITIVENESS	39
11	XONANDALIKDA TALABALAR OVOZINI YO'LGA QO'YISH VA DARS MAZMUNI VA METODIKASI	43
12	SHAXS TUSHUNCHASI HAQIDA MULOHAZALAR	46
13	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQILLIKDAN KEYINGI ILM FAN SOHASIDA RIVOJLANISHI	51
14	PROFILAKTIKA INSPEKTORINING FAOLIYATIDA REJALASHTIRISHNING TARTIBI VA AHAMIYATI	53
15	ПРОФЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ГВАРДИЯ ОРГАНЛАРИ БИЛАН ХАМКОРЛИГИ	57
16	DESPOTIZMNING VUJUDGA KELISH TARIXI VA XUSUSIYATLARI	62
17	PROFILAKTIKA INSPEKTORINING ALIHIDA TOIFALANGAN HUDUDLARDA XIZMAT OLIV BORISHDAGI KASBIY MAHORATI VA KO'NIKMALARI	69
18	ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA DA NOQONUNIY MIGRATSIYA VA ODAM SAVDOSI OLDINI OLISH VA FOSH ETISH	74

19	PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SOG`LIQQA QARSHI HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	81
20	QORAMOLCHILIKDA NASILCHILIK ISHLARI VA SELEKTSION TADBIRLARNI AMALGA OSHIRISH	87
21	QUYONLARNING GO`SHT MAHSULDORLIGI, GO`SHT TARKIBI VA TO`YIMLILIK QIYMATI	90
22	TURLI YOSHDAGI QORAKO`L QO`ZILARNING TIRIK VAZN VA EKSTERER KO`RSATKICHLARI	92
23	SUT YO`NALISHIDAGI QORAMOLLARNING BUQACHALARIDAN GO`SHT ISHLAB CHIQRISHDA OZIQLANTIRISHNING AHAMYATI	94
24	TURLI ZOTGA MANSUB SIGIRLARNING O`SISH VA RIVOJLANISH KO`RSATKICHLARINI BAHOLASH	97
25	OVQAT HAZM QILISH SISTEMASI ORGANLARINING TUZILISHI VA FUNKSIYASI	99
26	BOSH MIYA TUZULISHI VA FUNKSIYALARI	104
27	VOLEYBOL SPORT TURIDA ASOSIY HARAKATLANISH ELEMENTLARI (METODIK TAVSIYA)	108
28	BYUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING AUDITORI	113
29	XALQ CHOLG`U ASBOBLARINING O`ZIGA XOSLIGI	116
30	PROFILAKTIKA INSPEKTORINING FUQAROLAR BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH, MUOMMOLAR VA YECHIMLAR	120
31	РОЛЬ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО	128
32	СТИЛИСТИКА ЮРИДИЧЕСКОГО ТЕКСТА	133
33	ВЛАДЕНИЕ ЯЗЫКОМ КАК КЛЮЧЕВОЙ НАВЫК ВОЕННОСЛУЖАЩЕГО	136
34	O`QITUVCHILARI FAOLIYATIDA AKTNING SAMARASI	139
35	ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА ДАВЛАТЧИЛИК СИЁСАТИ ВА ХУҚУБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ	141
36	VOCABULARY TEACHING IMPLICATIONS FOR DEVELOPING LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE COMPETENCES	144
37	YO`L TRANSPORT HODISALARINING KELIB CHIQISH SABABLARI	148
38	A`LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING KREATIV USULLARI	151
39	TARBIYA PSIXOLOGIYASINING PEDAGOGIK TAHLILI	154
40	BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDAIDA INTERFAOL USLUBLARDAN FOYDALANISHNING TA`LIMY AHAMIYATI	158

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.





OPEN  ACCESS

